

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI

QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

UDK . 811.512.133

XALILOVA NILUFAR BAXROMOVNA

**O'ZBEK TILIDA SEZGI FE'LLARINING PARADIGMATIK VA
VALENT TAHLILI**

10.02.01 – o'zbek tili ixtisosligi buyicha

Magistr ilmiy darajasini

olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari

nomzodi, dotsent I.Po'latov

QO'QON – 2014

MUNDARIJA

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....	3-6 bet
--	----------------

I BOB

SEZGI FE'LLARI VA ULARNING MA'NOVIY PARADIGMASI

I.1. Fe'llarga xos ma'noviy xususiyatlar.....	7-bet
I.2. Sezgi - insonning bilish manbai.....	14-bet
I.3. “Valentlik nazariyasi” talqinlari xususida.....	24-bet
I. 4. Fe'l leksemalarning so'z bog'lashuvi sifatidagi talqini.....	31-bet
1- bob xulosasi.....	

II BOB

O'ZBEK TILIDAGI VALENTLIK TURLARI

2.1. O'zbek tilida valentlikning ko'rinishlari.....	38-bet
2.2. So'z valentliklari va gap valentliklari munosabati.....	43-bet
2- bob xulosasi.....	

III BOB

SEZGI FE'LLARINING STILISTIK-PRAGMATIK TALQINI

3.1. Fe'l leksik ma'nosining sintaktik valentlikka ta'siri.....	55-bet
3.2. Sezgi fe'llarining stilistik va pragmatik ma'no doirasi.....	64-bet
3.3. III BOB bo'yicha xulosa	75-bet
UMUMIY XULOSA.....	80-bet
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	80-bet

KIRISH

Tadqiqotning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2012 yil 20 mart 76-sonli qaroriga muvofiq "2011-2016 yillar Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash dasturi" asosida oliy ta'limning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi¹. Bu isloxlarning amalga oshirilishida bevosita ilmiy tadqiqot ishlari sifatini yaxshilashga ham ta'sir etmasdan qolmaydi, albatta. SHu ma'noda o'zbek tilshunosligi mutaxassislari ilmiy salohiyatini yuksaltirishda lingvistik tadqiqotlarning yangi va yangi qirralarining ochila borayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikka valentlik nazariyasi asosida yondashish frantsuz tilshunosligida L.Ten'er, rus tilshunosligida Filicheva N.I. Katsnel'son S.D., nemis tilshunosligida L.Veysgerber, G.Xel'biglar tomonidan boshlangan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida I.Qo'chqortoev, G'.Abduraxmonov, A.Nurmonov, N.Maxmudov, R.Rasulov, M.Mirtojiev kabi tilshunosligimizning yetuk darg'alari tomonidan ham tadqiq ishlari amalga oshirildi. Bunda albatta, lisoniy birliklarning birikuvchanlik xususiyatlarini o'rganish valentlik nazariyasiga olib keladi. Ten'erning fe'lning sintaktik xususiyatlariga, uning birikuvchanligiga qiziqishi keyinchalik sintaktik valentlik ta'limotining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi va valentlik deganda, birinchi navbatda, fe'lning sintaktik valentligi tushuniladigan bo'ldi. Dastlab u valentlik tushunchasini fe'lning sintaktik tasnifi uchun qo'llaydi va nolb, bir, ikki hamda uch valentlikka ega bo'lgan fe'llarni ajratadi. Ten'er o'z ishlarida gapni struktur tahlil qilar ekan, uning asosida fe'l yotishini ta'kidlaydi va buning natijasida fe'l valentligi nazariyasi vujudga keldi. «Bunga ko'ra gap tuzilishini predikat (ko'p hollarda fe'l bilan ifodalangan) belgilaydi va u o'ziga muvofiq kategorial belgilarga o'rin ochadi. Gapning barcha qismlari fe'l predikat munosabatiga ko'ra unga bog'liq qismlarga (aktantlar, argumentlar, to'ldiruvchilar, partnyorlar, komplementlar va h.k.) va erkin qismlarga (sirkonstantlar, erkin kengaytiruvchilar, hollar, ad'yunktlarga) bo'linadi»². Bu bo'yicha I.Qo'chqortoev, A.Nurmonov, M.Mirtojiev va R.Rasulovlarning

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 20 mart 7- sonli qarori.

² Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo'jaeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent:Fan, 1992. 41-b.

tadqiqotlari katta ahamiyatga ega va shularga tayangan holda inson tana a'zolarining sezgi fe'llari turlarini valentlik nazariyasi aspektida tadqiq etish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. So'zni til tizimining asosiy birligi sifatida har tomonlama chuqur o'rganish hozirgi tilshunoslikning eng muhim masalalaridan biridir. Bu muammoni hal etishda hozirgi lingvistikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolayotgan valentlikning semantik nazariyasi katta rol o'ynaydi. Tilshunoslik maydoniga kirib kelgan davrdan boshlab valentlik nazariyasi hozirgi sintaksisning muhim yo'nalishi sifatida shakllanib, tilshunoslikda shakl va mazmun planidagi tadqiqotlarga, so'zlarning birikuvchanligi va gap strukturasini (avvalo fe'llarga nisbatan) o'rganishga ma'lum darajada o'z hissasini qo'shdi. Hozirgi paytda ushbu nazariyaning tushunchaviy mohiyatini ishlab chiqish borasida muayyan natijalarga erishildi. Xususan, yuqorida tahlilga tortilgan ishlar bilan bir qatorda Katsnel'son, Kibardina, Moskal'skaya, Dolinina, Stepanov, Filichyova, Admoni, Schippan, Yenjel kabi tilshunoslarning fe'llar valentlik tasnifini aniqlash tamoyillari, fe'llarning valentligi va mazmuni o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash, aktantlarning va kengaytiruvchilarning semantik turlarini ajratish kabi muammolarga bag'ishlangan ishlar, O'zbek tilshunosligida ham fe'llarning ayrim semantik guruhlarining valentlik tabiatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar maydonga keldi³. SHunga qaramay, valentlik nazariyasi asosida fe'llarning ma'noviy guruhlarining potentsial imkoniyatlarini, inson sezgisiga ta'sir etuvchi fe'llar guruhining aktanlar va erkin kengaytiruvchilar, obligator (majburiy) va fakul'tativ argumentlarini belgilash, valentlik nazariyasi kategoriyalarining an'anaviy grammatika kategoriyalari bilan munosabatini aniqlash kabilar o'z yechimini kutayotgan masalalardandir. SHu bilan birga valentlik va uslubiy vositalar munosabati muammolari, gap tiplarida fe'llarning realizatsiyasi masalasi ham yuqorida ta'kidlangan ishlar sirasiga kiradi.

³ Kuchkartaev I. Valentnyy analiz glagolov rechi v uzbekskom yazyke. Tashkent: O'qituvchi, 1977; Mirtojiyev M.; Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentligi. Toshkent: Fan, 1989; Muhammedova S. O'zbek tilida harakat fe'llarining semantikasi va valentligi. Toshkent: Fan, 2005.

Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi: ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida amalga oshiriladi.

Ishning davlat dasturlari yoki ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi: tadqiqot ishi Qo'qon DPI, AnDU o'zbek tilshunosligi kafedralaridagi "O'zbek tilinng sistemaviy tadqiqi" yalpi ilmiy tadqiqot mavzulari va Davlat ilmiy-texnika dasturlari "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni joriy etish jarayonida uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish muammolarini tadqiq etish" yo'nalishlari doirasida olib boriladi.

Tadqiqotning maqsadi.O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabalarini o'zbek tilshunosliginig zamonaviy tadqiqi muammolari va ularni hal etishda tilshunoslikning yangi nazariy talqinlari vujudga kelayotganligi bilan yaqindan tanishtirish tilshunoslik nazariy grammatikasida yuksak ilmiy samaradorlikka erishish.

Tadqiqotning ob'ekti Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogika oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot institutlari uchun darslik, o'quv qo'llanmalar va ilmiy uslubiy materiallar.

Tadqiqotning predmeti. Oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilshunosligi bo'yicha bakalavr, magistr ilmiy darajasiga ega bo'lgan salohiyatli o'qituvchi kadrlarni tayyorlash jarayoni.

Kutilayotgan ilmiy yangiliklar:

1. Fe'l grammatik kategoriyasining inson tana a'zolari sezgi fe'llari turlarini ajratish va ularning ma'noviy guruhlari bo'yicha tasniflarini ishlab chiqish.

2. Har bir sezgi fe'llari ma'noviy turlarining valentlik nazariyasi asosidagi potentsial imkoniyatlarini aniqlash:

- sezgi fe'llari
- ko'ruv fe'llari
- eshitish fe'llari
- hid bilish fe'llari

- ma'za-ta'm fe'llari

3. Sezgi fe'llari ma'noviy turlari valentlik imkoniyatlarining obligatorlik va fakultativlik xususiyatlarini nutqiy pragmatik vositalar asosida sharhlash.

4. Fe'llar ma'noviy guruhlarining bevosita uslubiy qo'llanish imkoniyatlarini yoritish kabilar muhim o'rinda turadi.

Bunda tilshunoslik fani bo'yicha tayyorlangan DTSda ko'rsatilgan mazmun - talabalarning erishishi lozim bo'lgan bilim ko'nikma va ilmiy malakalarining darajasi o'rganilishi, dasturda keltirilgan grammatik mavzularning o'qitilish metodikasi, darslik va metodik qo'llanmalarining me'yoriy hujjatlarga mosligi, mavzuga taalluqli bo'lgan jurnal maqolalari hamda dissertatsiyalar atroflicha tahliliy ko'rinishda o'rganiladi, shunga muvofiq lug'atlar tayyorlash imkoniyatlari yuzaga keladi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati: dissertatsiya natijalari oliy o'quv yurtlarida tilshunoslik fani bo'yicha maxsus kurs, tanlov fani sifatida va hozirgi o'zbek adabiy tili fanida yoziladigan darslik, o'quv qo'llanmalar uchun nazariy material bo'lib xizmat qiladi. Tilga sistem-nazariy yondashuv tamoyillari ishlab chiqiladi, ilmiy-metodik tavsiyalar yaratiladi va tajriba-sinov maydonlarida sinovdan o'tkaziladi. Olingan natijalar diaxronik va sinxronik tekshiruv asosida tahlil qilinadi.

I BOB

SEZGI FE'LLARI VA ULARNING MA'NOVIY PARADIGMASI

1.1.Fe'llarga xos ma'noviy xususiyatlar

Oliy o'quv yurti, maktablar uchun tuzilgan darslik va uning xususiyatlari to'g'risida fikr va mulohazalar yuritilgan, asosli xulosalar chiqarilgan. Bu fe'lni, uning ma'nolarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega .

Fe'l mavzusi yuzasidan olib borilgan ilmiy-tekshirish ishlari, u xaqdagi adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, u turli semantik ma'nolarini bildiradi. Bu, ayniqsa, o'qituvchilarni shu mavzu bo'yicha nazariy material bilan qurollantirishda, talabalarning bilimini boyitishda muhim rol o'ynaydi. Fe'l anglatgan qator ma'nosiga ko'ra turli mazmuniy guruhga bo'linadi . Bunda xarakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish xolatga xos ruhiy-psixologik, tafakkur bilan bog'liq fe'llar farqlandi. Harakat fe'li jonli va jonsiz predmetga xos harakatni ifodalaydi.U yurish ,ta'sir etish „zarb” berish kabi ko'rinishda bo'lishi mumkin. Qo'l, oyoq, yuz, og'iz, gavda bilan bog'liq harakatda harakatlanuvchi ob'ekt yaqqol ko'rinishda turadi. Oyoq bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'l: yurmoq, kezmoq, yo'rg'alamoq, pildiramoq, lapanglamoq, gandarlammoq, do'kanglamoq, tentiramoq, tepqilamoq, tepmoq, toptamoq, deysinmoq, tisarilmoq. Qo'l bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'l: yurmoq, solmoq, ushlamoq, silamoq, tirnamoq, shapaloqlamoq, chimchilamoq, uqalamoq, qitiqlamoq, changallamoq, mushtlamoq, chertmoq, hovuchlamoq, chapak chalmoq, paxsa qilmoq. Yuz, gavda, og'iz, lab, quloq, burun va x. bilan bog'liq harakatlar ham mavjud. Nutq fe'li insonning gapirish faoliyati bilan bog'liq harakatni ifodalaydi: gapirmoq, so'zlamoq, aytmoq, demoq, bidirlamoq, do'ng'illamoq, vaysamoq, g'uldiramoq, vaqillamoq, javramoq, bobillab bermoq, javob bermoq, vag'illab ketmoq kabi. SHu singari xolat ma'nosini ifodalovchi fe'llarning ham o'ziga xos ma'noviy xususiyatlari bor.

Holat fe'li. Inson tabiatiga xos jismoniy va ruhiy holat turli xususiyatga ega. Holatni to'rtga bo'lish mumkin:

A)ichki holat (ruhiy kechinma bilan bog'liq: eslat, unutish, yodlash, tubanlashmoq kabi);

B) tashqi holat (ichki holatning namoyon bo'lishi bilan bog'liq: hafa bo'lmoq, shodlanmoq, esanqiramoq, dovdirammoq, g'azablanmoq);

V) jismoniy holat (inson tanasi bilan bog'liq: holsizlanmoq, kuymoq, kuclanmoq, zaiflashmoq);

G) ijtimoiy holat (jamiyat bilan bog'liq: boyimq, kambag'alllashmoq, ko'tarilmoq, urilmoq, quvg'in bo'lmoq kabi).

Natijali faoliyat fe'li tizimi yasamoq, ko'rmoq, bunyod etmoq, hosil bo'lmoq, chizmoq, yozmoq, bino qilmoq, arralamoq, parchalamoq, sayqal bermoq, randalamoq, sindirmoq, yemoq, o'chirmoq, kabi birlikni o'z ichiga oladi.

Tafakkur fe'li sirasiga insonning fikrlash qobiliyati bilan bog'liq o'ylamoq, fikrlamoq, hayol surmoq, tafakkur qilmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq, bir qarorga kelmoq, xulosaga kelmoq kabi kiradi

Munosabat fe'li qatori erkalamoq, suymoq, yaxshi ko'rmoq, parvona bo'lmoq, xushomad qilmoq, rahmi kelmoq, yon bosmoq, maftun bo'lmoq, e'zozlamoq kabi ijobiy harakterdagi munosabat fe'llari, beti qursin, xudo olsin, qorasi o'chsin, baloga giriftor bo'lsin, juvonmarg bo'lgur kabi salbiy harakterdagi munosabat fe'lidan tashqil topadi.

Fe'l ma'noviy guruhida ham markaz va qurshov leksemasi farqlanadi. Masalan, ma'nodosh fe'lda bosh (dominanta) so'z, uyadoshlik paradigmasida uya (giperonim) markaz leksemasi, boshqa ma'nodosh va uyadosh (giponim) qurshov leksemasi. Kulmoq fe'li dominant sifatida bunga ma'nodosh boshqa leksemani, buzmoq esa buzishning turli ko'rinishini ifodalaydigan giponim leksemani uyushtirib turadi. So'z yirikroq butunlikka birlashtirilganda markaz leksemasigina bu butunlikdan joy oladi, qurshov leksemasi esa "soyasi" sifatida quyida qolaveradi. Masalan, kulmoq, yig'lamoq, xursand bo'lmoq leksemasi o'z atrofida ko'plab fe'lni birlashtirgan. Lekin bu uch leksema mansub tizimiga kira olmaydi, quyi bosqichda qoladi.

Fe'l so'z turkumiga oid ilmiy tadqiqotlar qatorida yuqoridagi kabi fe'lning ma'noviy guruhlarini soddaroq tarzda ham semantik jihatdan guruhlagan ishlar yana ko'plab uchraydi.

Darhaqiqat, o'zbek adabiy tilida fe'llar xilma-xil leksik-semantik xususiyatga ega. Fe'llar turli xolat va ish-harakat ma'nolariini bildirishi mumkin. Jumladan: 1.Fe'llar

mehnat faoliyati harakati ma'nosini bildiradi: ishlamoq, bajarmoq, ko'rmoq, yozmoq, termiq, ekmoq, kesmoq, tozalamoq kabi. Masalan, Onaxon, mehnatning oqibatini ko'rsang ko'nling o'sadi, xuzur bilan ishlaysan (As.Muxtor). Yosh sayohatchilar qamishdan chayla qurib oldilar .(Gazetadan) Bu o'rinda ishlaysan fe'lida umuman ish tushunchasi ifodalangan, qurib oldilar fe'lida esa konkret ish turi anglashiladi. Uning bajarilishdan ma'lum predmet-vosita yuzaga kelganligi tushuniladi.

2.Harakat, harakatning yo'nalishini bildiradi: kelmoq, bormoq, kezmoq, chiqmoq, tushmoq, yurmoq, yotmoq, anglamoq, quvmoq, o'tmoq kabilar. CHet eldan tashrif buyurgan mexmonlar Toshkentga jo'nab ketadi. Ular o'sha kuni Andijonga keldi (Gazetadan). Katta o'g'li Asrorjon dushmani naq Berlining o'zigacha quvib bordi, Abrorjon esa Yugoslaviya partizanlariga yordam berib, Belgradga bir oyog'ini tashlab qaytdi. (F.Nasridinnov).

3.Fiziologik xolatni bildiradi. Fe'llar ichki kechinma, istak zaruratni anglatishi mumkin: uxlamq, uyg'onmoq, mudramoq, sog'aymoq, chanqamoq, charchamoq, semirmoq, ulg'aymoq, harsillamoq, kaltiramoq, qarimoq, keksaymoq, uvishmoq singari.

4.Kishining ruxiy o'zgarishlarini bildiradi: quvonmoq, kulmoq, achiqlanmoq, uyalmoq, sevinmoq, hayratlanmoq; tilamoq, istamoq, xohlamoq, orzu qilmoq, talab qilmoq, sevmoq, yaxshi ko'rmoq, qayg'urmoq, xursand bo'lmoq, alam chekmoq, achinmoq, afsuslanmoq kabi. Sultonmurod bilan To'fonbek qotib kulishdi.(Oybek). Tinchlik istar onalar, tinchlik istar yosh bolalar. Misollardagi fe'llarning dastlabkisi shaxsning fiziologik xolatini ikkinchisi esa ichki kechinma ma'nosini ifodalab kelgan.

4.Fe'llar o'ringa nisbatan xolat, harakat ma'nosini bildiradi: turmoq, o'tirmoq, yotmoq, qo'zg'almoq, jilmoq kabi. U sadaqayrag'och ostida uzoq turdi.

5.Fe'llar tabiat hodisalarini, predmedlarning biologik jarayoni, harakati fizik kimyoviy o'zgarishlar harakati ma'nosini ifoda etadi: gullamoq, o'smoq, yashnamoq, erimoq, yumshamoq, qotmoq, quyulmoq, suyulmoq, qaynamoq, isimoq, sovimoq, yonmoq, kuymoq, o'chmoq, sarg'aymoq, oqarmoq, qoraymoq, ko'karmoq, achimoq, eskirmoq, unmoq, buzilmoq, qulamoq, o'pirilmoq, ko'paymoq, ozaymoq. Har kuni ma'lum vaqt

ichida xaydab boqilib, so'ngra qo'yxonalarga kiritilib, yem-xashak berilsa, qo'ylar sog'lom o'sadi. Harorat juda sovuq emas, lekin ertalab daraxtlarda qalingina qirov yaltiraydi.(X.G'ulom).

6.Fe'llar fikrlash, nutqiy harakat kabi ma'nolarni bildiradi. Bu quyidagicha: a)fe'l nutq harakati ma'nosini anglatadi: so'zlamok, aytmoq, hikoya qilmoq, so'ramok, javob bermoq, suhbatlashmoq, taklif qilmoq, e'lon qilmoq, chaqirmok, shikoyat qilmoq do'q qilmoq, qichqirmok kabi. Mirhosil mehmonlarni shiyponga taklif etdi.(X. G'ulom);

b)fikrlash va mushoxada harakati ma'nosini bildiradi: fikrlamok , o'ylamok, anglamok, tanimok, ishonmok, aniqlamok, tushunmok, eslatmok, yodlamok, xotirlamok, unutmok, yangilishmok kabi. Avval o'yla keyin so'yla (maqol). "Mening xalqim do'stlik va birodarlikning qadrini biladi", - degan edi sevimli shoirimiz Hamid Olimjon.

SHuni ham alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi yillardagi tadqiqotlarda fe'l ma'nosining turli qirralarini ochish barobarida uning gap hosil qilish borasidagi o'ziga xos yetakchilik roli ham ortib bormokda. Bu uning turkiy tillar, xususan, o'zbek tilshunosligida ham so'z turkumlari qatorida birinchi o'rinda o'rganiladigan morfologik sath birligi darajasiga ko'tarilishiga ham asos bo'ldi. SHuning uchun bu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, fe'llarni bir bir tadqiqot doirasida tekshirib tugatish mushkul. CHunki borliqdagi barcha harakat va xolat ma'nolari fe'lga mansub so'zlar vositasida voqelanib, ma'lum nuqtalarda hayotiy-nutqiy ehtiyoj tufayli o'zlarining faol harakat semalari orqali to'qnashadi. Bu harakat-xolatlarni kuzatish, sezish, eshitish, ko'rish bevosita unda ishtirok etish mumkin. SHu ma'noda tilshunos olim T.T. Musaev sezgi fe'llarini tadqiq etayotib, ularni ko'ruv fe'llari, eshituv fe'llari, hidlab sezuv fe'llari, ta'm sezuv fe'llari, tusmollab sezuv fe'llari guruhlariga bo'lib ko'rsatadi. Bundan ko'rinadiki, fe'llarning inson tana sezgi a'zolari bilan bog'liq tomonlarini alohida tadqiq qilish mumkin. Xususan, **ko'rish** sezgisi bilan bog'liq harakat fe'llari semantikasi: qaramok, ko'rmoq, tikilmok, nazar solmok, termulmok, kuzatmok, tomosha qilmoq kabi. Qo'rqqanga qo'sha **ko'rinar**(Maqol). Yo'lchi boshini qimirlatib, ko'z uchi bilan **boqdi**-da, zaxarxanda qildi. Ehson orqasiga **qaradi** (A.Qahhor).

Eshitish sezgisi bilan bog'liq harakat fe'llari semantikasi: eshitmoq, tinglamoq, qulog'iga chalinmoq. *Biz Sizni quvonch bilan kutib olamiz va dolzarb masalaga bag'ishlangan ma'ruzangizni e'tibor bilan **tinglaymiz**.*

Bolalik kunlarimda,

Uyqusiz tunlarimda,

*Ko'p ertak **eshitgandim**,*

So'ylab berardi buvim (X.Olimjon).

Eyish, maza-ta'm bilan bog'liq harakat ifodalovchi fe'llar semantikasi: yemoq, ovqatlanmoq, ichmoq, simirmoq, totimoq, nonushta qilmoq, chaynamoq, kavshamoq, yutmoq, g'ajimoq, tamaddi qilmoq, tanovul qilmoq, ta'mini ko'rmoq, kemirmoq, shimirmoq, shimimoq kabi. Do'sting uchun zahar yut(Maqol). Ezilib pishgan yog'liq go'shtni ishtaha bilan yedi(Oybek).

Hid bilish bilan bog'liq harakat ma'nosidagi fe'llar semantikasi: iskamoq, hidlamoq kabi.

Teri orqali sezish ma'nosidagi harakat fe'llari samantikasi: ushlamoq, sezmoq, isimoq, sovuqqatmoq, qichimoq, qashlamoq, archimoq, achishmoq kabi. Sovuqqa chidamli Yo'lchi ham egni yupun bo'lganidan oyoqlari jonsizlandi, gavdasi bujmayib sovuqqotdi(Oybek).

Tilimizda uchraydigan bunday semali harakat fe'llarining o'zi ham fe'lning bir nechta sanab o'tilgan ma'noviy guruhlar qatoridagi alohida bir sistemadir. Tilshunoslar ta'kidlaganlaridek, fe'l ma'nosi barcha guruhlar farqlovchi belgilari(semalari)ni o'zida mujassamlashtiradi. SHu tariqa har bir fe'l leksik sistemada quyidan yuqoriga qarab zanjirsimon tarzda joylashadi. SHuning uchun fe'l ma'nosining tarkibiga kiruvchi semalar o'z umumlashuviga ko'ra turlicha bo'ladi: har bir oldingi sema keyingi sema uchun birlashtiruvchi, har bir keyingi sema esa oldingi sema uchun farqlovchi sema hisoblanadi. SHunga ko'ra yuqoridagi fe'llar ma'noviy guruhining semantik valentliklarini yoritishdan oldin ularning ichki leksik-semantik guruhlar xususida to'xtalib o'tish ham maqsadga muvofiqdir. Dastlab ta'kidlab o'tilgan harakat-xolat

fe'llari ma'noviy guruhi tarkibidan ajratib olingan inson ta'na a'zolari bilan bog'liq sezgi fe'llari ham nutqda ko'p ishlatilishi, ularning o'ziga xos mikrosistema sifatida birlashtirilishi bilan xarakterlidir. Demak, fe'l ma'nolari keng va xilma-xil bo'lib, ularni atroflicha o'rganish muhim nazariy hamda amaliy metodik ahamiyatga ega. Bu borada "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ifodalangan ma'no guruhlariga ham e'tibor berishga to'g'ri keladi.

Qaramoq fe'lining izohli lug'atda 18 ta ma'nosi izohlanadi. Jumladan: 1. Ko'rish uchun ko'zni bir tomonga, narsa yoki narsaga yo'naltirmok, ko'z tashlamoq, nazar solmoq, boqmoq. *Hakimboyvachcha yalt etib ukasiga qaradi (Oybek)*. 2. Fikran nazar tashlamoq, ko'z tikmoq, boqmoq, ko'z oldiga keltirmok. *Kelajakka ishonch bilan qaramoq*. 3. Ko'zdan kechirmok, nazar solmoq, tekshirmok. *Ular bir necha ko'chani qunt bilan qarab chiqib, choyxona topolmadilar*. 4. Yuzlanmoq, yuzini bir tomonga qaratmoq. *Uyalib, yerga qaradi*. Mazkur fe'lining qolgan 14 ta ma'noviy guruhlarini ham sanab o'tish mumkin, ammo ularning ko'z orqali qarab ilg'ash mumkinlik ma'nosi tobora kuchsizlanib, **qara** fe'lining ko'makchiga tomon siljib borish xolati yoki ibora ma'nosi ochila boradi. *Qachongacha uning ko'ngliga qarashing kerak?*

Eshitmoq fe'lining esa izohli lug'atda 3ta muhim ma'nosi haqida ma'lumot qayd etiladi: 1. Tovushni eshitish a'zosi orqali qabul qilmoq, qulog'iga kirmok. Saodatning oyoq sharpasini eshitib, sekin ko'zlarini yumdi. (S. Zunnunova). 2. Diqqat-e'tibor bilan ma'no mazmunni anglash ham, o'zlashtirish maqsadida quloq bermok, tinglamoq. *O'z umrimda ko'p odamlarni ko'rganman, ko'plarning sarguzashtlarini eshitganman (S. Ahmad)*. 3. Xabar topmoq, xabardor bo'lmok, eshitib bilmoq. *Doston bitibdi deb eshitdik, og'a. Qachon o'qiysiz?*

"Maza" - arabcha bo'lib, uni ifodalovchi **yemoq** yetakchi fe'lining 5 ta ma'no turi izohli lug'atda berilgan. Jumladan: 1. Taom iste'mol qilmoq, ovqatlanmoq, tanovul qilmoq. *Qovun yesang sahar ye, sahar yemasang zahar ye. (Maqol)*. 2. Tirikchilik yoki maishat uchun ishlatmoq, sarf qilmoq. *Yotib yeganga tog' ham chidamaydi. (Maqol)*.

3.O'ziniki qilmoq, o'zlashtirib olmoq. *Akam birovning haqini yegan emas.*(Oybek). Boshqa ma'nolari ko'chma ma'no kasb etganligi bilan ajralib turadi.

Inson teri sezgisi bilan bilishi mumkin bo'lgan **qizimoq** fe'lining ham izohli lug'atda 4 ma'no turi haqida ma'lumot beriladi. 1.Harorati ko'tarilmok, baland bo'lmok, isimoq(asosan havo harorati haqida). *Havo nihoyatda qiziganidan badandan ter suvdek oqardi.*2. Biror narsa ta'sirida tana harorati oshmoq, ko'tarilmok(jism, tana haqida). *Otabekning manglayida turgan ko'li qizib ketib, ikkinchi qo'lini almashtirishga majbur bo'ldi.*(A.Qodiriy).

Fe'l, uning yuqoridagi ma'nolarini tushuntirish, o'rgatish talabalarning bilimini oshiradi va nutqini tobora o'stirishga, lug'at boyligining boyishiga katta amaliy yordam beradi. Ammo nutqda xosil bo'ladigan so'zlar, xususan, yuqoridagi tahlilimiz ob'ekti bo'lishi nazarda tutilgan tana sezgi a'zolari bilan bog'liq fe'llarning ma'noviy xususiyatlariga batafsil to'xtalishdan oldin "sezgi" o'zi nima va uning til yoki tafakkur bilan munosabati masalasiga ham to'xtalishga to'g'ri keladi. Chunki inson borliqni ongida, tafakkur orqali aks ettiradi. Aks ettirish sezgi organlari yordamida amalga oshiriladi. Sezgi organlari esa tashqi olam haqida muayyan axborotlarni miyaga uzatadi. Miya bu axborotlarni umumlashtiradi. Ko'rinadiki, obektiv olamni aks ettirish jarayoni markaziy nerv sistemasi, bish miya orqali yuzaga chiqadi. Har qanday narsa dastlab bizning sezgi organlarimizga ta'sir qiladi. Ana shu sezgi organlarimiz yordamida his qilish mumkin bo'lgan belgilar oraz sanaladi. Oraz Aristotel falsafasidagi aksidensiyanı bildiradi. Farobiyning tushuntirishicha, orazni besh sezgi organlari yordamida his etamiz. Xususan, rang ko'rish sezgi organi orqali; eshitish quloq va uning tovush pardasi orqali; maza-ta'm maza(til) sezgi organi orqali; predmetlarning holati: sovuq-issiqliği, qattiq-yumshoqligi tana(teri) sezgisi orqali his etiladi. Demak, til uchun sezginging ahamiyati katta ekan, u haqdagi ayrim mulohazalar bilan tanishamiz.

1.2. Sezgi - insonning bilish manbai

Sezgi tevarak-atrofimizdagi moddiy dunyoni bilishning dastlabki shaklidir. Sezgilar voqeyiy narsa va hodisalarning haqiqiy xossalarini aks ettirgani uchun ham atrofimizdagi moddiy olamni bila olamiz. Bilishda sezgilarning ahamiyati haqidagi masalada fanga xilof, idealistik qarashlar bo'lgan edi, bu qarash vakillari sezgilarini ongimizdan tashqarida mavjud bo'lgan narsa va hodisalarning obrazlari emas, deb da'vo qiladi. Subektiv idealizm namoyandalari bo'lmish Berkli, Yum, Max Avenarius sezgilarini shunday deb hisoblar edilar, ularning burjua faylasuflari orasidan chiqqan maslakdoshlari ham sezgilarini shunday deb biladilar. XIX-XX asrlardagi idealistlar o'zlarining sezgilar haqidagi noto'g'ri, xato qarashlarini, jumladan, fiziolog Iogann Myuller ta'riflab, "sezgilarning spetsifik energiyasi to'g'risidagi qonun" deb ataluvchi qonunga asoslanib oqlab ko'rsatishga urindilar. O'sha "qonunga" ko'ra, sezgi qo'zg'ovchining tabiatiga bog'liq emas, balki qo'zg'alish jarayoni qaysi organ, qaysi nervda ro'y bersa, sezgi o'sha organga yoki nervga bog'liq bo'ladi. Masalan, odam "tabiiy yorug'lik" deb ataladigan yorug'likning ko'z to'r pardasiga tushishi natijasida ko'rmaydi, balki ko'rish nervning o'ziga xos spetsifik energiyasi ishga solinishi natijasida ko'radi. I. Myuller ta'limotiga ko'ra, nerv moddasi bir safar o'ziga o'zi nur sochadi, ikkinchi safar o'ziga o'zi tovush chiqaradi, uchinchi safar o'zini o'zi his qiladi, to'rtinchi safar o'zini o'zi hidlaydi va mazasini totib ko'radi. I. Myullerning sezgilar haqidagi ta'limoti "fiziologik idealizm" deb ataladi. I. Myullerning shogirdi Gelmgols sezgilar haqidagi shu qarashlarni juda ochiq ifodalab berdi. Gelmgols sezgi organlarga ta'sir etganda sezgi hosil bo'lishini inkor qilmadi, lekin sezgilarning o'zini narsalarining obrazlari deb hisoblamadi, balki narsalarning faqat belgilari – simvollari deb bildi.

O'rta Osiyoning emas, balki umuman, Yaqin va O'rta SHarqning mashhur mutafakkiri bo'lgan Abu Nasr Farobiy bilish jarayoniga katta e'tibor berdi va unda sezgilarning ahamiyatini, sezgilarning moddiy asosi haqida fikr yuritdi. U "Majmuar Rassoil al-Xukamo" asarida: "Insonda uning boshlang'ich vujudga kelishida(tug'ilishida) oziqlantiruvchi quvvat paydo bo'lib, uning yordamida inson ovqatlanadi. Bundan so'ng unda teri orqali sezish quvvati vujudga kelib, bu quvvat

yordamida inson issiq, sovuq kabilarni sezadi. So'ng esa shunday quvvat vujudga keldiki, uning yordamida ta'm-maza seziladi. So'ng hidni sezishni ta'minlovchi quvvat paydo bo'ladi. Undan keyin esa shunday quvvat paydo bo'ladiki, u orqali rang, yorug'lik va barcha ko'rinuvchi narsalar seziladi. Keyin insonda shunday quvvat vujudga keladiki, u insonni sezayotgan narsaga diqqatini tortadi", - deb yozadi. U sezishning sifat va miqdori tashqi obektning sezgi organlariga bo'lgan ta'siri natijasida paydo bo'lishi, o'zgarishini qayd qiladi. Sezgilar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Sezgi a'zolariga nimalardir ta'sir qiladi va ularning obrazi ongimizda aks etadi. Sezgilar amaliyotida tekshiriladi, obrazlarning haqiqiyliги yoki soxtaligi unda aniqlanadi. SHu bilan birga, sezgilar ayrim bir kishining tajribasidagina emas, balki ijtimoiy tajribada ham sinaladi. Albatta, har bir sezgi organining "spetsifik (o'ziga xos, xususiyatlari)" bor, lekin bu spetsifik xususiyatlar tirik organizmlarning ko'p asrlardan beri evolyutsiyasi (tadrijiy taraqqiysi) ularning tashqi qo'zg'ovchilari ta'sirini to'laroq, yaxshiroq idrok etishga moslashuv uchun intilib kelgani natijasida vujudga kelgan xususiyatlardir. Sezgi organlari tashqi qo'zg'ovchilar ta'siri tufayli ixtisoslashgan, ya'ni spetsifik xususiyatlar kasb etgandir.

SHunday qilib, sezgi voqe bo'lgan narsalarda haqiqatan bor xossalarning in'ikosidir. Modomiki shunday ekan, sezgi-moddiy dunyoni bilish manbaidir.

Demak, inson bilimning manbai – sezgidir. CHunki inson o'zining birinchi va boshlang'ich bilimlarning sezgidan oladi. Uning qolgan barcha bilimlari shu birinchi boshlang'ich bilimi asosida vujudga keladi. Insonni ob'ektiv muhit bilan bog'lovchi eng birinchi yo'l ham sezgidir. Inson ongingning tashqi olam bilan bevosita munosabati amaliyot jarayonida sezish orqali amalga oshiriladi.

Inson tili in'ikos shakllarining (sezgi, qabullash, tasavvur, tushuncha va hokazo) barchasi bilan aloqaga kirishadi va ular bilan organik bog'lanadi. Ma'lumki, til bilish protsessining birinchi bosqichida jonli mushohada yoki xissiy qabullash bilan, boshqacha aytganda, birinchidan bilishning konkret shakli – sezgi, ikkinchi til birligi – so'z orqali amalga oshiriladi. Sezgi va so'z munosabatini yoritish, bizningcha, til va tafakkur munosabatini yoritish yo'llaridan biridir.

Sezgi masalasi nihoyatda ko'pqirrali va murakkabdir, uni xali maxsus fanlar va falsafaning yangi yutuqlari asosida hal qilinishi kerak bo'lgan tomonlari bor. Masalan, moddiy va ideal, ruhiy va fiziologik kategoriyalar kabi masalalar ustida mutaxassislar orasida qizg'in munozaralar davom etmoqda. Bu narsa, tabiiydir, chunki hozir fan misli ko'rilmagan darajada ilgarilab bormoqda. Fan yutuqlari falsafiy jihatdan umumlashtirilmokda, ulardan metodologik va nazariy xulosalar chiqarilmoqda. Bu jarayon albatta, dialektik taraqqiyot tufayli ruy berayotgan fikrlar, qarashlar almashuvissiz, turli muammo va munozaralarsiz bo'lishi qiyin. SHunday bo'lsa-da, til tizimidagi qarashlar va ularning sezgi a'zolari bilan umumiy munosabati masalasi, ayniqsa insonning tana sezgi a'zolariga ta'siri natijasida ong shakllaridan bo'lgan til vositalari masalasini o'rganish til taraqqiyotiga ma'lum darajada hissa bo'lib qo'shilishi tadqiqot oldidagi muhim masalalardan sanaladi.

Hozirgi kunda sezgi oliy nerv faoliyatining mahsuli ekanligi to'la isbotlangan. Ruhiy hodisalarni(sezgi ruhiy hodisadir) o'rganishni nerv harakatini o'rganishdan boshlash kerakligi ham sir emas.

Dunyoni kishi ongida aks ettirish nihoyatda murakkab dialektik jarayon, bunda miya shu inʼykosni bevosita amalga oshiradigan apparat asbob vazifasini o'taydi. Sezgini psixik vokelik sifatida o'rganar ekanmiz, uni fiziologik mexanizmdan, ya'ni moddiy harakatdan, miya va nervlardan ajalmagan xolda tekshirish lozim bo'ladi. I.P.Pavlovning ta'kidlashicha tashqi ta'sirlardan deyarli butunlay mahrum bo'lish bosh miya tonusini pasaytiradi va natijada hayvon tashqi dunyo bilan faqat bir sezgi organi orqaligina aloqada bo'ladi. U shartli reflekslar metodiga asoslanib, oliy hayvonlar bilan odamlarning ruhiy(psixik) faoliyatining mohiyatini ochib, uning moddiy substratga – miyaga chambarchas bog'langanini ko'rsatib berdi.

Inson sezgisining mohiyatini ochishda shartli reflekslar haqidagi I.P.Pavlov ta'limoti kata ahamiyatga egadir. Tashqi dunyo, tashqi qo'zgatuvchilar shartli refleksning vujudga kelishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. SHartli reflekslar organizmning muhit bilan aloqasi sifatida insonning nerv sistemasi, miyasi yordamida paydo bo'ladi. Bu kishi ongi, sezgilari obʼyektiv dunyoning inʼykosini, obrazi degan so'zdir. Obraz esa o'z mohiyat e'tibori bilan ikkilamchidir.

Inson turmushda bevosita ko'rgan, eshitgan, bilgan predmet va hodisalarini keyinchalik xotirasida tiklashi mumkin. Bunga sabab o'sha ilgari olingan taassurotlardan qolgan «iz»larning tiklanishi(pressupozitsiyasi) va ko'zg'alishidir. Sezgi va hissiy qabullash hosil bo'lishi uchun ta'sir qilayotgan predmet yoki hodisani sezgi organlari bevosita his qilishi zarur. Tasavvur esa bunday bo'lishi shart emas, faqat o'sha qabullash koldirgan «iz»lar qo'zgalishining o'zi kifoya. Inson xotirasi miya po'stlog'ining ana shu xususiyatiga tayanadi. So'zlar tashqi dunyo qo'zg'atgichlarini umumlashtirib, signallashtirishga imkon beradi, buning natijasida organizm faoliyati maqsadga muvofiq va qulay faoliyatni yuzaga chiqaradi.

Til jamiyatda fikr almashish, tafakkurni izhor qilish, xullas, aloqa quroli vositasini bajaradi. Bu bilan ishlab chiqarishni tashkil qilishda, moddiy va madaniy boyliklar yaratishda, jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Insonning o'zi ham mohiyat-e'tibori bilan ijtimoiy bo'lib, uning biologik tuzilishiga(organizm, sezgi organlariga) ijtimoiy muhit ta'sir etib turadi. Atrofimizni o'rab olgan muhit hayvonlar yashaydigan muhitdan farq qiladi. SHuning uchun ham inson va hayvonning sezgi organlari, signal sistemalari sifat jihatidan farq qiladi. Bu haqda I.P.Pavlov ikkinchi signal sistemasi birinchi signal sistemasining faoliyatiga yunalish berib turadi, uning ustidan nazorat o'rnatadi - deb yozgan edi.

Til haqida gapirganda tafakkurni ham ta'kidlamay bo'lmaydi. CHunki tafakkur va til birligi mavjud . Ikkinchi signal sistemasida insonning tabiat va jamiyatni bilishda qo'lga kiritilgan ma'naviy boyliklari aks etadi, bu albatta, insonning dunyoni sezishiga, sezgi organlari faoliyatiga ta'sir etadi. Inson analizatorlarining ishiga til bilan bog'langan tafakkur yordam qiladi. Bu, insonning xatto birinchi signal sistemasi ham hayvonlardagi signal sistemasidan ustun ekanligini ko'rsatadi.

Dunyoni bilishda ikki bosqich: jonli mushohada va abstrakt tafakkurning bir-biriga bog'liqligi, ular o'zaro ta'sirda ekanligi bizga ma'lum. Abstrakt tafakkurimiz jonli mushohada orqali tashqi dunyo bilan bog'langanidek, ikkinchi signallar ham muhit bilan birinchi signallar orqali bog'lanadi.

I.P.Pavlov markaziy nerv sistemasida, shu jumladan bosh miya kata yarim sharlari pustlog'idagi asosiy jarayonlar –qo'zg'alish va tormozlanishdan iboratdir –

degan ideyani ilgari surdi va uni isbotladi. Qo'zg'alish – nerv xujayralari va tolalarining faol holati, tormozlanish esa ularning faol bo'lmagan, dam olayotgan holatidir. Barcha psixik jarayonlar shu ikki qarama-karshi jarayonning o'zaro ta'siri va muvozanatiga asoslanadi. Buni quyidagicha tasavvur etish ham mumkin: tashqi qo'zg'otgich ko'zga ta'sir etsa, tabiiyki, ko'rish analizatori ishga tushadi, natijada uning po'stloqdagi uchastkasi qo'zg'aladi. Mabodo eshitish analizatori ishlasa, boshqa markazlar nisbatan kuchsizlanadi. Birining kuchayishi, ikkinchisining kuchsizlanishini namoyon qiladi, aks xolda harakat izdan chiqadi. Bu xuddi ob'ektiv dunyo qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuniyatiga muvofiq keladi.

Sezgi predmetning ayrim, tasodifiy tomonlarini «ajratib» olib o'zida aks ettiradi. Bu bilan u bir butunni uning qarama-qarshi tomonlariga bo'ladi, ya'ni o'zida hodisani aks ettirsa-da, mohiyatni bevosita «qamrab» ololmaydi. Natijada, bilib olingan ayrimlik va hali aks ettirilmagan umumiylik orasida ziddiyat paydo bo'ladi. Ob'ektiv vokelikda bu tomonlar organik birlikda bo'lganidan ularning umumiyligini, xususiyatlar, belgilar yigindisini bilib olishimiz zarur bo'ladi. Sezgi doimo shu umumiylikka intiladi va unga yetishga qodir, ammo uning cheklanganligi, ya'ni predmet bilan bevosita bog'liqligi bunga yo'l qo'ymaydi. Ana shu ziddiyat asosida sezgi rivojlanadi. SHu boisdan bilish jarayonida sezgi bilishning yuqori shakllariga, bosqichlari (qabullash, tasavvur, tushuncha va hokazo)ga o'tib turadi. Bu albatta amaliyotga asoslanuvchi xolatdir. Ijtimoiy xayot esa narsa va hodisalar mohiyatini ochishni, ularni chuqur anglashni taqozo qiladi.

Biologik nuqtai nazardan sezgining organizm hayotidagi tutgan o'rni haqida shuni aytish kerakki, sezgida tashqi muhit organizm bilan o'zining ayrim tomonlari, xususiyatlari orqaligina bog'lanadi. Ma'lumki, tashqi muhit nihoyatda murakkab va ko'p xil ta'sirlardan iborat. Organizm tashqi olam bilan murakkabroq aloqa o'rnatishga zarurat sezadi. Predmet yoki hodisalar bir butunligicha organizm uchun biologik ahamiyat kasb etib, shu kompleks qo'zg'otgichlarga javob qaytarishga majbur bo'ladi. Buni hissiy bilishning sezgiga nisbatan murakkabroq va yuqoriroq shakli – qabullash misolida yaqqolroq ko'rish mumkin. Qabullash fiziologik nuqtai nazardan quyidagicha shakllanadi. Bir butun predmet miyada turli xususiyatlari vositasida qo'zg'alishlar hosil

qiladi. Miyada qo'zg'algan markazlar orasida aloqa o'rnatilishi natijasida predmetning bir butun hissiy obrazi paydo bo'ladi, ya'ni unda bevosita qabullash yuzaga keladi. Ammo bundan qabullash sezgilarning oddiy yig'indisidan, ularning arifmetik qo'shilmasidan iborat ekan degan ma'no kelib chiqmasligi kerak. Sezgida predmetning ayrim belgilari har qaysisi o'z yo'li bilan qo'zg'atgich vazifasini o'tasa-da, ammo o'zaro munosabatga kirmaydi, qabullashda esa shu predmet belgilari butunligicha aks ettiriladi. Unda predmet yoki hodisa xususiyatlari bir-biriga bog'lanmasdan, alohida-alohida aks etirilsa, hissiy qabullash ularni muayyan darajada umumlashtiradi. Masalan, olmani sezgi orqali qabul qilganimizda uning rangini ko'zimiz orqali, yo qattiq-yumshoqligini qo'limiz orqali yoxud nordon – shirinligini tilimiz orqali yoki boshqa xususiyatlarini bilamiz, hissiy qabullashda esa mana shu olmaning umumiydashgan obrazi aks etadi. Bunda olmaning xususiyatlari(shakli, rangi, xidi, maza-ta'mi kabilar) o'zaro uzviy bog'lanib, muayyan predmet(olma) moddiy birligini ifodalaydi. Hissiy qabullash bilishni sezgidan bir pog'ona yuqoriga ko'tarib, narsalarning mohiyatini ochishga tashlangan yangi bir qadam bo'lib xizmat qiladi. Bundagi obrazning bir butunligi tufayli buyum va hodisalarning sezgi aks ettira olmaydigan tomon va belgilari hissiy bilish doirasiga tortiladi.

Psixologik eksperimentlarning dalolat berishicha, chaqaloq yarim yoshga kirishi bilanoq u buyumlarning tashqi shakllarini faqatgina ko'z vositasi bilangina emas, balki ko'z, teri sezgisi, quloq va muskullar yordamida ham bila boshlaydi. Hissiy qabullash shaxsning turmush tajribasi, uning ongi, tafakkur bilan bog'liq tiliga ham ma'lum darajada ta'sir etadi. Demak , hissiy qabullash sezgiga qaraganda mazmunliroq, chuqurroq bilim beradi.

Professor S.V.Kravkov o'zining «Sezgi organlarining ishi» nomli asarida misol keltiradi: bir xil yog'ochdan ishlangan, ammo uzunligi har xil tsilindrlarni olamiz. Bularning kichigini ichiga qo'rg'oshin quyilib, og'irligi uzun tsilindrning og'irligiga teng qilingan. U tsilindrlarni qo'lga olib ko'rilsa, kichigi uzunidan og'irroqday tuyuladi. Buning sababi, normal kishilar kichik tsilindrni hajmiga qarab yengil deb o'ylaydilar. Aslida esa u yengil chiqmaganligi hamda bunga qarshi fikrda bo'lganligidan hamma kishilar kichik tsilindr kattasidan og'irroq ekan, degan fikrga kelib qoladilar. Bu misol

tashqi dunyoni hissiy qabullash jarayoni murakkab aqliy jarayon, abstrakt tafakkur bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu bizni tashqi dunyoni bevosita his qilayotganimizda ongli bo'lishimizni, xato qilmasdan o'ylab sezishga intilishimizni taqozo etadi. Albatta, sezgi shakllanishida kishining bilimi, intilishi, xohishi juda katta rol o'ynaydi.

Inson sezgilarining bevosita inʼyikosida tasavvur, tafakkur va til muhim ahamiyatga ega. Tasavvurning til bilan aloqasini aniqlash uchun tilni bilishning hissiy shakli sifatidagi o'ziga xos xususiyatini hisobga olib, tushuncha, ya'ni so'z tafakkuri bilan o'zaro aloqasini ko'rsatish kifoya. Inʼyikosning hissiy shakllari: sezgi, qabullash va tasavvur inʼyikos predmetiga bevosita bog'liqligi diqqatga sazovordir. Tasavvur tilga bevosita emas, balki so'z tafakkuri orqali bog'lanadi. Tasavvur so'z ma'nosi bo'la olmaydi, u so'z ma'nosi bilan maxsus aloqaga kirishishi mumkin, xolos. SHakllanayotgan va rivojlanayotgan tasavvur til yordamida so'z ma'nosiga emas, balki tushunchaga aylanadi. N.X.SHvachkin o'z tajribasi orqali shunday deydi: 1 yoshdan 2,5 yoshgacha bo'lgan bolalarda dastlabki so'zlarning barqaror va aniq ma'nosi bo'lmaydi, ular hali grammatik shakllanmaganligidan chinakam so'zlar sanalishi mumkin emas, ammo ularning ma'nosi aks etuvchi predmetning belgilarini umumlashtiradi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, so'z ma'nosi bilishning hissiy bosqichidayok so'z ma'nosi bilan tasavvur etgan tushunchadan oldin yuzaga keladi. Demak, so'zning shakllanishi tasavvurga ham bog'liqdir, chunki inʼyikos momenti so'z ma'nosining shakllanishida hal qiluvchilik xarakteriga ega.

Til ijtimoiy hodisa sifatida o'z ichida o'ziga xos sistema ham hisoblanadi. Til sistemasining asosiy birliklari bo'lgan fonema, morfema va so'zlarning ijtimoiy vazifa bajarishidagi eng muhim jihati ularning ikki tomonga, ikki planga egaligida ko'rinadi. Ushbu birliklar ifoda va mazmun jihatiga egaligi bilan, shu nuqtai nazardan umumiy hamda farqli xususiyatlari bilan o'zaro ajralib turadi, farqlanadi.

Umuman olganda, til birliklariga ifoda va mazmun plani nuqtai nazaridan qarash ilmiylik printsiplarga to'la muvofiq keladi, tilning jamiyatda kommunikativ vazifa bajarish mohiyatini, xususiyatini ochib beradi.

Eslatamiz, tabiatda ham, jamiyatda ham mavjud har bir narsa, hodisa – falsafiy ma’nodagi predmet, shakl (tashqi) va mazmun (ichki) tomonlariga ko’ra baholanadi, muayyan ahamiyatga ega bo’ladi, turli fanlar nuqtai nazaridan tadqiq qilinadi.

U morfema va so’z kabi muayyan ma’no, tushuncha – mazmun bilan bog’lanmaydi, ma’no ifodalamaydi. SHu nuqtai nazardan tovush (fonema) bir tomonlama birlikka o’xshaydi. Ammo tovush (fonema) faqat ifoda jihatiga, moddiylik xususiyatiga egaligidan tashqari, ayni vaqtda, u dastavval til birliklarining tashqi – ifoda jihatini tashkil qiladi va ularni shaklan – tovush tizimiga ko’ra farqlaydi. SHunga ko’ra til birliklarining ma’nosi o’zgaradi, o’zaro farqlanadi. Demak, tovushlarning (fonemalarning) ma’no farqlash xususiyati aslida til birliklarining ifoda jihatlarini farqlashdan, ajratishdan kelib chiqadi. Aytilganlarga ko’ra tovush (fonema) tilning ma’no farqlash xususiyatiga, qiymatiga ega bo’lgan minimal birlik hisoblanadi.

Demak, til birligi bo’lgan tovush (fonema) kommunikativ jarayonda ijtimoiy vazifa bajarishiga, tilning eng asosiy – birlamchi qurilish materiali, moddiy ashyosi ekanligiga, so’z hosil qilish, so’z yasash, ma’no farqlash kabi ijtimoiy – lisoniy xususiyatlarga egaligiga ko’ra alohida baholanadi. SHunga ko’ra, tovush (fonema) til birligi sifatida tilshunoslikning alohida sohasi bo’lgan fonemalar haqidagi ta’limotning – fonologiyaning tadqiq va tahlil ob’ekti hisoblanadi.

Aytilganlarga ko’ra, u muayyan belgi – ramz hisoblanadi. SHunday qilib, morfema tovush va ma’no kabi ikki muhim jihatga egaligi bilan xarakterlanadi. So’z (leksema) muayyan birliklar ichida ham shaklan, ham mazmunan – sifat jihatdan mukammal bo’lib, tilning ijtimoiy vazifa bajarishida semantik-funksional yetakchilik qiladi, qudratli vosita – mikrosistema hisoblanadi.

So’z ifoda planiga ega deyilganida, so’zni formal shakllantiruvchi, uni moddiy birlik sifatida sezgi a’zolarimizga ta’sir qilishini ta’minlovchi tovushlar nazarda tutiladi.

So’zning mazmun plani uning ichki ma’no tomoni (leksek ma’no, leksik tushuncha, ramziy axborot, signifikat, semema) bo’lib, u ob’ektiv borliq elementlarining kishi ongida aks etishi, ayni elementlarga xos xususiyatlarning umumlashuvi natijasida yuzaga keladigan ideal (psixik) strukturadir. Demak, ma’no in’ikos kategoriyasidir.

Ma'no ob'ektiv borliq elementi yoki ushbu elementlar guruhining kishi ongidagi shartli ramzi (belgisi, ishorasi) emas, balki bu element (yoki elementlr guruhining) kishi ongida mavhumlik kasb etgan obrazi, umumlashgan in'ikosi hisoblanadi.

So'zning ifoda jihati – tovush tomoni ob'ektiv borliq elementi haqidagi xabarning – so'z mazmun tomonining, ma'noning (tushunchaning) ramzi, ko'rsatkichi bo'lib voqelanadi.

So'zning mazmun tomonini o'zicha biron shaxsga ma'lum qilish mumkin bo'lmaganligi uchun uning tovush jihati, ramzi talaffuz qilinadi. Bu ramz (belgi) tinglovchi ongida tegishli tushuncha, tasavvur uyg'otadi.

Demak, til sistemasida ramziy munosabat tovush va ma'no orasidagi shartli bog'lanish tarzida yuzaga chiqadi. Ma'noda aks etadigan aniq narsa yoki hodisa tasavvuri (denotat) ikkinchi planda bo'ladi. Denotat so'z ma'nosi emas, balki so'z yordamida ko'rsatiladigan, nomlanadigan, ataladigan hodisadir. Ma'no esa qayd etilganidek, ob'ektiv borliq elementlariga xos bo'lgan xususiyatlarning inson ongida mavhumlik kasb etishi, umumlashuvi natijasida shakllanishidir.

So'zda tovush ifodalovchi (ramz, belgi) bo'lsa, ma'no ifodalanuvchi bo'ladi.

So'z ma'no planida ikki hodisa farqlanadi: leksik ma'no (signifikat) va denotat.

Nutqda so'z denotatning (ob'ektiv borliq elementining) lingvistik (lisoniy) vakili vazifasini bajaradi.

Demak, so'z ikki: moddiy va ruhiy (ma'noviy) jihatlarining bog'liqligidan, diaxron – sinxron zaruriy, "tabiiy" aloqasidan iborat bo'lib, ayni bog'liqlikning bir tomonini so'zning ifoda jihati, ikkinchi tomonini esa uning ma'no jihati tashkil etadi.

So'zdan yirik so'z birikmalari va gaplar ham ifoda va mazmun planlariga ega bo'lib, ularning mazkur ikki jihati ko'proq grammatika va semantikaning aloqasi doirasida qoraladi. Ushbu nutq birliklari ham aslida ifoda va mazmun planiga ega so'zlarning birikuvidan, o'zaro bog'lanishidan yuzaga keladi. SHu sababli ularni o'rganish, ularni hosil qilgan so'zlarni o'rganishdan, ilmiy tadqiq qilishdan boshlanadi.

SHunday qilib:

1. So'z tovush va ma'no, ifoda va mazmun tomonlarining dialektik bog'liqligidan iborat bo'lgan nominativ birliklar.

2. Til sistemasida so'zning tovush tomoni ramz, mazmun tomoni esa uning ma'nosini tashkil etadi. Bu elementlar orasidagi bog'lanish shartli (semiotik) bog'lanish hisoblanadi.

3. So'zning mazmun (ma'no) tomoni ob'ektiv borliq elementlarning kishi ongida aks etishi, ushbu elementlarga xos xususiyatlarning umumlashuvi natijasida yuzaga keladigan ideal (psixik) strukturadir.

So'z ma'nosi faqat belgilanuvchi predmet xususiyatlarining aks etishi natijasi sifatidagina paydo bo'lmaydi. Bunda so'z tovushi ham katta rol o'ynaydi. Tushuncha singari so'z ma'nosining rivojlanishi uchun ham kishilar fikr almashuvi zarur. Bu esa tovush orqali amalga oshadi. Jamiyat so'z ma'nosini mana shu tovush orqali shakllantiradi va takomillashtiradi. Amaliyot narsalarning belgilarini umumlashtirishni tovush orqali ma'noga tomon yo'llaydi. Tilshunoslikda tovushlar tizimining o'zaro birikuvi kimyoviy elementlar birikuviga qiyoslanishi natijasida «valentlik» atamasi ostidagi qarashlar ham yuzaga kelganligi e'tirof etish zarur. Bu borada professor G'.Abduraxmonov valentlikning ikki turini farqlab, tovushlarning bir-biri bilan bog'lanib so'z hosil qilishi ichki valentlik, so'zlarning bir-biri bilan ma'noviy bog'lanib kelishini esa tashqi valentlik deb ko'rsatgan edi. O'zbek tilshunosligida valentlik bo'yicha dastlabki ishlarni amalga oshirgan tilshunos I.Qo'chqorto'ev: "Tilning bosh vazifasi fikr olishuv, kommunikatsiya funktsiyasi ekani ma'lum. Biz til vositalari yordamida ob'ektiv borliq haqidagi bilimlarimizni birovga aytamiz yoki birov aytgan gapni eshitamiz". Albatta bu o'rinda ko'rish va eshitish sezgisiga ta'sir doirasining valentlik imkoniyatiga ishora qilinmoqda. Demak, ob'ektiv borliq elementlari orasidagi real aloqalar shu elementlarning nomlari bo'lgan til vositalari so'zlarning o'zaro bog'lanishiga, birikishiga asos bo'ladi. Boshqacha aytganda, ob'ektiv borliq elementlari orasidagi aloqalar xarakteri til vositalari orasidagi aloqalar xarakterini belgilab beradi. Bu ayniqsa turli tillar qiyoslanganda yanada yaqqolroq ko'zga tashlanishi mumkin. Misol uchun o'zbek tilidagi *yemoq ichmoq* bilan rus tilidagi *yestʼ* va *pitʼ* so'zlarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur so'zlar o'z valentliklariga ega bo'lib, non yemoq – *yestʼ xleb*, choy ichmoq – *pitʼ chay*. Bularning valentligi bir xil. Lekin *borsh ichmoq – yestʼ borsh* birikuvidagi valentliklar farqlidir. Chunki rus tilidagi *yestʼ yemoq* ma'nosini ham anglatadi. Tadqiqotchining

ta'kidlashicha bu distributiv farq chuqur semantik asosga ega. Bundan anglashiladiki, sezgi a'zolarimizga ta'sir etishi oqibatida yuzaga kelayotgan fe'l ma'noli so'zlarning birikuvchanlik(valentlik) imkoniyatlari tillar doirasida farqlanishi mumkin va bu alohida tadqiqotni talab etadi. Anglashiladiki, sezgi bilish va til tizim sifatida inson ongida yangi bir jarayon – nutq shakllanishiga sharoit yaratar ekan, albatta, u mazkur jarayon uchun potentsial imkoniyatdir. Bu professor R.Rasulov ta'biri bilan aytganda, «sintaktik aloqadan valentlik kelib chiqmasligini, balki valentlikdan sintaktik aloqa kelib chiqishi»ni tasdiqlaydi. SHunday ekan, «valentlik» haqidagi qarashlar xususida to'xtalish ham dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

1.3. “Valentlik nazariyasi” talqinlari xususida

Lisoniy birliklarning birikuvchanlik xususiyatlarini o'rganish valentlik nazariyasiga olib keladi. Bu nazariya lingvistikada nisbatan keyin paydo bo'lib, uning ibtidosi frantsuz strukturalisti L.Ten'ber ishlariga borib taqaladi⁴. L.Ten'ber «valentlik» atamasini ximiyadan o'zlashtirdi va 1953 yilda nashr ettirgan «Struktural sintaksis asoslari» nomli kitobida bu atamaning tildagi xususiyatlarini asoslab, o'ziga xos misollar keltiradi⁵. Struktur sintaksis haqida fikr yuritib, har bir so'z ikkinchi bir so'z bilan bog'lanuvchi aniq bir xususiyatga ega va bu strukturalardan, gaplardan iborat. Ammo bu aloqa hech narsa bilan ifodalanmaydi. Masalan, *Alfred gapiryapti* ikkita alohida-alohida narsa, bir tomondan Alfred ismli shaxs. Ikkinchi tomondan kimdir gapiryapti. Bu ikki narsa mening ongimda bir-biriga qo'shilib, gapirish harakati Alfred tomonidan bajarilayotganini ma'lum qiladi. Bundan bu gap ikki elementdan iborat ekan degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Chunki Alfred gapiryapti gapi uch elementdan tuzilgan: 1.Alfred.2.gapiryapti. 3.aloqa. Gapda ikki narsa bor deb qarash mumkin, lekin bu tashqi tomondan yoki morfologik nuqtai nazardan, biroq gapning shakllanishida sintaktik aloqa muhim hisoblanadi. Xuddi shu kabi fikrni A.Fitrat o'zining "O'zbek tili qoidolari to'g'risida bir tajriba. Sarf" asarida shunday yozadi: “O'zingizni o'ylasangiz, hayvonlardan birini o'ylasangiz (otni), bizga u hayvon ustiga yerlashmoq uchun bo'lg'on

⁴Qarang: Filicheva N.I. Ponyatie sintaksicheskoy valentnosti v rabotax zarubejnqx yazykovedov. –VYa, 1967, №2. str.118.

⁵L.Tesniere. Esquisse d'une syntaxe structurale, Paris, 1953.str.4

tebranishingizni o'ylasangiz, uch ma'noni o'ylagan bo'lursiz. Bu uch ma'noni birlashtirib, bir-biriga bog'lab, o'zingizni otga minganingizni o'ylaganda, miyangizda "o'y" tuqqandir. SHu o'yni bir kishiga bildirmaqchi bo'lg'och, "Men ot mindim" deb qo'yasizkim, bu aytqaningiz bir "gap"dir.

Ko'riladirkim, yuqoridag'i o'yda uch ma'no bo'lg'ani kabi u o'yni bildirguchi "gap"da ham uch so'z bor: "Men ot mindim". Demak, so'z ma'no bildirgan tovushlar to'dasidir".³

Bundan tovush signallari orqali, boshqacha aytganda, belgilar orqali inson ob'ektiv olamga borishini va aksincha ob'ektiv olamdan semantik predmetlar orqali belgilashtirish jarayoni, ya'ni sintaktik aloqa mavjud ekanligi ko'rinadi. Sintaktik aloqa esa valentlik tufayli yuzaga keladi. Valentlikni bugungi kunda tilshunoslikda jonli nutqni – sintaktik aloqani ta'minlovchi muhim vosita sifatida alohida ta'kidlash an'anaga aylanib qoldi. Keyinchalik bu atama ko'plab tilshunoslarning ishlarida ham o'z aksini topdi.

Dastlab «valentlik» atamasi faqat fe'llarning birikuvchanlik imkoniyatlariga nisbatan qo'llanildi. Keyinchalik ushbu terminning vazifasi kengayib, valentlik xususiyatlari keng doiradagi morfologik birliklarga xos ekanligi tilshunoslar tomonidan e'tirof etila boshlandi.

Fe'lning rolini izohlash spetsifikasi L.Ten'ber kontseptsiyasining o'ziga xosligini belgilaydi. L.Ten'ber «Sintaksisni qanday qurish kerak» nomli maqolasida (1939) sintaktik nazariyalar sof sintaktik belgilarga tayanishi lozimligini ta'kidlagan holda, ikki asosiy qismni: 1) grammatik kategoriyalarni, tartibni hamda ularning tildagi uyushishi tamoyillarini o'rganuvchi kategorial yoki statik sintaksis; 2) «tirik» fraza strukturasini, uning aloqalarining real mexanizmlarini tadqiq etuvchi funktsional yoki dinamik sistaksisni ajratadi.

L.Ten'erning yangicha talqinida fraza ko'ppqavatli ierarxik qurilma sifatida namoyon bo'lib, markazga uning barcha «organizmlarini» boshqarib turuvchi fe'l

³Fitrat A. O'zbek tili qoidolari to'g'risida bir tajriba. Sarf. 1-kitob. –Samarqand-Toshkent: O'zdamnashr. 1930.-B.9-10.

qo'yildi. Periferiya qismida esa bir-biriga va oxir-oqibat fe'lga tobelanuvchi grammatik elementlar joylashdi.

Ko'rinadiki, L.Ten'berning fe'lning sintaktik xususiyatlariga, uning birikuvchanligiga qiziqishi keyinchalik sintaktik valentlik ta'limotining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi va valentlik deganda, birinchi navbatda, fe'lning sintaktik valentligi tushunildi.

J.Furke ham «Qadimgi german tillarida fraza elementlarining tartibi» ni tadqiq etar ekan, har qanday frazaning markazida o'z qurshovi bilan fe'l turishini ta'kidlaydi⁶. Bu esa uni L.Ten'ber qarashlari bilan tutash keladi.

Valentlik tushunchasini L.Ten'ber fe'lning sintaktik tasnifi uchun qo'llaydi va nolb, bir, ikki hamda uch valentlikka ega bo'lgan fe'llarni ajratadi.

Nolb valentlikka ega bo'lgan fe'llar «ishtirokchilar»ga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Bular o'z-o'zicha, birovning ishtirokisiz sodir bo'layotgan jarayonni bildiradi: *Daryo shovullardi*.

Bir «ishtirokchi»ga ega bo'lgan bir valentli fe'llar bir shaxs yoki bir predmet ishtirok etayotgan jaryonni bildiradi: *Mashinada bordi*.

Ikki «ishtirokchi» qatnashgan jarayonni ifodalovchi fe'llar ikki valentli fe'llardir: *Alfred kitob berdi*.

Uch valentli fe'llar uch «ishtirokchi» qatnashayotgan jarayonni ifodalaydi. Bunday fe'llarda birinchi va ikkinchi «ishtirokchilar» shaxsni, uchinchi «ishtirokchi» esa predmetni ifodalaydi: *Alfred SHarl'ga kitobni berdi*.

Demak, Ten'ber o'z ishlarida gapni struktur tahlil qilar ekan, uning asosida fe'l yotishini ta'kidlaydi va buning natijasida fe'l valentligi nazariyasi vujudga keldi. «Bunga ko'ra gap tuzilishini predikat (ko'p hollarda fe'l bilan ifodalangan) belgilaydi va u o'ziga muvofiq kategorial belgilarga o'rin ochadi. Gapning barcha qismlari fe'l predikat

⁶J.Fourquet. L'ordre des elements de la phrase en germanique ancien. Etudes de suntaxe de position, Paris, 1938.

munosabatiga ko'ra unga bog'liq qismlarga (aktantlar, argumentlar, to'ldiruvchilar, partnyorlar, komplementlar va h.k.) va erkin qismlarga (sirkonstantlar, erkin kengaytiruvchilar, hollar, ad'yunktlarga) bo'linadi»⁷. Ko'rinadiki, hollar fe'llarga bog'liq qismlar qatoriga, ya'ni uning valent tarkibiga kiritilmaydi. Fe'l valentlik xususiyatlarining bunday talqini Ten'erning tahlilda mazmuniy bosqichga asoslanish zarurligi va har qanday harakat muayyan miqdordagi ishtirokchilarni (aktantlarni) talab etishi, gap sathida bular ega va to'ldiruvchi sifatida namoyon bo'lishi mumkinligi haqidagi qarashlari bilan bog'liq. Uning fikricha, barcha holli elementlar (sirkonstantlar) fe'l ma'nosi bilan shartlanmagan, shuning uchun uning valent tarkibiga kirmaydi.

Bunday qarashlar G.Brinkman ishlarida ham kuzatiladi. U ot, sifat hamda fe'llarning valentlik xususiyatlarini kuzatar ekan, fe'llarning o'ziga xos valentlik tabiatiga ega ekanligini aniqlaydi. Ot hamda sifatlar faqat bittadan kelishik formalari uchun vakant pozitsiyalarga ega bo'lsa, fe'llar egadan tashqari yana bir qancha vakant pozitsiyalarga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Muallif «ishtirokchilar» sifatida faqat kelishik shakllaridan birida qo'llaniluvchi otlar bilan to'ldiriluvchi pozitsiyalarni tanlaydi. Ko'makchilar yordamida yuzaga chiquvchi shakllar esa soqit qilinadi, ya'ni hollar fe'llarning umumiy valentlik tarkibiga kiritilmaydi. Bunday qarash Brinkmanni Ten'erning qarashlari bilan umumlashtiradi.

L.Ten'erdan farqli ravishda Brinkman «valentlik» va «pozitsiya» tushunchalari o'rtasidagi chegarani belgilaydi. G.Brinkman fikricha, valentlik har doim fe'lning birikma hosil qilish bo'yicha potentsial imkoniyati, (obrazli aytganda) unga xos layoqatdir. Imkoniyatning reallashuvi esa pozitsiyani hosil qiladi⁸. Demak, valentlik va pozitsiya tushunchalari o'rtasida imkoniyat va voqelik dialektikasi kuzatiladi. Fe'llarning imkoniyat tarzidagi valentliklarining nutq jarayonida real birliklar bilan to'ldirilishi, voqelanishi pozitsiyani hosil qiladi.

⁷Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixovjaeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent: Fan, 1992. 41-b.

⁸Qarang: Filicheva N.I. Ponyatie sintaksicheskoy valentnosti v rabotax zarubejnih yazykovovedov. – VYa, 1967, №2. str.121.

Тенбер va uning izdoshlarining kamchiligi shunda ko'rinadiki, ular fe'lning valent tarkibini hosil qiluvchi «ishtirokchilar»ni belgilashda fe'lga tobe bo'lgan bo'lakning real kommunikativ funksiyasini e'tiborga olmadilar.

Bu jihatdan Y.Erben qarashlari e'tiborga loyiq. U ham gap markazida fe'l turishini e'tirof etadi va fe'l valentligini atom valentligiga qiyoslagan holda, aynan shu valentlik gapning struktur sxemasini belgilashini ta'kidlaydi. Chunki «to'ldiruvchi»larning nechta va qanaqa bo'lishi hamda ularning qaysi o'rinda kelishi aynan fe'lga bog'liq. «To'ldiruvchi» sifatida Y.Erben nafaqat ega va to'ldiruvchini, balki mazmunan zarurbo'lgan hollarni, predikativ aniqlovchini va predikativni ham belgilaydi. O'z sxemalarida muallif har bir «to'ldiruvchi»ni muayyan raqamlar bilan belgilaydi (E_1 , Ye_2 , Ye_3 , Ye_4). Lekin bu raqamlar faqat fe'lning umumiy valentligini belgilab, ularning ierarxiyasini ham, tartibini ham ko'rsatmasligini uqtiradi⁹.

L.Veysgerber, G.Xelbiglar o'z oldiga valentlik tushunchasini aniqlashtirish va formallashtirish vazifasini qo'yidilar. Xususan, L.Veysgerber valentlik haqidagi qarashlarni rivojlantirgan holda, «gapning har bir bo'lagi muayyan gap bo'lagini modellashtirish doirasidagi tutgan o'rniga ko'ra «valentlik» xususiyatiga ega» ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni valentlik masalasi nafaqat fe'lga nisbatan, balki boshqa so'z turkumlariga nisbatan ham qo'llanilishi lozimligi e'tirof etadi.

Xelbig fe'l valentligini tekshirishda transformatsion grammatikaning muayyan bo'laklarni tushirish usulini qo'lladi. Bunda gap tarkibidagi fe'l «kengaytiruvchilari»dan biri tushirilishi natijasida gap mazmuniy strukturasi o'zgarish bo'lmasa, ushbu bo'lak struktur jihatdan zaruriy emas, aksi bo'ladigan bo'lsa, ushbu bo'lakning ishtiroki zaruriydir. Ko'rinadiki, fe'l valentliklarining zaruriy yoki zaruriy emasligi muayyan vaziyat bilan, so'zlovchining muayyan maqsadi bilan bog'liqdir.

Тенбер nazariyasi ko'plab tilshunoslar tomonidan ilgari surildi va hozirgi tilshunoslikda mustahkam o'rin egalladi. Dastlab fe'llarning faqat ega va to'ldiruvchiga nisbatan birikuvchanligini ifodalovchi «valentlik» atamasining ko'lamini kengayib,

⁹ Qarang: Filicheva N.I. Ponyatie sintaksicheskoy valentnosti v rabotax zarubejnih yazikovovedov. – VYa, 1967, №2. str.123.

keyinchalik gap strukturasi uchun zarur bo'lgan barcha fe'l kengaytiruvchilari shu tushuncha tarkibiga kiritildi. Lekin ba'zan buning aksini. «Birikma» ma'nosida qo'llangan «valentlik» atamasining ma'no ko'lemi torayib, tilshunoslar tomonidan yo til sathi doirasida til birliklari birikuvchanligining potentsial imkoniyatlarini belgilash uchun, yoki ushbu imkoniyatlarning nutqiy realizatsiyasini belgilash uchungina ishlatilayotganini kuzatishimiz mumkin. «Valentlik» atamasini til birliklarning potentsial xususiyatlari ma'nosida qo'llash tendentsiyasi shu xususiyatlarning nutqdagi aktuallashuvini belgilash uchun qo'llanilishiga nisbatan keng tarqaldi. Agar til-nutq dioxotomiyasini, til va nutq birliklari o'rtasidagi dialektik bog'liqlik mavjudligini, ular o'zaro bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar ekanligini inobatga olsak, u holda cheksiz birikish imkoniyatlariga ega bo'lgan lisoniy birliklar muayyan vaziyatda, muayyan maqsadni amalga oshirish uchun nutqiy realizatsiyasidan tashqil topadi. SHuning uchun valentlik atamasini ham til birliklarining birikuvchanlik imkoniyatlarini, ham ularning nutqiy realizatsiyasini belgilash uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu fe'llarning valentlik modeli bo'lib, uning konkret birliklar bilan to'ldirilishi nutqda sodir bo'ladi. So'zlarning sintaktik valentligi esa so'z birikmalarida gavidalanadi. Tilshunosligimizda qayd etilgan quyidagi birikmalar mustaqil so'z birikmalari sanaladi: kinoni ko'rmoq, televizorda ko'rmoq, bugun ko'rmoq, uyda ko'rmoq, ukam bilan ko'rmoq, erinmay ko'rmoq, oxirigacha ko'rmoq kabilar, hozirgi o'zbek tilshunosligining talqiniga ko'ra yuqoridagi oltita so'z birikmasini o'z ichiga olgan gap quyidagicha nutqiy birikmalarga ajratiladi: kinoni + ko'rmoq, televizorda + ko'rmoq, bugun + ko'rmoq, ukam bilan + ko'rmoq, erinmay + ko'rmoq, oxirigacha+ko'rmoq. Nutqiy iqtisod qonuni asosida birikmalar jamlanishidan hosil bo'lgan bu gapdagi "*ko'rmoq*" ni qavsdan tashqariga chiqarsak, shunday holatga duch kelamiz: (kinoni +televizorda + bugun + ukam bilan + erinmay+oxirigacha) ko'rdim. Haqiqatan, tafakkur jarayoni shundaymi? CHizma kinoni, televizorda, bugun, ukam bilan, erinmay, oxirigacha kabi so'z shakllarni o'zaro bir-biriga qo'shilgan tarzda ko'rsatmoqda. Aslida ular qo'shilganmi? Bizningcha, *Kinoni televizorda bugun ukam bilan erinmay oxirigacha ko'rdim* gapining tafakkur jarayoni (gapning shakllanish asosi) boshqacha bo'lsa kerak. Uni quyidagicha tasavvur etishimiz mumkin:

KO'RDIM

Bugun ko'rdim.

Bugun kinoni ko'rdim.

Bugun kinoni televizorda ko'rdim.

Bugun kinoni televizorda ukam bilan ko'rdim.

Bugun kinoni televizorda ukam bilan erinmay ko'rdim.

Bugun kinoni televizorda ukam bilan erinmay oxirigacha ko'rdim.

CHizmadan ko'rinib turibdiki, gapning kengayishi birikmalarni yuzaga keltirish emas, balki "*ko'rmoq*" so'zi bog'lashuv a'zolarining birin-ketin nutqqa kiritilishi asosida sodir bo'ladi. Bu fikrni psixolingvistlarning xulosalari ham tasdiqlaydi. Nutqiy hosilalar bo'lgan gaplarning aktual(dolzarb) bo'linish natijalari ham yuqoridagi hukm to'g'riligini ko'rsatadi.

So'zni til tizimining asosiy birligi sifatida har tomonlama chuqur o'rganish hozirgi tilshunoslikning eng muhim masalalaridan biridir. Bu muammoni xal etishda hozirgi lingvistikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolayotgan valentlikning semantik nazariyasi katta rol o'ynaydi. Tilshunoslik maydoniga kirib kelgan davrdan boshlab valentlik nazariyasi hozirgi sintaksisning muhim yo'nalishi sifatida shakllanib, tilshunoslikda shakl va mazmun planidagi tadqiqotlarga, so'zlarning birikuvchanligi va gap strukturasini (avvalo fe'llarga nisbatan) o'rganishga ma'lum darajada o'z hissasini qo'shdi. Hozirgi paytda ushbu nazariyaning tushunchaviy apparatini ishlab chiqish borasida muayyan natijalarga erishildi. Xususan, yuqorida tahlilga tortilgan ishar bilan bir qatorda Katsnel'son, Kibardina, Moskal'skaya, Dolinina, Stepanov, Filichyova, Admoni, Schippan, Yenjel kabi tilshunoslarning fe'llar valentlik tasnifini aniqlash tamoyillari, fe'llarning valentligi va mazmuni o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash, aktantlarning va kengaytiruvchilarning semantik turlarini ajratish kabi muammolarga bag'ishlangan tadqiqotlari maydonga keldi. SHunga qaramay, valentlik nazariyasining aktanlar va erkin

kengaytiruvchilar, obligator(zaruriy) va fakul'tativ(nozaruriy) aktantlarni belgilash, valentlik nazariyasi kategoriyalarining an'anaviy grammatika kategoriyalari bilan bo'lgan munosabatini aniqlash kabi masalalar hozirgacha o'z yechimini topgan emas. SHu bilan birga valentlik va so'z yasovchi vositalar munosabati muammolari, gap tiplarida valentlikning realizatsiyasi xususiyatlari kabilar ham o'zining to'liq yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi. SHu boisdan ishimizda tahlilga tortilgan fe'l- leksemalarning, ayniqsa, sezgi fe'llarining ayrimlari xususida valent tahlil olib borish maqsadga muvofiq keladi deb hisoblaymiz.

1.4.Fe'l leksemalarning so'z bog'lashuvi sifatidagi talqini

Tana a'zolari nomlarini anglatuvchi leksemalarni inson yoki hayvonot olami bilan aloqador nomlar sifatida ajratamiz, biroq bunday farqlanish nutq jarayoni bilan bog'liq bo'ladi.

A.Sobirov so'zlarga xos muhim xususiyatlardan biri sifatida ularning o'zida qanday g'oya tashiyotganligiga qarab alohida semantik maydonlarni hosil qilish ekanligini qayd etadi va misol tariqasida tana semantik maydoniga birlashuvchi quyidagi so'zlarni keltiradi: "soch, peshana, quloq, qosh, kiprik, burun, yanoq, ensa so'zlari **bosh** ; til, tish, milk, lakluk, tanglay so'zlari **og'iz**; ichak, buyrak, yo'g'onichak, jigar so'zlari **qorin**; tirnoq, panja, bilak, tirsak, barmoq so'zlari **qo'l** so'zi bilan bog'liq paradigmatic qatorlarni hosil qilgani holda o'zaro birikib, tana semantik maydoniga birlashtiradi. SHu bilan birgalikda, sanab o'tilgan so'zlarning barchasida xususiyliklar ham kuzatiladi".¹⁰

Bunday xususiyliklar sifatida bosh semantik maydoni tarkibiga kiruvchi ko'z, quloq, og'iz, burun kabilarni olishimiz hamda ushbu maydon bilan bog'liq hosil qilingan fe'l ma'naviy paradigmalarini ham guruhlash mumkin. Xususan, **ko'rish** sezgisi bilan bog'liq harakat fe'llari paradigmasi: *qaramoq, ko'rmoq, tikilmoq, nazar solmoq, termulmoq, kuzatmoq, tomosha qilmoq, boqmoq* kabi. Mazkur paradigmaga kiruvchi fe'llarning ma'naviy xususiyatlari esa nutq jarayonida yanada aniqlik kasb etadi. CHunki ulardan ayrimlarining mustaqil, ayrimlarining ko'chma ma'no kasb etishi ham kuzatiladi.

¹⁰Sobirov A. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. Toshkent: Ma'naviyat, 2004.- 48-49-betlar.

Mazkur nutkiy ma'no ifodalagan fe'l-so'zlar xuddi leksik ma'no bilan qo'llangan fe'llar singari gaplar tarkibida gap markazlarini hosil qiladi va nutqiy ma'no semalari asosidagi valentlik imkoniyatlariga ko'ra uni amalga oshiradi. SHunga ko'ra fe'llarning bu asosdagi valentliklarini nutqiy semantik valentlik deb atash mumkin. Valentlik so'z ma'nosiga asoslanar ekan, u so'zning qanday ma'nosiga asoslanishiga qarab turlarga bo'lina oladi. Nutqiy valentlik asosidagi sezgi, xususan, ko'ruv sezgisiga aloqador fe'llarning ma'noviy xususiyatlari haqida A.Hojievning ko'makchi fe'llar haqidagi qarashlaridan ham misollar keltirib o'tish joiz. CHunki **ko'r** mustaqil fe'lining asosiy ma'nolaridan biri "sinamoq, tekshirmok, tajribadan o'tkazmoq" ma'nosidir. *Bir yigitning aslin bilay desangiz, Ma'arakada utirib turishin ko'ring*(Maxtumquli).

Botirsingan yigitni, Yov kelganda ko'ramiz.

CHechansingan yigitini, Dov kelganda ko'ramiz(Maqol).

Ko'raychi, qadamim muborak bo'larmikan (A. Qodiriy).

Ko'r ko'makchi fe'lining ma'nosi *ko'r* mustaqil fe'lining ma'nosiga teng. Farq shundaki, **ko'r** fe'li "sinash, tekshirish" ma'nosida ravishdosh shaklidagi fe'l bilan birikib kelganda, leksik-grammatik jixatdan mustaqilligi yo'qoladi. U ifodalagan ma'no ravishdosh formasidagi fe'l ifodalagan ma'noga qo'shimcha tarzda ma'no hisoblanadi, ya'ni bunda ko'r fe'li ravishdosh shaklidagi fe'l bildirgan xarakteristikasini ko'rsatadi. SHu sababali u ko'makchi fe'l hisoblanadi. Deyarli bir xil ma'no ifodasiga ega bo'lgan *qara, boq* ko'makchi fe'llari bilan **ko'r** ko'makchi fe'li o'rtasida stilistik jihatdan katta farq yo'q. SHuningdek, ulardan birini faqat biror shevaga xos deb ham bo'lmaydi. Bu ko'makchi fe'llar jonli so'zlashuvda ham, yozuvda ham aralash qo'llanaveradi: *Endi o'ylab qarasam, u baxtni emas, baxtsizligini yo'qotgan ekan*(S.Ahmad).

Bitta emas qo'ling qizim,

Ikkita-ku sanab boq:

Sanab ko'rar u yana jim

Va qirqirlar qaqanoq (T.To'la).

Bu ko'makchi fe'llar qo'llanishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Eng ko'p qo'llanuvchi fe'l sifatida **ko'r** ko'makchi fe'li olinsa, *qara* ko'makchi fe'li unga nisbatan kamroq, *boq* esa *qara* fe'lidan ham kam qo'llanadi. *Qara* fe'lining asosiy ma'nosi "nazar tashlamoq, nazar solmoq" ma'nosidir. Bu ma'noda u hamma vaqt jo'nalish kelishigidagi so'zni boshqarib keladi. *Ko'r* fe'li esa birinchi ma'nosida hamma vaqt tushum kelishigidagi so'zni boshqarib kelishga ixtisoslashgan: *kitobga qara – kitobni ko'r*. Lekin *qara* fe'li hozirgi o'zbek tilida *ko'r* fe'lining sinonimi sifatida keng qo'llanar ekan *ko'r* fe'li singari tushum kelishigidagi so'z bilan ham boshqaruvli munosabatda bo'la oladi: *gapini ko'r – gapini qara, hidini ko'r – hidini qara* kabi. SHu bilan birga *qara* fe'li ham *ko'r* fe'li kabi "sinamoq" ma'nosiga ega bo'la oladi: *Bir-ikki kun ishlay. Keyin qarayman, yoqmasa boshqa yerga ishga o'taman*. Biroq *boq* fe'li mustaqil fe'l sifatida "sinamoq, tekshirmoq" ma'nosiga ega emas. Lekin "nazar solmoq" ma'nosida *qara* fe'lining sinonimi bo'lishi mumkin: U zimdan ayollarning kiyimlariga qarab chiqdi(nazar soldi). **Boq** fe'li jonli so'zlashuvda *ko'r* fe'lga sinonim sifatida qo'lanishini kuzatish mumkin: Har hunarning o'z zavqi bor deyдилar, qani biz ham dalaga chiqib *boqaylik(ko'raylik)*(SH.)

Eshitish sezgisi bilan bog'liq harakat fe'llari paradigmasi: eshitmoq, tinglamoq, qulog'iga chalinmoq. Ushbu fe'l ma'nosining eng muxim xususiyatlaridan biri shuki, ularning ma'noviy boglashuv xosil kilish imkoniyati asosan, tushum kelishigi kushimchasidagi suzlar bilan birikib kela olishi bilan ahamiyatli xisoblanadi. CHunki eshitmoq – nimani? kimdan? yoki qaerdan? tinglamoq – nimani?, qulogiga chalinmoq – nima? kabi uz boshqaruv va bitishuvli boglanish imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Yemoq, ma'za-ta'm bilan bog'liq harakat ifodalovchi fe'llar paradigmasi: yemoq, ovqatlanmoq, ichmoq, simirmoq, totimoq, nonushta qilmoq, chaynamoq, kavshamoq, yutmoq, g'ajimoq, tamaddi qilmoq, tanovul qilmoq, ta'mini ko'rmoq, kemirmoq, shimirmoq, shimimoq kabi. Bu guruhga mansub fe'l ma'noviy valentlik imkoniyatlari ham asosan tushum kelishigi bilan bog'lanadi. Ammo mazkur paradigmaga kirgan fe'llarning ayrimlari, xususan, ovqatlanmoq, nonushta qilmoq, tamaddi qilmoq kabilarda

tushum kelishigiga nisbatan bosh kelishikli ma'noviy bog'lashuvlarni hosil qilish imkoniyati kengroq hisoblanadi.

Hid bilish bilan bog'liq harakat ma'nosidagi fe'llar semantikasi: iskamok, hidlamoq kabilar xususida ham yuqoridagi kabi fikrlarni takrorlash mumkin. Bularning aniq mazmuniy munosabatlari jonli nutq jarayonida konkretlashadi. Fe'llarning boglashuv imkoni haqida tuxtalganda utimlilik xarakteri kuchli ekanligi ta'kidlash hamda ba'zan "bo'y taratdi" fe'li bosh kelishikli formada kelishini ham ta'kidlash joizdir.

Ko'rinadiki, ko'rsatib o'tilgan leksemalarning deyarli barchasi nutqiy vaziyat bilan aloqador holda voqelanishi mumkin. Biz o'z ishimizda yuqoridagi guruhlardan farqli ravishda valent imkoniyatlarini sistem-struktur taxlil qilish mumkin bo'lgan leksemalarni quyidagicha guruhlab urganishga harakat qildik:

- insonlarga xos bo'lgan tana a'zolari nomlarining paradigmasi va valent tahlili;
- insonlarga xos tana a'zolarini ifoda etuvchi sezgi fe'llarining obligator va fakul'tativ valentliklari;
- tana sezgi a'zolari nomlari bilan bog'liq fe'llarning nutqiy kengayishi va ifoda shakllari.

O'tgan asrning yarmiga qadar Ovro'po tilshunosligida hukm surgan gap strukturasiga mantiqiy yondashish an'anasi rus tilshunosligi orqali turkiyshunoslikka ham kirib kelgan edi. Har qanday gapning bo'laklar munosabatiga qarab belgilanishi tufayli turkiy tillarning o'ziga xos tomonlari ochilmay qoldi. Til hodisalarini tadqiq etishda biz uchun an'anaga aylangan bunday yo'l, ya'ni shakldan mazmunga borish lisoniy hodisalarning mohiyatini to'g'ri va xolisona ochish imkoniyatini cheklab qo'ydi, aniqroq aytganda, davr uchun xarakterli bo'lgan empirizm (hodisalarni ayrim-ayrim holda analitik tasvirlash usuli) haqiqiy nazariy bosqichning shakllanishiga to'siq bo'ldi.

Bugungi kundagi o'zbek tilshunosligining holati to'la-to'kis sistem tahlil metodikasiga o'tishni talab etmokda. So'nggi davrda gap bo'laklarini o'rganish bo'yicha an'anaviy andazalardan chiqishga intilish A. Hojiev, N. Mahmudovlarning "Semantika

va sintaktik pozitsiya”, N. Mahmudov va boshqalarning “O’zbek tilining mazmuniy sintaksisi”, H. Ne’matov va boshqalarning “Gap strukturasi va turkiy tillar sintaksisining dolzarb masalalari”, O’zbek tili «struktural sintaksisi asoslari» (H. Ne’matov, M. Qurbonova), O’zbek tili nazariy grammatikasi (N. Mahmudov, A. Nurmonov T. 1995 y.), M. Boshmonovning “Gap bo’laklari ma’nosi sistem qurilma sifatida” kabi ishlarida hamda R. Sayfullaeva, M. Abuzalova, B. Mengliev, O. Bozorov, M. Saidovalarning ilmiy izlanishlarida ko’zga tashlanadi. Bularning barchasi gap qurilishiga, xususan, gapda markaziy bulak vazifasini bajarib kelishga ixtisoslashgan fe’llar, aniqrogi, inson tana sezgisi bilan bog’liq fe’l kesimlarga ham yangicha yondashish imkoniyatini beradi. Biz endi kesim vazifasida yadro sifatida kelgan fe’lni valentlik nazariyasi hamda sodda gap eng kichik qurilish qolipining kengayishi nuqtai nazaridan ko’rib chiqishga harakat qilishimiz zarur. Bu jarayonda asosiy e’tibor, shubhasiz, valentlik nazariyasiga – so’z valentligiga, ya’ni ma’lum bir so’zning ma’noviy xususiyatlariga ko’ra nutqda boshqa turdagi so’zlar bilan birikish imkoniyatlariga, ularning fakultativ va obligator valentlik sifatida birikish imkoniyatlarini tadqiq etishga qaratiladi. So’z valentligining sintaktik aloqalar tashkil etilishidagi ahamiyatining tilshunoslikda takror va takror eslatib o’tilganligi ham fikrimiz isboti bo’la oladi.

Yuqorida aytib o’tilganidek, inson va hayvonlarga xos bo’lgan tana a’zolari nomlari leksema sifatida o’z mazmuniy mundarijasida umumiylik kasb etsa-da, nutq jarayonida tegishli valentliklar nuqtai nazaridan reallashadi. Ularga xos umumiy nomlar sifatida **tana, gavda, bosh, kalla, quloq, ko’z, burun, og’iz, tish, til** singarilarni keltirib o’tish mumkin. Bu umumiylikni tana sezgisi bilan bog’liq a’zolari ifoda etuvchi fe’l paradigmalar sifatida birlashtirsa bo’ladi. Bulardan faqat insonlarga xos tana a’zolari nomlari bilan bog’liq reallashuvchi fe’llar o’zbek tilidagi badiiy adabiyotlarda, jonli so’zlashuv nutqimizda ancha ko’p uchraydi: *Uning bayramona kiyinganini **ko’rib** ko’zi yanada quvonib ketdi. U so’zlarga Qosim cho’ng Tebratib qalin labin, diqqat bilan **eshitdi** Qodir oxun talabin (G’ayratiiy). Mehmonlar lazzatli taomlarni mazza qilib **tanovul qildilar**. Anvar qizning yuzidan o’pdi va uning to’zg’igan sochlarini to’g’rilab,*

*xayotbaxsh kokillarining muattar bo'yini uzoq **hidladi**(A.Qodiriy). Bolaligida oyog'i singani uchun havoni bulut bossa oyog'i **zirqirab og'rirdi**.*

Gap kurulishida ishtirok etayotgan so'zlarni zaruriy yoki nozaruriy turlarga ajratish yohud, umuman, so'z valentligi (leksemalarning ma'noviy "bog'lashuv"i) (atamani SH.Rahmatullaev tavsiya etgan) haqida gap borganda tahlil doirasiga ko'proq fe'l so'z turkumi jalb etilmoqdaki, buning sababi fe'llarda bog'lashuvlik hodisasi keng ko'lamda shakllanganligidir. Ammo bu xususiyat fe'llar uchungina xos degani emas. Chunki tilning ma'lum sathidagi biror birlik, muayyan xususiyatga ega bo'lar ekan, bu xususiyat shu sathning boshqa birliklariga ham u yoki bu darajada aloqador bo'ladi.

Tilshunoslikda boshqaruv bog'lashuvdan oldinroq tadqiq etila boshlangan, shuningdek, boshqaruv dastlab fe'lning xususiyati deb tan olingan edi. Keyingi tadqiqotlar ko'rsatdiki, boshqarish nafaqat fe'llarga, balki ot, ravish, son kabi turkum so'zlar uchun ham taalluqli ekanligi ayon bo'ldi. Fe'l(keng manoda) bog'lashuvida "oldingi" kengaytiruvchilar "keyingi" kengaytiruvchilardan farqlanadi. "Oldingi"lar zaruriy, "keyingi"lar esa nozaruriy hisoblanadi. Bu holat tasodifiy emas, chunki so'z ma'noviy bog'lashuvining nutqda voqelashuvi sintaktik "hokimlik-tobelik" (keng ma'nodagi "aniqlovchi-aniqlanmish") bilan bog'liqdir.

Gap bog'lashuvini voqelantiruvchi so'z hokim, kengaytiruvchi so'zlar esa tobelik holatida keladi. Masalan, ye *d i m* nimani? (ovqatni) qachon? (bugun) qaerda? (oshxonada) kim(nima) bilan? yoki qanday ovqatni? (issiq). Bu yerdagi ovkatni, bugun, oshxonada, akam bilan, issiq so'zlari (tobe so'zlar yoki) aktantlar xisoblanadi. Bunda so'z birikmasidagi keyingi so'zning zaruriy bog'lashuvi oldingi so'zning nozaruriy bog'lashuvi bilan uyg'unlashadi. SHunday bo'lsa ham, biz «so'z valentligi» yoki «so'z ma'noviy bog'lashuvining voqelantiruvchilari» atamaları ostida so'zning o'zidan oldingi kengaytiruvchilarini nazarda tutamiz. Chunki so'z birikmadaridagi tobe-hokimlik munosabatlari masalasi uzil-kesil hal etilmas ekan, bu turkiyshunoslikda rasm bo'lib qolgan "keyingisi-hokim", oldingisi tobe talqiniga amal qilaveramiz. Yuqoridagi izohlardan ko'rinib turibdiki, "so'z valentligi" tushunchasi "so'z birikmasi" «hokim so'z», «tobe so'z» tushunchalari bilan to'qnashadi. Bu tasodifiy emas, chunki so'zning

ma'noviy bog'lashuvi(semantik valentlik) nutqda sintaktik bog'lashuvi(sintaktik valentlik) shaklida voqelanadi. So'zlarning sintaktik bog'lashuvi esa so'z birikmalarida gavdalanadi. Bu tilshunoslikda aksiomaga aylangan hodisadir.

1-bob bo'yicha xulosa

Ko'rib o'tilgan mavzular bo'yicha shunday xulosa qilish mumkin. So'z ma'nosi faqat belgilanuvchi predmet xususiyatlarining aks etishi natijasi sifatidagina paydo bo'lmaydi. Bunda so'z tovushi ham katta rol o'ynaydi. Tushuncha singari so'z ma'nosining rivojlanishi uchun ham kishilar fikr almashuvi zarur. Bu esa tovush orqali amalga oshadi. Jamiyat so'z ma'nosini mana shu tovush orqali shakllantiradi va takomillashtiradi. Amaliyot narsalarning belgilarini umumlashtirishni tovush orqali ma'noga tomon yo'llaydi. Ma'no esa o'z-o'zidan ayonki so'z valentligi sifatida talqin etiladigan so'zlarning o'zaro bog'lashuvi orqali nutqda gaplarni hosil qiladi. Hozirgi davr tilshunosligining katta yutuqlari qatorida til va nutq hodisalarini farqlash, idrok etish borasidagi tadqiqotlarni alohida ta'kidlash kerak. Chunki shunday ishlar sirasida bevosita kuzatishga chiqmagan, ammo imkoniyati bor til qolipi mavjudligi, bu qolip nutqda moddiylik tarzida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslandi. Nutq jarayonida shu qolip so'zlovchining kommunikativ maqsadi tufayli kengaya oladi. Bu esa tadqiq davomida inson sezgi a'zolari uchun xos bulgan tana sezgi fe'llari paradigmalarining valent tahliliga to'xtalib o'tishni taqozo etadi. Ularga xos umumiy nomlar sifatida **tana, gavda, bosh, kalla, quloq, ko'z, burun, og'iz, tish, til** singarilarni keltirib o'tish mumkin. Bu umumiylikni tana sezgisi bilan bog'liq a'zolari ifoda etuvchi fe'l paradigmalar sifatida birlashtirsa bo'ladi. Bulardan faqat insonlarga xos tana a'zolari nomlari bilan bog'liq reallashuvchi fe'llar o'zbek tilidagi badiiy adabiyotlarda, jonli so'zlashuv nutqimizda ancha ko'p uchraydi va ularning o'ziga xos ma'noviy sistemalari mavjud deb hisoblaymiz.

II BOB

O'ZBEK TILIDAGI VALENTLIK TURLARI

2.1. O'zbek tilida valentlikning ko'rinishlari

Ma'lumki, valentlik so'zning leksik ma'nosiga tayangan holda mavjuddir. Aniqrog'i, so'z leksik ma'nosi qanday yoki qanaqa mantiqiy semaga ega bo'lsa, shu semasiga mutanosib holda valentlikka ega bo'ladi. Agar gap kssimi fe'l bo'lar ekan, uning, ya'ni gap predikatining valentligi gap qolipini belgilaydi. SHuning uchun ham M.D.Stepanova «...fe'l - gap asosi, uning boshqa barcha bo'laklari va hatto sub'ekti ham unga bog'liqdir», - deb yozadi. G.Xelbbig ham valentlik so'z semantikasiga va gap qolipi valentlikka asoslanishini o'zining maxsus maqolasida tahlil etib bergan edi. Ko'rinadiki, xar qanday sintaktik aloqa reallashgan valentlik deb qaralishi kerak bo'ladi. Ya'ni sintaktik aloqalarning yuzaga kelishini valentlik belgilaydi, ko'prok predikat vazifasidagi fe'l keltirib chiqaradi. Nutqda alohida so'z, ko'proq fe'lning semantikasi butun jumlaning semantik tarkibi bilan o'zaro munosabatga kirishadi. Bu nutq tabiatidir.

Fe'l kesim o'z valentligi asosida, nutq yo'l qo'ygan vaziyatga qarab, o'z aktantlarini qabul qiladi, ya'ni shu orqali fe'l semantikasidagi semalar namoyon bo'ladi, Aktantlar esa gapniig ma'lum bo'lagi vazifasini o'taydi. Muayyan valentlikning aktanti gapnint muayyan bo'lagi ham hisoblanadi. SHuning uchun ham valentlikka ikki nuqtai nazardan yondashilib, ikki tipga bo'lib o'rganiladi: 1) semantik valentlik; 2) sintaktik valentlik.

Semantik valentlik so'z semantikasining mantiqiy semalariga asoslanadi. SHu sema boshqa bir so'z ma'nosining mantiqiy semasi bilan mos bo'ladi. SHuning uchun mazkur so'zda semalari mos bo'lgan so'z bilan birikish imkoni yuzaga chiqadi. Bu uning semantik valentligi hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan ham G.Xelbbig «Semantik valentlik ma'noning alohida semalari chatishuviga asoslanadi», - deydi . Fe'llarning imkoniyatini shu o'rinda alohida tilga olishga to'g'ri keladi. Fe'l nafaqat harakatni nomlash, balki shu harakatning barcha ijrochi va qatnashchilarini, kechimini va barcha vaziyatni oldindan ko'rsatish imkoniga ega. Fe'lning mana shu imkoniyati uning semantik valentligi sifatida izohlanadi. Yuqorida aytilganidek, V.A.Karimjonova esa

o'rin kelishikli fe'l boshqaruvidagi birikmalar semantikasi haqida fikr yuritar ekan, birikma bo'laklari ma'nosi ma'lum semalari mosligi bilan klassemani tarkib toptirishi fe'llar semantik valentligining namoyon bo'lishi deb ko'rsatadi. Ya'ni mantiqan semantik valentliklarda muayyan semantik belgilarga ega muayyan kontekstual partnerlar qabul qilinadi va boshqa semantik belgilarga ega kontekstual partnerlar «tan olinmaydi». Mazmuniy, ya'ni semantik valentlik tarkibi — bu shakliy mantiq terminlarida qayd etilgan predikat va uning argumentlari kabi fikrlashning tarkibidir. Unutmaslik lozimki, so'z ma'nosining mantiqiy semalari haqida gapirilar ekan, uning faqat denotativ semalari nazarda tutiladi. Ulargina semantik valentlikni yuzaga keltiradi.

Yuqorida qayd etilganidek, har qanday sintaktik aloqa reallashgan valentliqdir. SHunday ekan, valentlikni sintaktik jihatdan ham yondashib tahlil etish mumkin. L.Ten'ber valentlikning dastlabki tadqiqotchisi sifatida uni sintaktik valentlik holatida o'rgandi. U yuqorida ta'kidlanganidek, gap markazida fe'l kesim yotadi, deb hisobladi va bosh bo'lak sifatida, bu qarash bo'yicha, ega o'z o'rnini topmadi.

SD.Katsnel'son ham shu nuqtai nazarda turib, o'timli fe'l tushum kelishikli so'z qabul qila olishini shakliy (sintaktik) valentlik deb biladi. G.Xel'big esa, sintaktik valentlik turlicha bo'lgan tillarda ochiq mavqedagi muayyan son va turning zaruriy yoki fakul'tativ to'ldirilishi deb qaralishini tushunadi. Ya'ni u ochiq qolgan mavqening to'ldirilishini zikr etadi, albatta, uning to'ldirilganligini emas. To'ldirilish esa muayyan bo'lakni qabul qilish imkoni bo'ladi. Fe'l kesimning valentligini sintaktik valentlik nuqtai nazaridan tadqiq etish ma'lum yutug'iga ega ekanligiga qaramay, gap bo'laklaridagi sintaktik va semantik nomuvofiqlikning bo'lishi ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. SHuning uchun ham G.Brinkmann har ehtimolga qarshi, o'tish kechimida ega va to'ldiruvchi o'rtasida yashirin aloqa o'rnatiladi, degan fikrni ilgari surgan edi. CHunki u vositasiz to'ldiruvchi, fe'l kesim passiv (majhul) nisbatga ko'chgach, ega vazifasiga ko'chishini ham ko'rsatib o'tgan. Lekin gap bo'laklarining nutq talabiga ko'ra bunday ko'chishlari juda ko'plab kuzatiladi. U turkiy tillar, ayniqsa, o'zbek tilida nihoyatda faoldir. Bunga karaganda fe'l kesim semantikasiga asoslangan valentliknn yuzaga chiqaruvchi aktantlarni tadqiq etish va ularni gapning

sintaktik bo'laklariga tatbiq etish qulayroq. SHuning uchun V.Bontsio sintaktik valentlikni tan olmaydi va semantik valentlik bor, degan fikrni o'rtaga tashlaydi.¹

G.Xel'big yana mantiqiy valentlik ham bor ekanligini qayd etgan. «Mantiqiy valentlik», - deb ko'rsatadi u «tilga oid bo'lmagan tushunchalar o'rtasidagi munosabatdir». Bunda so'z, shu jumladan fe'l ham, birikuv imkonini sememasining ma'lum semasi asosida yuzaga chiqargan bo'lmaydi. Uning valentligi shu so'z ma'nosi ifodalagan tushunchaga mantiqiy yondashuv orqali anglanadi va shunga ko'ra uning aktanti tanlanib, so'z bog'lanishini tarkib toptiradi. Masalan, nemis tilidagi *gehe* bog'lanishidagi *Ich* gepep, rus tilidagi *Ya prishyol* bog'lanishidagi *prshiyol* fe'llarida I shaxs birlikni talab qiluvchi valentlik yo'q. Bu harakatlarni shaxs bajarishi mantiqan ma'lum, shunga ko'ra ular I shaxs birlikni bildiruvchi olmoshlar bilan sintaktik aloqaga kirishgan. Ko'rsatilganday, mantiqiy valentlik mazkur tillar uchun mantiqan ham mavjud. Ammo o'zbek tili, umuman, turkiy tillar faktlari asosida mantiqiy valentlik mavjudligini tahlil etib, isbotlab bo'lmaydi. CHunki o'zbek tilida *keldim* degan eng kichik qolipli gap tuzilgan bo'lsa, u shaxsi aniq sodda gap hisoblanadi. Undagi I shaxs birlikda berilgan fe'l kesimning morfologik shaklidan egasi anglashilarlidir. U *men* olmoshi vositasida namoyn etiladi. Mazkur kesim shakli orqali yana payt valentligi borligi anglashiladi. SHunga ko'ra o'tgan zamon ifodasini beruvchi aktant namoyon etilsa bo'ladi. Bu valentlikni fe'l nisbatlariga ham tatbiq etish mumkin. CHunki fe'l nisbatlari shakli semantikasi mazkur fe'lda o'z valentligi joriy etadi. Ko'rinadiki, G.Xel'big tomonidan ilgari surilib, ayrim tilshunoslar tomoiidan takrorlangan mantiqiy valentlik asosan Hind-Evronea tillari uchun xos, ammo uni turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek tiliga tatbiq etib bo'lmaydi. Uning o'rniga turkiy tillarda grammatik shakl valentligi bor deb ko'rsatish shu tillar xususiyatiga muvofiqdir. Uni hamit tillari oilasiga ham tatbiq etsa bo'ladi, deydi tilshunoslik ilmi darg'alaridan biri A.Nurmonov. Ushbu valentlik haqida B.Mengliev va SH.Akramovlar maqolasida hamda M.Qurbonovanning qo'llanmasida maxsus to'xtab o'tiladi: «Grammatik shakl valentligi deganda affiksial morfemalarning birikish qobiliyati tushuniladi. U mohiyatan leksik (semantik) valentlikka o'xshashdir, lekin umumiylik darajasiga ko'ra semantik valentlikdan ancha yuqori bo'lib, kategorial umumlashmalar

darajasidadir. Jumladan, qaratqich kelishigining morfemasi o'zidan keyin kelgan egalik qo'shimchasi bilan birika olish valentligiga ega va so'z birikmasi tarkibida qaratqich hamda egalik qo'shimchalarining valentligi muvofiqlashadi; so'zlararo ma'noviy munosabatlar me'yoriy-nome'yoriyligidan qat'iy nazar, grammatik shakl valentligi voqelanishi mumkin».

Yuqorida semantik valentlik termini ostida leksik birliklar semantikasiga asoslangan, grammatik shakl semantikasi valentligi termini ostida esa kommunikatsiyadagi so'z shakli semantikasiga asoslangan valentliklar bo'lishi aytib o'tildi. Fe'llarning yana bir valentligiga ko'ra aktanti bilan munosabatga kirishuvi borki, bu valentlik asosi ancha muammo. Masalan, *o'qish uchun maktabga bordim* yoki *xarid uchun bozorga bordim* qurilmalarida *o'qish uchun bordim* yoki *xarid uchun bordim* fe'l boshqaruvlari grammatik jihatdan ham, mantiq jihatidan ham to'g'ri, ammo fe'lning qanday valentligi hisobiga mazkur tobe bo'laklar aktant sifatida u bilan birikkan? Bu noma'lum. *Bormoq* so'zi ma'nosining «nutq qaratilgan», «joy» semalarining birortasi bilan *o'qish* va *xarid* so'zlari ma'nosining semasi mos kelmaydi, klassemani tarkib toptirmaydi. *O'qish* so'zi ma'nosi semalari «ta'lim olib», «o'zlashtirmoq»lardan, *xarid* so'zi ma'nosi «haq to'lab» «nimanidir» «olish»lardan iborat. *Bormoq* fe'li yana yuqoridagi qurilmalarda *bozor* va *maktab* so'zlarini ham boshqarib kelgan. *Bozor* so'zi ma'nosi «nimanidir» «sotiladigan va olinadigan» «joy», *maktab* so'zi ma'nosi esa «ta'lim» «beriladigan» «joy» semalaridan tarkib topgan. Ko'rinadiki, *bormoq* so'zi *bozor* va *maktab* so'zlari bilan «joy» klassemasini tarkib toptirgan. Ya'ni mazkur fe'l o'rin valentligiga ko'ra bozor va maktab aktantlari bilan sintaktik munosabatga kirishgan. *Bozor* so'zi *xarid* so'zi bilan «nimanidir» «olish» semalari; *maktab* so'zi *o'qish* so'zi bilan «ta'lim» semalari asosida klassemani tarkib toptirgan va o'zaro sintaktik aloqada bo'lgan. Demak, shunday fikrga kelish mumkinki, *bormoq* fe'li *o'qish* so'zini bevosita boshqarsa ham, u bilan *maktab* so'zi vositasida; *xarid* so'zini bevosita boshqarsa ham, u bilan *bozor* so'zi vositasida semantik aloqadordir. Ya'ni *bormoq* fe'lining bu valentligi o'rin valentligi aktanti vositasida namoyon bo'lgan. U maqsad bildiruvchi argumentiga faqat o'rin aktanti vositasi bilangina birika oladi. SHuning uchun ham yuqoridagi

qurilmani *xarid uchun maktabga bordim yoki o'qish uchun bozorga bordim* deb tuzib bo'lmaydi. SHu vaziyatdan kelib chiqiladigan bo'lsa, feʼlning bu valentligini vositali valentlik deb atash joiz. CHunki feʼlning shu valentligi oʻrin aktanti semantikasiga tayanadi, uning semantikasi vositasida maqsad bildiruvchi argument uchun imkoniyat yaratadi.

Feʼllarning sabab valentligi ham deyarli barcha holda vositali boʻladi. U ham oʻrin valentligi akganti semantikasiga tayanadi.

Vositali valentlik faqat turkiy tillar emas, Hind-Evropa va Hamit-Semit tarmogʻidagi feʼllarga ham mansub. Yaʼni umumtilshunoslikda vositali valentlikni valentlikning bir koʻrinishi sifatida qoʻllash mumkin deb hisoblaymiz.

Valentlik soʻz maʼnosiga asoslanar ekan, u soʻzning qanday maʼnosiga asoslanishiga koʻra koʻrinishlarga boʻlinishi yuqorida tahlil etildi. U leksik birlikning semantikasiga asoslangan boʻlsa, semantik valentlik deb atalishi aytiladi. Ammo mohiyatni toʻla ifodalash uchun uni leksik-semantik valentlik deb atashni maʼqul deb hisoblaymiz. Mantiqiy valentlik, aytilganidek, Hind-Evropa oilasidagi tillarda bor. Uni oʻz oʻrnida qoʻllash ksrak. Ammo turkiy tillarda feʼl kesimlarning agens, kontragens, patsiens, payt valentligi soʻz grammatik shakli semantikasiga asoslanganligini eʼtiborga olib, uni grammatik shaklning semantik valentligi deb ataldi. Feʼlning oʻrin aktanti semantikasi vositasida mavjud boʻlgan valentlikni vositali valentlik, toʻlaroq qilib aytilsa, vositali semantik valentlik deb qarash zarur. Demak, oʻzbek tilida valentliklar: 1) leksik-semantik valentlik; 2) grammatik shaklning semantik valentligi; 4) vositali semantik valentlik kabi koʻrinishlarga boʻlinadi. Ammo bir fikrni qatʼiy taʼkidlash zarur: valentlik semantik, grammatik shakl semantikasi yoki vositali valentlik boʻlgan taqdirda ham maʼlum leksik maʼnosi bilan nutqda namoyon boʻlgan soʻz semantikasiga bogʻliq imkoniyat ekan, uning soʻz maʼnosiga bevosita emas, bilvosita zaruriy valentlik sifatida voqelanishini ham alohida taʼkidlash zarur. Bunday valentlik turlari soʻz valentligi va gap valentligi sifatida ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa avvalo yana bir masala, yaʼni soʻz valentligi va gap valentligi xususidagi ayrim mulohazalarga oydinlik kiritib olish joiz deb oʻylaymiz.

2.2. Soʻz valentliklari va gap valentliklari munosabati

Gap boʻlaklari muammosi ichida soʻz bogʻlashuvi(valentligi) bilan uzviy aloqada boʻlgan "soʻz valentliklari" tushunchasining mohiyatini ochish ushbu boʻlimimiz oldiga qoʻyilgan asosiy maqsadlardan biridir.

Soʻz bogʻlashuvi (valentlik nazariyasi) turkiyshunoslikda deyarli 40 yildan beri (S.N.Ivanov boshlab bergan edi), oʻzbek tilshunosligida esa 20 yildan buyon (professor I.Qoʻchqortoev boshlab bergan edi) oʻrganilib kelinmoqda. R.Rasulov, I.Qoʻchqortoev, SH.Rahmatullaevlarning tadqiqotlari ham shu kabi ishlar sirasiga kiradi. Soʻz(aniqrogʻi leksema) gapning qurilish ashyosi boʻlganligi sababli uning valentliklari soʻzga hamisha hamroh boʻladi va gap qurilishiga bilvosita boʻlsa hamki taʼsir etadi. Chunki bizning nutqimiz davomli boʻlib, uning birliklari oʻzaro birin-ketinlikda joylashadi.

Soʻz valentliklari soʻzga ergashgan, tobelashgan qismlar sifatida uning oldidan joy oladi. Bunda ham turkiy tillarning sintaktik oʻrinlashish qonuniyati, yaʼni oldingi soʻzning tobeligi, keyingi soʻzning hokimligi saqlanadi.

"Soʻz valentliklari" deyilganda soʻzning maʼnoviy bogʻlashuv aʼzolari (semantik valentlik aktantlari) tushuniladi. Har bir soʻz(leksema) oʻziga xos bogʻlashuvga ega boʻlib, oʻzining ichki maʼnoviy belgilari asosida u yoki bu turdagi soʻzlar va grammatik shakllar bilan kengaytirilishni yohud izohlanishni, aniqlanishni talab etadi. Soʻz valentligining gap qurilishiga tadbiqi masalasi frantsuz tilshunosi L.Tenber ishlarida yorqin aks etdi. S.D.Katsnelson tomonidan 1936 yilda tilshunoslikka "valentlik" tushunchasi olib kirilgan boʻlsa, undan keyingi oʻtgan davr mobaynida atama xususida ham va nazariya xususida ham bir qancha yangi tadqiqot va qarashlar paydo boʻldi. Gap tarkibidagi ishtirok etuvchilarning amaliy va noamaliy mavqeini belgilash borasidagi nazariyalarning paydo boʻlishi ham maʼlum darajada valentlik nazariyasining oʻzbek tilshunosligida taraqqiy etishiga turtki berdi deyish mumkin. Soʻz bogʻlashuvi soʻzning maʼnosi tomonidan belgilanishi va nutqda voqelanishi sababli tilshunoslikda soʻzning maʼnoviy hamda sintaktik bogʻlashuvi (semantik va sintaktik valentlik) ancha munozaralarga ham sabab boʻldi. Mazkur ilmiy izlanish ham sintaktik bogʻlashuvni

lisoniy (ma'noviy) bog'lashuvning nutqdagi voqelanishidir deb baholovchi talqinlarga tayanadi. Ma'noviy bog'lashuvda so'z o'zining lug'aviy ma'nosi imkoniyatlarini ko'rsatish uchun so'z shakllarni o'ziga biriktira olish qobiliyatlarini namoyon etadi. Bu xususiyatni avvalo fe'l bo'lmagan muallim, boy, yaxshi, yozdi kabi so'zlar misolida aniqlashtirmoqchi bo'lsak, ularning quyidagi tur so'zlar bilan kengayish imkoniyatlarini kuzatishimiz mumkin:

1. Sifat yoki sifatlovchi so'zlar bilan: yaxshi muallim, qobiliyatli muallim, katta muallim, mohir muallim.
2. Miqdoriy so'zlar bilan: ikki muallim, uchtdan muallim, to'rtala muallim.
3. Fan, o'rin-joy, vaqt belgisi ma'nolarini bildiruvchi so'zlar bilan: adabiyot muallimi, qishloq muallimi. Hozirgi davr muallimi...
4. SHu kasbdagi shaxsga aloqador bo'lgan narsa-buyum, belgi-xususiyatni ifodalovchi so'zlar bilan: muallim kitobi, muallim xonasi, muallim turmush tarzi, shuningdek, muallim san'atkor, muallim yozdi, muallim xursand bo'ldi, muallim jamoatchi kabi. Bu kabi m u a l l i m so'zidan oldin va keyin kela oladigan so'zlar bilan birika olish m u a l l i m so'zining ma'noviy bog'lashuvi(semantik valentligi)dir. Ya x sh i so'zi o'zidan keyin kelgan ot va fe'llar bilan birika oladi: yaxshi bola, yaxshi kitob, yaxshi ko'rdim, yaxshi eshitdim. Qiyoslash ma'nosini yuzaga chiqarganda bu so'z o'zidan oldin chiqish kelishigidagi ot yoki olmosh bilan kengayishi mumkin: olmadan yaxshi, bundan yaxshi kabi. Endi misol uchun boy leksemasini olaylik. O'zbek tilining izohli lug'atida "boy" so'zining uch asosiy ma'nosi ko'rsatiladi:

1. Kishi kuchidan foydalanish hisobiga boylik, dunyo orttirgan, badavlat, davlatmand. Boy odam.
2. Iqtisodiy jihatdan mustaxkam hech narsadan kamchiligi va muhtojligi yo'q, hamma narsadan badastir, to'kis, badavlat.
3. Tarkibida, ixtiyorida, bag'rida kerakli va foydali narsalar ko'p, mo'l. Aslida bu yerda uch ma'no haqida emas, ikki ma'no turi to'g'risida gapirish o'rinlidir;

1. Ma'lum ijtimoiy mavqe xususiyatiga ega bo'lgan shaxs.

1) 2. Tarkibida biror narsaning, moddaning ko'pligini ifodalovchi sifat. Birinchi ma'nodagi "boy" leksemasining bog'lashuvi muallim so'zi bog'lashuvidan deyarli farq qilmaydi. Ikkinchi ma'noda esa narsaning, moddaning nomi + ga + boy: molga boy, temirga boy, nonga boy, mevaga boy, hamma narsaga boy va hokazo tarzida bo'ladi. Natijali faol harakatni ifodalaydigan "ko'di" fe'l-leksemasining bog'lashuvi yuqoridagi so'zlar valentligidan ko'ra kengroqdir. Odatda tilshunosligimizda bunday so'zlarning quyidagi tur bog'lashuvlari qayd etiladi: bajaruvchi: 1.ega (agens): Men ko'rdim. Salim ko'rdi.

2) manba (ob'ekt): Men kinoni ko'rdim.

3) payt (temporal'nost'): Bugun Karim kinoni ko'rdi,

4) o'rin (lokalis): Bugun Karim kinoni maktabda ko'rdi.

5) xolat: Karim bugun maktabda kinoni erinmay ko'rdi.

6) usul, vosita: Karim bugun maktabda kinoni televizor orqali ko'rdi.


7) sabab-maqсад: Salim bugun maktabda atayin bu kinoni do'sti bilan erinmay ko'rdi.

Ko'rinib turibdiki, qanday turdagi so'zlar bilan birika olishi to'laligicha so'zning lug'aviy ma'nosiga bog'liq. So'z bog'lashuvlarida so'zning lug'aviy ma'nosini oydinlashtiruvchi ashyolar aks etadi. So'z ma'noviy bog'lashuvining nutqda voqelanganligi so'z ma'nosiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, "o'qi" fe'li Salim maktabda o'qiydi va Salim maktabda bu kitobni o'qiydi gaplaridagi birinchi holatda «o'qimoq» fe'li o'timsiz ma'noda bo'lib, bajaruvchining nima bilan shug'ullanishini(holatini) ifodalagan bo'lsa, ikkinchi gapda o'timlilik kasb etib, faol harakatni ifodalamoqda. Bu fe'lning harakat yoki holat ma'nosi manba bog'lashuvining nutqda voqelanlanmaganligi (kitobni o'qiydi) va nutkda voqelanmaganligi bilan bog'liq. Turli so'zlar o'z ma'nolari zaminida har xil valentliklar bo'lishini talab etadi. Xususan, o'timli fe'llar tushum kelishigi shaklidagi vositasiz to'ldiruvchi bo'lib keladigan bo'lakni talab qilsa, harakat fe'llari jo'nalish yoki chiqish kelishigidagi harakatning manbai, boshlanish nuqtasi yoki chegarasini ifodalovchi so'z-shakllarni taqozo etadi. Maqomat(istiqomat) fe'llari esa o'rin-payt kelishigidagi so'z - shakl bilan kengaya oladi. Ma'lumki, tilshunoslikda tushum kelishigi bilan shakllangan vositasiz to'ldiruvchining

o'zni tadqiq etilgan va ba'zan belgisiz vositasiz to'ldiruvchining gapdagi bosh bo'lakka tenglashtirilishi ham kuzatiladi. A.A. Salkalamanidze esa (murur)harakat fe'llari huzurida kelgan o'rin holini o'timli fe'llarga tobelangan vositasiz to'ldiruvchi bilan teng holatda ko'rib, quyidagi xulosani chiqaradi:

1.E.Kurilovich fikrlariga zid ravishda makon kelishiklari dastlabki vazifasida (hol ma'nosida) boshqaruvchi shakllar sifatida faoliyat ko'rsatadi va fe'l leksik ma'nosini ochuvchi valentliklarining zarur elementiga aylanadi.


2. Harakat va o'rin-joy fe'llarida hol (mustaqil ma'no bilan bog'lanuvchi shakl) hamda to'ldiruvchi (boshqariluvchi shakl) orasidagi qarama-qarshilik yo'qoladi. Bu fe'llarda to'ldiruvchi hol ma'nolariga ega bo'ladi. So'zning ma'noviy valentligi vazifasida qanday turdagi so'zlar kelishining zarurligi va nozarurligi faqat bir omil so'zning lug'aviy ma'nosi bilangina belgilanadi. Murur fe'llari harakat chegaralarining belgilanishini talab qiladi. Istiqomat(holat) fe'llari o'rin-joyini, faol harakat esa manbani o'ziga "chaqiradi". SHuning uchun so'zning ma'no valentliklarini zaruriy (obligator) va nozaruriy (fakultativ) kabi ikki turga ajratish odat tusiga kirgan. So'z valentliklarini zaruriy va nozaruriy turlarga ajratish shartli, albatta. Lekin so'z valentliklarining barchasi ham so'z ma'nosiga nisbatan bir xil mavqelarni egallamasliklari mumkin. Misol uchun "ko'rmoq" sezgi fe'li birinchi navbatda shaxs tomonidan nima ko'rganligini, ikkinchi o'rinda nimani? qaerda? ko'rganganligini, keyin esa qachon? kim bilan ko'rganligini va hokazo tomonlarni ravshanlashtirishga harakat qiladi. SHu sababli bu fe'lga aloqador valentliklar quyidagi darajalanish qatorini tashkil etadi:



SHuningdek, zaruriylik yoki nozaruriylik sezgi fe'llarining boshqa turlari, xususan, eshitmoq, hidlamoq, yemoq kabi so'zlar valentliklari orasida ham uchraydi. Eshitmoq so'zining qanday? so'rog'iga javob bo'luvchi valentliklari (yaxshi

eshitmoq, tez eshitmoq) kim? so'rog'iga javob bo'luvchi valentliklaridan ko'ra nozaruriydir. Chunki kim? so'rog'iga javob bo'luvchi so'zshakl nutqiy sharoit uchun xoslangan. «Eshitmoq»ning ma'noviy valentliklari qatorida zaruriy valentlik sifatida «men», «sen», «u» kabilar mavjud emas. Bu so'zlar «eshitmoq» bilan shakllanuvchi gapni hosil qilish uchun zaruriy valentlik bo'lib hizmat qiladi. Bu bilan aytish mumkinki, «eshitmoq» gap markazi bo'lishi uchun «men», «sen», «u» kabi gapning konstruktiv bo'laklariga extiyoj seziladi. Predmet ma'nosidagi so'zlarning nozaruriy valentliklari qanday? qachon? so'rog'iga javob bo'lib kelsa, kimi? nimasi? so'roqlariga javob bo'luvchilari zaruriylik(obligatorlik) kasb etishi mumkin. So'zlarni zaruriy yoki nozaruriy turlarga ajratish yohud, umuman, so'z valentliklari (leksemalarning ma'noviy bog'lashuvi) haqida gap borganda tahlil doirasiga ko'proq fe'l so'z turkumi jalb etilmokda. Sababi fe'llarda bog'lashuvlik hodisasi keng ko'lamda shakllangan, ammo bu xususiyat fe'llar uchungina xos degani emas. Chunki tilning ma'lum sathidagi biror birlik, muayyan xususiyatga ega bo'lar ekan, bu xususiyat shu sathning boshqa birliklariga ham u yoki bu darajada aloqador, tegishli bo'ladi.

Tilshunoslikda boshqaruv bog'lashuvdan oldinroq tadqiq etila boshlangan, shuningdek, boshqaruv dastlab fe'lning xususiyati deb tan olingan edi. Keyingi tadqiqotlar ko'rsatdiki, boshqarish nafaqat fe'llarga, balki ot, ravish, son kabi turkum so'zlar uchun ham taalluqli ekan. Ot (keng manoda) bog'lashuvda "oldingi" valentliklar "keyingi" valentliklardan farqlanadi. "Oldingi"lar zaruriy, "keyingi"lar esa nozaruriy hisoblanadi. Bu holat tasodifiy emas, chunki so'z ma'noviy bog'lashuvining nutqda voqelashuvi sintaktik " hokimlik-tobelik" (keng manodagi "aniqlovchi-aniqlanmish") bilan bog'liqdir. Gap bog'lashuvini voqelantiruvchi so'z hokim, valentlik so'zlar esa tobelik holatida keladi. Masalan, ye **d i m** nimani? (oshni) qachon? (bugun) qaerda? (uyda) – (kim)nima bilan? yoki qanday? (qoshiq bilan, (yolg'iz) ukam bilan). Bu yerdagi oshni, bugun, uyda, qoshiq bilan(ukam bilan) so'zlari (tobe so'zlar) aktantlardir.



Ot bog'lashuvida otdan (keng ma'noda) oldin kelgan so'zlar keyingi so'zga tobelanadi: katta boy (qanday boy?), molga boy (nimaga boy?) birikmalarida "boy" hokim, oldingilari esa tobe sanaladi. SHu sababli ot bog'lashuvida oldingi valentliklarni so'z valentliklari sirasiga kiritish to'g'riroqdir, chunki bunda keyingi oldingini emas, oldingi keyingining valentligi mavqaida bo'ladi. *Mol - dunyoga boy kishining ko'zi to'q bo'ladi* gapida m o l d u n y o g a juft so'zi boy so'zining valentligi ekanligiga shubha yo'q, lekin b o y so'zi kishi so'zining valentligimi yoki kishi so'zi boy so'zining valentligimi? Bu munozaralidir. Turkiy tillar umumiy qonuniyatiga ko'ra b o y k i sh i birikmasida "kishi" boy so'ziga nisbatan hokim, boy tobedir. SHu bilan birga turkiy so'z birikmalarda bosh so'z bilan tobe so'z munosabatlarining ikki tomonlamaligi, ya'ni so'zning xokimligini ifodalovchi ma'noviy, morfologik va sintaktik omillarga so'zning tobeligini ta'minlovchi semantik, morfologik, sintaktik vositalar mos kelishini hisobga olsak, *mol dunyoga boy kishi* birikmasida nafaqat kishi so'zi boy so'zi valentligining tobelanishini, balki o'z navbatida b o y sifat leksemasining ham o'zidan keyingi so'zni hokim mavqega ifoda etayotganligini ko'ramiz. Bunda *boy kishi* birikmasidagi keyingi so'zning zaruriy bog'lashuvi oldingi so'zning nozaruriy bog'lashuvi bilan uyg'unlashadi. SHunday bo'lsa ham, biz «so'z valentliklari» yoki «so'z ma'noviy bog'lashuvining voqelantiruvchilari» atamaları ostida so'zning o'zidan oldingi valentliklarini nazarda tutamiz. CHunki so'z birikmalaridagi tobe-hokimlik munosabatlari masalasi uzil-kesil hal etilmas ekan, bu turkiyshunoslikda rasm bo'lib qolgan "keyingisi-hokim", oldingisi tobe talqiniga amal qilish davom etaveradi.

Yuqoridagi izohlardan ko'rinib turibdiki, "so'z valentliklari" tushunchasi "so'z birikmasi" «hokim so'z», «tobe so'z» tushunchalari bilan to'qnashadi. Bu tasodifiy emas, chunki so'zning ma'noviy bog'lashuvi (semantik valentlik) nutkda sintaktik bog'lashuvi(sintaktik valentlik) shaklida voqelanadi. So'zlarning sintaktik bog'lashuvi esa so'z birikmalarida gavdalanadi. Tilshunosligimizda qayd etilgan quyidagi birikmalar mustaqil so'z birikmalari sanaladi: oshni yemoq, bugun yemoq, uyda yemoq, ukam bilan yemoq, tez yemoq kabilar, hozirgi o'zbek tilshunosligining talqiniga ko'ra yuqoridagi beshta so'z birikmasini o'z ichiga olgan gap quyidagicha nutqiy birikmalarga ajratiladi:

oshni + yedim, uyda + yedim, ukam bilan + yedim, tez + yedim. Nutqiy iqtisod qonuni asosida birikmalar jamlanishidan hosil bo'lgan bu gapdagi "e d i" ni qavsdan tashqariga chiqarsak, shunday holatga duch kelamiz: (*Bugun + oshni + uyda + ukam bilan + tez*) yedim. Bunga o'xshash masala xususida ishimizning birinchi bobida ham to'xtab o'tgan edik.

Ma'lumki, gapda mujassamlangan axborot o'zining nutqiy qiymati(ahamiyati) jihatidan tema va rema kabi ikki asosiy qismga ajraladi hamda gapdagi barcha so'zlar (bo'laklar) tema va rema qismlar atrofida birlashadi. E'tibor bering: an'anaviy sintaktik tahlilida ham gap ega tarkibi, kesim tarkibi va grammatik jihatdan bog'lanmagan bo'laklar kabi uch turga ajratilib, ikki bosh bo'lak - ega va kesim atrofida birlashtiriladi. Bularning barchasi nutqda shakllanuvchi gaplarning so'z birikmalarining bir-biriga qo'shish asosida emas, balki ma'lum markaziy bo'laklarni kengaytirish asosida vujudga kelishi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Xuddi shu fikrni frantsuz tilshunosi L.Ten'erning sintaktik tahlilida ham uchratishimiz mumkin. Ushbu tahlil gapni bo'laklarga ajratishda so'z bog'lashuvi nuqtai nazariga tayanadi. Bunda gap bo'laklariga so'z ma'noviy bog'lashuvining sintaktik voqelanishi jihatidan qaralib, ular muayyan bog'lashuv markazlari asosida ajratiladi. Hokim va tobe bo'laklar o'zaro pog'onali tarzda joylashgan bo'lib, ma'lum bog'lashuv markazi bo'lgan so'zning o'z tobelari bilan gap qurilishida bir o'rinni egallashi aniqlanadi.

So'z valentliklari so'zning semantik valentligi bilan uzviy aloqada bo'lganligi sababli hamrohlari yoki soylari sifatida qaraladi. Hokim so'z(semantik valentlik) imkoniyati asosida kengaytiriluvchi so'z qo'llangan barcha holatlarda(o'rinlarda) uning so'z valentliklari hamrohlar sifatida so'z bilan birga kela oladi.

Gapdagi bo'laklar masalasiga (WPm)ning valentligi asosida yondashish ularning mohiyatan ikki turini farqlash imkonini berar ekan, yuqorida tavsiflangan so'z valentliklari gap bo'laklari bo'la olmasligi shubhasizdir.

"So'z valentliklari" tushunchasi tilshunoslik uchun yangi bo'lmasa-da, "gap valentliklari" fanimizdagi yangi tushunchalardan biri hisoblanadi. Aytish lozimki, "gap


kengaytiruvchilari" atamasining asl mohiyati Ovrupo tilshunosligidagi "so'zning mustaqil valentliklari" yoki rus va o'zbek tilshunosligida tan olinayotgan so'nggi davr mahsuli "determinantlar" tushunchalaridan keskin farq qiladi, chunki bizning "gap valentliklarini gapning eng kichik qurish qolipi (GKk) va uning valentligi (gap valentligi = gap k+q so'z) haqidagi ta'limotga asoslanadi. Gapning eng kichik qurilish qolipi va u bilan bog'liq bo'lgan GQqning kengayishi tushunchalari nisbatan yangi tushunchalardir". Hozirgi davrning peshqadam sintaktik nazariyalarini o'zida mujassamlashtirgan, gap qurilishiga doir semantik-struktur sxemalarni targ'ib etuvchi rus tili grammatikasida ham an'anaviy gap bo'laklaridan faqat bosh bo'laklar e'tirof etilayotgani, gap kichik qurilish qolipining gap sintaksisining uzviy tadqiqotlaridan biri sifatida ajratilganligi sintaktik talqinlarni tobora chuqurroq o'rganishga kirishilayotganligidan dalolat beradi. Rus tilshunosi Z.D.Popova "Sintaksisni gap bo'laklarisiz o'rganish mumkinmi?" nomli maqolasida V.A Beloshapkovaning: «Gapning semantik-struktur sxemalari haqidagi yangi tushunchalar an'anaviy gap bo'laklarini inkor etmaydi, balki ularning struktur qurilishi uchun yangi asoslar beradi»- degan fikrini keltirgan edi. Darhaqiqat, o'zbek tilshunosligiga gap bo'laklari masalalarini ham sistem nazariy yo'nalishda, eng kichik gap markazini bir cho'qqili va ko'p bosqichli valentlik nuqtai nazaridan tadqiq etish, ramzli gap va uning gap valentligi munosabatlari asosida talqin qilishga bo'lgan ehtiyojlarni keltirib chiqarmoqda.

Gap valentliklari deyilganda, gapga tashqaridan qandaydir yangi bir narsa kiritilayotgani emas, balki an'anaviy gap bo'lagining ma'lum turlari gapda tayanch(konstruktiv) mavqeda kelayotganligi tushuniladi. GQq ning kengayishiga sistemaviy yondashuv, ishimizda(tajriba sifatida) tana sezgi fe'llari xususidagi ayrim masalalarni oydinlashtirish sirasida yuzaga chiqmokda. L.Ten'erning sintaktik tahlil usullari mantiqan nihoyasiga yetkazish, ya'ni gapda markaz(yadro) va qurshovni farqlash, so'z bog'lashuvi(valentligi) qoidasi taqdimotini nutqiy hosila bo'lgan gap qurilishiga izchillik bilan tadbqiq qilish kabilar turkiyshunoslarga, o'zbek tili mutaxassislariga ham gapning eng kichik qurilish qolipini ajratish va shu qolipga tayangan holda gapning sintaktik tahliliga yangicha munosabatlar asosida yondashish imkoniyatini beradi.

GQq(Gap qurilish qolipi) atov(nominativ) birlikka kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlari qo'shilgan shakldir. Bu qolip o'zbek tilshunoslari tomonidan (ABk) ramzi bilan ko'rsatilmokda. GQq deyilganda, voqeanishi(nutqi) alohida bir sodda gap bo'lib kela oladigan qurilma tushuniladi. Sistemaviy tilshunoslik namoyandalarining ishlarida bu qurilmaning shakli(andazasi) uch xil tarzda ko'rsatib kelinmoqda: 1. Atov birlik+kesimlik ko'rsatkichlari. 2. (ABKk). 3. (WPm).

Bu ramz va uning mohiyati o'zbek tilshunosligida to'la ommalashmaganligi, shuningdek, tilshunosligimizda til-nutq sathlarini farqlashga kirishilayotganligi, nutqiy hosilalar zaminidagi lisoniy umumiyliklarni farqlash asosida ish ko'radigan sistemaviy yondashishning endigina shakllanayotganligini hisobga olgan holda (WPm) ramzi va uning mohiyatini sharhlab o'tishga to'g'ri keladi. Chunki bu ramzning mohiyat-mazmuni ishning tayanch nuqtalaridan bo'lib hisoblanadi.

Bu o'rinda ot(keng ma'noda) va fe'l-kesimlar morfologik shakllarining o'zaro keskin farqlanishini alohida uqtirib o'tmoq kerak. Bunga quyidagi paradigmani misol sifatida keltiramiz.



Bu paradigmadagi gaplarda kesimlik -man (1), edim (2), -aman (3), - dim (4) shakllari bilan ifodalangan. Bu qatordagi gaplar o'ziga xos qurilishi bilan emas, balki kesimning ot (1;2), fe'l (3;4)lar bilan ifodalanganligi, kesimning hozirgi-kelasi zamon aniqlik maylida (1;3) yohud shu maylning aniq o'tgan zamoni (2;4) morfologik vositalarda kelishi kabilar bilan farqlanadi.

Bu morfologik kategoriyaning umumiy ma'nosi "Tasdiq/inkor + mayl+ zamon + shaxs/son" ma'nolarining butunligidan, barqaror yig'indisidan hosil bo'ladi. Umuman, (WPm) ramzi bilan berilgan GQqda atov va kesimlik kategoriyasi ma'nolari lisoniy ma'nolar tarzida ifodalangan bo'ladi.

(WPm) ramzining ifodalanmishi mohiyatan lisoniy bo'lib, falsafiy tabiatiga ko'ra umumiylik (mohiyat, imkoniyat) sifatida mavjud bo'ladi, nutqda esa xususiylik (hodisa, voqea, oqibat) tarzida sodda gaplar orqali yuzaga chiqadi. Demak, (WPm) lisoniy bosqich birligi bo'lib, bevosita kuzatishda berilgan gaplar esa shu qolipning hosilalari hisoblanadi. [WPm] nutqda sodda gapning «o'zagi»ni, asosini tashkil etadi va ixcham ifodalanishda(so'z valentliklari bilan kelmagan holatlarda) gapning kesimiga to'g'ri keladi. GQq tushunchasi gap valentliklarining mohiyatini aniqlash uchun zamindir. Gap valentliklari jumla tarkibidagi shunday zaruriy bo'laklarki, ular gapning umumiy lisoniy ma'nosi bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Biz [WPm] tarkibidagi /W/ning turli turkumdagi so'zlar bilan ifodalanishi haqida gapirib o'tdik. O'z-o'zidan tushuniladiki, har bir so'z turkumining, xususan, har bir so'zning valentliklari o'ziga xos bo'lishi mumkin.

So'z gapning qaysi o'rnida kelmasin, o'z valentliklarini birga ergashtirib kelish xususiyatiga ega. Masalan, o'qituvchi so'zi nozaruriy valentliklar oladi: *Ikki mohir adabiyot o'qituvchisi*. Bu yerdagi ikki, mohir, adabiyot so'zlari o'qituvchi so'zi uchun nozaruriy valentliklar bo'lib, bular o'qituvchi so'ziga uning qaysi bo'lak bo'lishidan qat'i nazar ergashib kelaveradi. Dalillar sifatida o'qituvchi so'zining ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol hamda undalma bo'lib kelgan holatlarini kuzatib ko'raylik:

1. Ikki mohir adabiyot o'qituvchisi tanlov g'olibi bo'ldi.
2. Tanlov g'oliblari ikki mohir adabiyot o'qituvchisi edi.
3. Ikki mohir adabiyot o'qituvchisini tanlovda qatnashish uchun Toshkentga yubordik.
4. Bularga ikki mohir adabiyot o'qituvchisining mehnati ko'proq singgan.
5. Ikki mohir adabiyot o'qituvchisi, biz sizni umid bilan tanlovga yo'llayapmiz.

Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi so'zining qaysi bo'lak bo'lib kelishi uning nozaruriy valentliklarni qabul qilishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

So'z valentliklarining gap(nutq) tarkibida shakllanishi ularning gap valentlikligiga bo'lgan munosabatini ham aniqlashtirilishini talab etadi.

Gap valentliklari so'z valentliklaridan farqli o'laroq gapdagi muayyan so'zga emas, balki gap asosiga aloqadordir. Aniqrog'i, gap valentliklari aslida [WPm] tarkibidagi umumiy

ma'nolarning nutkda xususiylikka aylanishi bilan bog'liqdir. [WPm] ga kiruvchi umumiy (umumlashma) lisoniy ma'nolar esa, yuqorida eslatilganidek, atovlik va kesimlik (tasdiq/inkor, mayl/zamon, shaxs/son) ma'nolari birikuvidan iboratdir. Bu ma'nolar o'zbek tilining lisoniy bosqichida gap tushunchasiga bog'lanadi va qanday so'z gap vazifasida kelmasin, u atovlilik va kesimlilikning ma'noviy ko'rsatkichlariga ega bo'lishi shartdir. SHu ma'nolardan birortasi qo'llanmasa, gapning mazmuniy mohiyati to'liqsizlanadi. Misol uchun, O'qituvchiman gapini olib ko'raylik. Bu gapdagi o'qituvchi o'z lug'aviy ma'nosi bilan atash sathini muayyanlashtirib kelgan bo'lsa, gap tarkibidagi tasdiq/inkor (O'qituvchiman\O'qituvchi emasman), zamon (O'qituvchiman/O'qituvchi edim), shaxs-son (O'qituvchiman /O'qituvchisan (-miz) kabi kesimlik kategoriyasi shakllari va ma'nolarining alohida so'zlar(bo'laklar) bilan aniqlashtirilishi ushbu gapning kengayish imkoniyatlaridir. O'qituvchiman gapini biz qisqa tarzda imkoniy gap deyishga haqlimiz. CHunki unda (WRm) ning shakllanish qobiliyatlari mavjud. SHu asosda uni kengaytiradigan bo'lsak, dastlab gap shaxs-son ma'nosini oydinlashtiruvchi egaga extiyoj sezadi:

Men o'qituvchiman.

Ikkinchi bosqichda zamon ma'nosining aniqlashtirishi zarur bo'ladi:

Men hozir o'qituvchiman.

SHundan so'ng (payt ma'nosi makon bilan uzviy aloqador bo'lganligi sababli) o'rin ma'noli valentlikga zarurat seziladi: Men hozir maktabda o'qituvchiman. [Pm] tarkibida bo'lgan va umumiy modallik tizimiga xizmat qiladigan tasdiq/inkor va mayl ma'nolari ham turli vositalar bilan (modal so'zlar, kirish bo'laklar kabi) aniqlashtirilishi mumkin: *Albatta, men hozir maktabda o'qituvchiman.* Bu gapdagi *m ye n* , hozir, maktabda, albatta kabi so'zlar gap valentliklari sirasida qaraladi. CHunki gap valentliklari so'zning lug'aviy ma'nolari bilan emas, gapni shakllantirishga xizmat qiluvchi kesimlik ko'rsatkichlarining umumlashma ma'nolari bilan aloqador bo'ladi. O'qituvchi so'zi *m ye n* olmoshi bilan faqat aniqlovchi-aniqlanmish bog'lanishida (mening o'qituvchim. tarzida) bog'lashuvga kirisha oladi, "O'qituvchiman" gapi esa "men" bilan

kengaytirilishni talab qiladi va uni talab qiluvchi vosita soʻz emas, balki kesimlik tarkibidagi I shaxs birlik maʼnosidir. Oʻzbek sistem-nazariy tilshunosligi talqiniga koʻra soʻz valentliklari gapning mohiyat qurilishiga oʻz bogʻlashuv markazlari orqaligina tortiladi. Boshqacha aytganda, soʻz oʻz maʼno munosabatiga koʻra birikuvchanlik asosida soʻz qabul qilsa, gapning umumiy grammatik mazmuniga asosan boshqa soʻzlar bilan bogʻlashuvli munosabat hosil qilish GKqning bosh xususiyati boʻlib hisoblanadi.

2-bob boʻyicha xulosa

Valentlik tilshunoslik nuqtai nazaridan ham kimyoviy elementlardagi kabi bogʻlana olish imkoniyati sifatida soʻzlararo birikuvlarni namoyon qiladi va bu albatta oʻzbek tilining sintaksis sathida muhim oʻrin tutadi.

Umuman olganda, koʻrilgan holatlarda soʻz valentliklari bilan gap valentliklari nutqda uygʻunlashadi, muayyan qoʻshilishni tashkil etadi. /WRm/ ning lugʻaviy qismida sifat, son, ravish kabi turkumlar kelganda ham shu holat saqlanadi. Demak, har doim (WRm) qolipdagi (W) oʻrnini feʼl egallaganda, gapdagi umumiy valentliklar miqdori gap valentliklari va soʻz valentliklarining yigʻindisiga teng boʻlavermaydi. Nutqimizda voqelangan gaplarning tarkibiy qismlari sifatida mavjud boʻlgan boʻlaklar soʻz valentliklari yoki gap valentliklari boʻlishi mumkin, baʼzan ular ham soʻz, ham gap valentligi boʻlib, bir-biriga tenglashish, oʻtish va aylanish imkoniyatini beradi.

Xullas, bevosita nutqiy voqelik sifatida shakllanuvchi gap tizimidagi boʻlaklar(anʼanaviy gap boʻlaklari) [WRm] valentligining izchil kengayish tizimida mohiyatan soʻz valentliklarini va gap valentliklarini tashkil etadi.

Gapda mustaqil mavqe egallamay, gapga oʻz bogʻlashuv markazlari orqali kiritiluvchi va shu markazlardagi leksemalar maʼnolarini kengaytirishga xizmat qiluvchi soʻzlar (boʻlaklar) soʻz valentliklaridir.

GKq-[WRm] ning umumlashma grammatik tabiatini ochish uchun xizmat qiluvchi, nutqda kesimlik kategoriyasi koʻrsatkichlari (shaxs-son, payt, oʻrin va mayl-

modallik ko'rsatkichlari) ma'nolarini oydilashtirilishi asosida yuzaga chiquvchi gap bo'laklari gap valentliklaridir.

Gap tarkibi tayanch-konstruktiv bo'laklar, ya'ni gap valentliklari yoki ularning soyalari sifatida nutqqa kiritilgan so'z valentliklarining oddiy arifmetik yig'indisiga teng bo'lmasligi mumkin. Ba'zan ular o'zaro yaqinlashish, birlashish, teng kelish holatlarini o'zida aks ettiradi.

III BOB

SEZGI FE'LLARINING STILISTIK-PRAGMATIK TALQINI

3.1. Fe'l leksik ma'nosining sintaktik valentlikka ta'siri

So'zlarning, aniqrog'i, fe'llarning valentlik imkoniyati muammosi hozirgi tilshunoslikda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Rus, ingliz, nemis, frantsuz va boshqa tillar materiallari asosida bu sohada bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Bu masalani o'rganishga qiziqish bejiz emas, albatta. Fe'lning semantik keng ko'lamligi, konstruktiv jixatdan imkoniyatga boy ekanligi uning deyarli ko'p gaplar tarkibida markaziy o'rinni egallab kelishida namoyon qiladi.

Fe'lning leksik va sintaktik valentlik imkoniyati serqirra va ko'p aspektli bo'lib, ko'pgina tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb qilib keladi. Lingvistik adabiyotlarda bu muammoga oid qimmatli fikrlar aytilgan bo'lsa-da, sintaktik valentlik tushunchasini ta'riflashda olimlar o'rtasida bir xil nuqtai nazarining yo'qligi bu masalaning hamon o'rganilayotganligidan dalolat beradi. Sintaktik valentlik fe'ldan boshqa turkum so'zlarning ham o'ziga xos shakl va mazmuniga ko'ra o'zaro munosabatlashishini ko'rsatadi. Fe'l valentligi esa fe'lning harakat vat obe so'z shakllari bilan birikishi bo'lib, fe'lning ma'noviy bog'lashuv xususiyati asosida yotuvchi lug'aviy ma'no bilan belgilanadi.

Ma'lumki til sistemasi elementlari bir-biri bilan zich aloqa va munosabatda amal qiladi. Ayniqsa, til elementlarining semantik va sintaktik jihatlari orasidagi aloqa buning tipik namunasidir. SHu nuqtai nazardan Yu.D.Apresyanning quyidagi fikri diqqatga sazovordir: «Insonning ichki(psixik) xolati fiziologik tarzda namoyon bo'lganidek, tekst elementlarining «ichki» xolatlari(ma'nolari) ularning bevosita kuzatish mumkin bo'lgan sintaktik xulq-atvorida namoyon bo'ladi. SHuning uchun til elemenntlarining sintaktik xulq-atvoridagi o'xshashlik va farqli jixatlarni aniqlar ekanmiz, ularning semantik o'xshashliklari va farqlari haqida ob'ektiv xulosalar chiqarishimiz mumkin» .

Darhaqiqat fe'l ishtirokida yasalgan muayyan tipdagi konstruktsiya fe'l leksik ma'nosining «sintaktik xulq –atvori» sifatida namoyon bo'ladi. Demak, nutqda ko'plab

qo'llanuvchi bunday konstruktsiyalarning hosil qilinish qonuniyatlarini ochish uchun ularning struktura yadrosini tashkil etuvchi fe'llarning leksik ma'no xususiyatlarini aniqlash lozim bo'ladi.

Fe'l konstruktsiyalarning sistemasini aniqlash uchun esafe'ning qanday leksik-semantik gruppaga mansubligini aniqlash kerak, chunki o'xshash ma'nolari asosida bir gruppaga birlashgan fe'llar ayni bir xil sintaktik ma'noni ifodalovchi sintagmatik modellar hosil qiladi.

Aytilgan fikrimizni oydinlashtirish uchun esa turli leksik-semantik guruhga mansub fe'llar ishtirokida hosil qilingan konstruktsiya tiplarini ko'rish kifoya.

Kishi tana sezgi a'zolari bilan bog'liq bo'lgan ma'noviy guruhga mansub ko'rmoq, eshitmoq, yemoq, sezmoq, hidlamoq kabi fe'llar valentlik nuqtai nazaridan vositasiz to'ldiruvchini talab qiladigan ikki valentli bo'lib, hosil qilingan konstruktsiyalarda o'z ma'noviy xarakteriga ko'ra konkretlashtiruvchi bo'lak – subʼektga joy ochadi. Bunday fe'llarning boshqa konkretlashtiruvchi bo'laklarni talab qilganining sababi ular semantik jixatdan yetimsiz, kamomatli bo'lgani bois ifodalagan ma'nolarning o'z holicha, boshqa bo'laklar bilan ham to'liq bo'lishiga, kamomatini to'ldirilishiga ehtiyojmand ekanligidadir. Ular odatda $S + S + V$ – subʼekt + subʼekt + predikat modelida ish ko'radi: *O'quvchi tovushni eshitdi. Bola issiqni sezdi. Qiz gulni hidladi* kabi.

«Natijasi mavhum ijroni ifodalovchi» harakat fe'llarining «ob'ektlarni izlash» semali fe'llarda o'rin ma'noviy valentligi aniq reallashmaydi. Bu ham bevosita ularning ma'nosiga bog'liqdir. Chunki ushbu fe'l ma'nosidagi ijro natijasi mavhum bo'lganligi sababli ularning birikuvlari cheklangan.

«Og'iz bo'shlig'idagi harakat»(ya'ni yemoq, ichmoq ...kabi) semali fe'llar uchun o'rin ma'nosida ifodalanayotgan harakatlar faqat og'iz bo'shlig'ida amalga oshiriladi. Ular uchun lokalis valentligi zaruriy emas, u faqat ayrim sintaktik qurilmalarda aniq reallashishi mumkin: *Io'lda donlab yurgan so'fitor'g'aylarni ko'rdim. Anxor yoqasidagi tollar orasida ikkita oq echki o'tlab yurardi* (Oybek). *Devor tagida katta sigir boshvog'ini yerga yoyib, bemalol beda kavshardi* (Oybek). Bu misollardagi keltirilgan

donlab, o'tlab, kavshardi fe'llari og'iz bo'shlig'ida yuzaga keladigan harakatni ifodalovchi fe'llar hisoblanib, ularning ham o'ziga xos valentlik imkoniyatlari mavjud.

Bunday fe'llarning aksariyatiga o'rin valentligi harakat fe'llarining ayrim birlashtiruvchi semali fe'llar uchun zaruriy, ba'zilar uchun esa fakultativ xarakterdadir.

Mazkur birlashtiruvchi semali fe'llarda ham ob'ekt aktanti bilan bevosita bog'liq holda amalga oshiriluvchi xarakatlar ifodalanadi. Sub'ekt xarakati ob'ektga o'tadi, u bilan vositasiz birikadi. Ushbu semantik gurux farklovchi semalariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. «Egulikni va suyuqlikni iste'mol qilish» semali. 2. «Muayyan jismlarni og'izda so'rish» semali.

3. «Tishlar faolligida bajariladigan xarakatlar» semali.

1. «Egulikni va suyuqlikni iste'mol qilish» farqlovchi semali harakat fe'llari. Ushbu fe'llar ma'nosida jonli mavjudotlarning turli yegulik va suyuqliklarni iste'mol qilishi ifodalanadi. Bular ikkiga bo'linadi:

a) «**yeguliklarini iste'mol qilish**» semali;

b) «**suyuqliklarni iste'mol qilish**» semali.

1)«**insonlarga xos iste'mol qilish**» semali fe'llar: *yalamoq, totmoq, chaynamoq, yemoq, ovqatlanmoq, oshamoq, yutmoq, yamlamoq.*

Yalamoq -«tilini tegizmoq; til bilan og'izga olmoq». *Bol ushlagan barmogini yalaydi* (Maqol).

Totmoq - «mazasini ko'rmoq», «ovqat yemoq». *Ammo ularni ektirgan odam endi hech vaqt bu mevalardan totib ko'rolmaydi* (P.Qodirov).

Chaynamoq - «maydalab yemoq». *U qo'lida vilkasi, og'zidagi ovqatni chaynay-chaynay, oshxonadan balkonga chiqdi* (P.Qodirov).

Yemoq - «iste'mol qilmoq, ovqatlanmoq». *O'n besh yoshlar chamali, qizil duxobadan kiyingan ko'rkam bir o'olon palov yeb turar edi* (A.Qodiriy). *To'ybeka nari-beri oshini yeb tashqariga chiqib ketdi* (A.Qodiriy).

Ovqatlanmoq (ob'ekti o'zida) - «ovqat yemoq, rizqlanmoq». *Nigor oyim Mansurni qolgan osh bilan ovqatlantirar, ora-chora gapga ham quloq solganday bo'lardi* (A.Qodiriy).

Oshamoq - «oshamlab yemoq». *Yaxshi bo'lsang, yasharsan, nasibangni osharsan* (Maqol).

Yamlamoq - «tomoqdan o'tkizmoq; yemoq». *O'sha odam ovqatni chaynamay yutshiga harakat qiladi* (T.Malik).

Mumlamoq - «chaynamay, milki bilam ezib yutmoq». *Ovqatni yamlab yutmoq.*

Ko'rinadiki, sinonim hisoblangan mazkur fe'llar orasida nozik ma'no farqlari mavjud. CHunki bu ikki fe'l o'rtasida voqelanuvchi fe'llar darajali, gradual munosabat hosil qiladi. *Totmoq* oz mikdorda, *oshamoq* ko'p mikdorda yemoqni bildiradi. So'zlashuvda *olmoq*, *tushirmoq*, *urmoq* fe'llari ham ishlatiladi. *Tushirmoq*, *urmoq* ko'p mikdorda yeyishni anglatadi va ular ma'lum darajada salbiy bo'yoqqa ega. *Olmoq* esa, aksincha, ijobiy (sertakallufona) bo'yoqli fe'l xisoblanadi. Qiyoslang: *Voy, ablah, palovni paqqos tushirding-ku! Taomdan oling, mehmon.*

2)«**Hayvon va parrandalarga xos iste'mol qilish**» semali fe'llar: *chimdimoq*, *o'tlamoq*, *kavshamoq*, *g'ajimoq*, *mujimoq*, *kemirmoq*, *donlamoq*, *cho'qimoq*.

CHimdimoq - «chimdib yemoq». *SHunga qaramay, bemalol o't chimdir, hangrab, shataloq otar edi* (O.Muxtor).

O'tlamoq (ob'ekti o'zida)- «o't-ko'katlarni yemoq». *Anhor yoqasidagi tollar orasida ikkita oq echki o'tlamoqda* (Oybek).

Kavshamoq - «ko'p marta chaynamoq». *Devor tagida katta sigir boshvog'ini yerga yoyib, bemalol beda kavshardi* (Oybek). Bu fe'l *kavshanmoq* (ob'ektsiz) shaklida

yegulik iste'mol qilishni emas, balki uy hayvonlariga xos bo'lgan harakatni bildiradi. Qiyoslang: *U yerda qorni katta, targ'il bir sigir kavshanib yotardi* (N. Aminov). *Kavshamoq* fe'li shaxsga nisbatan qo'llanganda xurmatsizlik ifodalanadi: «*Bo'ldimi*», - deb so'radi *kampir lunjini to'ldirib ovqat kavshayotgan kuyovidan* (N.Aminov).

G'ajimoq - «kemirib; yemoq, mujimoq». *Itga bersang oshingni, itlar g'ajir boshingni* (Maqol).

Mujimoq - «kemirib yemoq». *Burchakdagi tokchada qattiq non mujib o'tirgan sichqonchani ko'rdi* (Yo.Akram).

Kemirmoq - «tish bilan qirib, yemoq». Suyakni *kemirmoq*. *Mujimoq* va *g'ajimoq* fe'llari ba'zan odamga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Bunda gapdagi salbiy ma'no kuchaytirilgan bo'ladi. *Kemirmoq*, asosan, kemiruvchi hayvonlarga nisbatan qo'llanadi.

Donlamoq (ob'ekti o'z ichida) - «don terib yemoq». *Yo'lda donlab yurgan so'fito'rg'ayyaarni ko'rdim*.

Cho'qimoq - «tumshuq bilan olib, yemok». *Jo'jalar tinmay chiyillashar, don cho'qishar edi*.

b) «**suyuqliklarni iste'mol qilish**» semali fe'llar: *ho'plamoq*, *ichmoq*, *simirmoq*, *sipqirmoq*, *bo'shatmoq*.

Ho'plamoq - «bo'lib-bo'lib ichmoq». *Kingkong do'ndiqcha keltirgan qahvadan bir-ikki ho'plab, oz-moz tin oldi* (S.Qahhor).

Ichmoq - «suyuqlikni ichiga yutmoq». *SHuni oz-ozdan choy o'rnida ichirib tursangiz, anginani oldini oladi* (F.Usmonova). *Moshho'rdani maza qilib ichib oldik*.

Ichmoq va *ho'plamoq* fe'llarining ob'ekt valentliklarida farq mavjud bo'lib, *ichmoq* har qanday holatdagi suyuqlikni ifodalovchi so'zlar bilan birika oladi (jumladan, *suyuq ovqat*, *dorilar* va h.k.). *Xo'plamoq* esa o'ta issiq yoki sovuq (muzdek) holatdagi, asosan, ichimliklarni biddiruvchi so'zlar bilan birikadi. Bu ichimliklarning denotati bilan bog'liq

bo'lib, muzdek sovuq yoki bug'i chiqib turgan qaynoq ichimliklarni birdaniga ichish mumkin emas, ularni faqatgina ho'plab ichish maksadga muvofiq bo'ladi.

Simirmoq - «ikki lab orasidan ichga tortib ichmoq». *Abdurahmon bir stakan pivoni simirib, yana to'ldirdi-da, sigaret yondirdi* (U.Azim).

Sipqirmoq - «bir tortishda ichmoq». *.U kumush bilan bezatilgan qimiz kadidan jiydagulli piyolaga qimiz quyib, sipqordi* (P.Qodirov). Bu fe'lning *sipqormoq* shakli faol qo'llanadi. U xaqda Alisher Navoiy «Muxokamat ul-lug'atayn» asarida ham ma'lumot beradi .

Bo'shatmoq(bo'shamoq I fl.ort.n.) -«suyuqlikdan xoli qilmok, ichmoq». *Pet'ka aroqni bir ko'tarishda bo'shatdi-da, og'ziga sosiska tiqdi* (G'.Raxmatullaev). *Ikkovlari, yana bittadan qadah bo'shatib, noz-ne'matlardan bir oz totishgan bo'lishdi* (S.Qahhor). Bu fe'l «eguliklarni iste'mol qilish» harakatini ham ifodalashi mumkin: *ovqatingni yeb bo'ldingmi? - kosangni bo'shagndingmi!* Ammo nutqda u ko'pincha «ichmoq» ma'nosida qo'llanadi.

2.«**Muayyan jismlarni og'izda so'rish**» semali fe'llar: *so'rmoq, shimimoq, emmoq*.

So'rmoq - «lab orasiga olib siqib ichga tortmoq, yutmoq». *O'g'lim, singlingga sutini so'rdirib ko'y* (so'zlashuv). *CHol trubkani so'rgancha kulib turgan ko'zini qisib qo'ydi* (H.Po'latov).

SHimmoq -«Og'iz bo'shligida so'rmoq». *Bunisi oq mum, harom emas –shimsa ham bo'ladi* (L.Qahhor).

Emmoq - «sut so'rib ichmoq». ... *ochiqqan buzoqcha sigirni uzala tushib emishga ham tayyor* (N.Aminov).

3.«**Tishlar faolligida bajariladigan harakatlar**» semali fe'llar: *g'ijirlatmoq, chaynamoq, tishlamoq, qopmoq*.

G'ijirlatmoq(g'ijirlamoq fl.ort.n.) -«tishlarni bir-biriga ishqamoq». *Ko'zlari qisilib, tishlarini g'ijirlatib oldi* (S.Qahhor).

Chaynamoq - «jismlarni qayta-qayta yumshatmoq». *SHunday obro'li majlisda saqich chaynab o'tirishga uyalmaysizmi?* (N.Aminov).

Tishlamoq - «tishlari orasiga olib qismok, uzmoq». *Mushuk bu bolasini tishida tishlab katta qildi* (O'.Hoshimov).

Qopmoq - «tishlab olmoq, tishlab zarar yetkazmoq». *It qutursa, egasini qopadi* (Maqol).

Xullas, o'zbek tilidagi harakat fe'llari semantik maydonining og'iz bo'shlig'idagi harakatlarni ifodalovchi leksik semantik guruhi farqlovchi semalariga ko'ra shakl va mazmun tomoniga ega bo'ladi. Komponentli tahlil natijasida mazkur birlashtiruvchi semali fe'llarning quyidagi farqlovchi semalari aniqlandi:

1. «Egulikni va suyuqlikni iste'mol qilish» semali harakat fe'llari:

a) «eguliklarni iste'mol qilish» semali:

1)«insonlarga xos iste'mol qilish» semali;

2)«hayvon va parrandalarga xos iste'mol qilish» semali.

b) «suyuqliklarni iste'mol qilish» semali.

2.«Muayyan jismlarni og'izda so'rish» semali harakat fe'llari.

3.«Tishlar faolligida bajariladigan harakatlar» semali harakat fe'llari.

Mazkur tahlil asosan «emoq» fe'li bilan bog'liq harakat ma'nosidagi fe'llar valentliklari bo'lib, ular paradigmasining ayrim jihatlarini oydinlashtirdi. Inson tana sezgi fe'llari guruhiga kiruvchi ko'rish, eshitish, teri orqali sezish va hidlash fe'llarini ham yuqoridagi kabi tahlilga tortish, valentlik imkoniyatlarini o'rganish mumkin va bu navbatdagi vazifalarimizdan hisoblanadi.

O'zbek tilidagi ko'rish, eshitish, sezish va hidlash kabi harakat fe'llarining semantikasini tadqiq qilish quyidagi xulosalarga olib keldi:

Tilshunosliqdagi ko'plab tadqiqotlarda «sezgi fe'llari» tushunchasi ostida keng ma'nodagi predmetlarning bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga bo'lgan harakati tushunilgan. Aniqki, harakat fe'llarini bunday tavsiflash nisbatan cheklangan xarakterga ega. Negaki, bunda borliqdagi boshqa harakatlar o'z aksini topmaydi, harakatning xususiy ko'rinishlari umumiylikka birlashmaydi. SHunga ko'ra, sezish bilan bog'liq «harakat fe'llari» maydoniga dastavval borliqdagi faol (dinamik) harakatlarni ifodalovchi fe'llarni kiritish zarur. «Harakat» ma'nosiga umumiylik (invariant) sifatida yondoshib, uning namoyon bo'luvchi turli xususiyliklarini (variantlarini) hisobga olgan holda mazkur semantik maydondagi fe'llarni tasnif qilish to'la maqsadga muvofiq. Demak, harakat fe'llari borliqdagi jamiki jonli (ayrim vaziyatlarda jonsiz) mavjudotlarning turli yo'nalishlarda va usullarda amalga oshirgan harakatlarini ifodalaydi. Ular nafaqat bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga bo'lgan siljish, ko'chishni, balki hayotiy zaruriyat bo'lgan barcha harakatlarni- ob'ektlarni qurish, kesish, qirqish, ulash, shaklini o'zgartirish, yaratish, buzish, jismoniy ta'sir etish kabi «cheksiz» ko'rinishlar va mohiyatlarga ega bo'lgan harakatlarni ham anglatadi.

Harakat fe'llarining semantikasini o'rganishda, asosan, differentsial-semantik tahlil qilish usuli - komponentli tahlil usulidan foydalanildi. Bu yuqorida keltirilgan «emoq» fe'lining ma'noviy xususiyatlarini ochishda inson va hayvon-parrandalarga xos belgilar bilan qiyoslanishda ko'rildi. Ta'kidlash zarurki, so'z ma'nosini tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganish usuli ma'noning tarkibini, tuzilishini, aniqlashda eng asosiy va qulay usullardan biridir. CHunki bunda leksikaning sistem tuzilishiga asoslaniladi. Unda semantik mezon asosida ajratiladigan alohida leksik tizim (semantik maydonlar) tadqiqot uchun tanlab olinadi. Mazkur semantik maydonlarni komponent tahlil usuli orqali tekshirish natijalari asosida turli tillarning leksik-semantik sistmasini yaratish, shu orqali tillarning semantik xususiyatlarini aniqlash va ularni qiyosiy-tipologik tahlil qilish imkoniyati vujudga keladi.

O'zbek tilidagi harakat fe'llarini komponentli tahlil qilish natijasida ularning umumiy va xususiy jihatlari aniklandi.

Fe'llarda faol harakat ma'nosining vujudga kelishida orttirma nisbat ko'shimchasining ta'siri katta. Bu ko'shimcha ko'p hollarda holat semali fe'llarda harakat semasini vujudga keltiradi: *eshitmoq* (holat fe'li) - *eshittirmoq* (harakat fe'li); Bu tilshunoslikda sezgi fe'llariga xos kauzativlikni yuzaga keltiradi.

Harakat fe'llarining ob'ekt valentligi holat fe'llarining ob'ekt valentligidan tubdan farq qiladi. Chunki holat fe'llarining ob'ekt aktanti asosida ob'ekt valentligi va kauzativlik yuzaga keladi, harakat fe'llarida esa bunday emas.

Ob'ektli harakat fe'llari ob'ekt valentli mustaqil gapda deyarli vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi. Ob'ekt aktanti ob'ektli munosabatni yuzaga keltiradi, aniqrogi, ob'ektli fe'l grammatik ma'no qurilmasida qatnashadi, ya'ni ob'ektli fe'l harakatning vositasiz to'ldiruvchi ifodalaydigan ob'ektga yo'nalishini bildiradi. Ob'ektli harakat fe'llari uchun ob'ekt valentligi nozaruriy valentlik bo'lib, uning ifodalovchilari ma'nosidagi semalar muhim ahamiyatga egadir.

Harakat fe'llarining «ijro ifodalovchi» birlashtiruvchi semali fe'llarda ob'ekt valentligi nozaruriy valentliqdir. Zero, fe'l sememada ifodalangan harakat natijasida predmet-ob'ektlar yaratiladi, barpo etiladi, ob'ektlar bir-biriga biriktiriladi, bog'lanadi yoki aksincha, bir-biridan ajratiladi, ularning holati, shakli, sathi, joylashuviga o'zgartirish kiritiladi. Shunga ko'ra harakat bevosita o'tayotgan, ya'ni agentsning ta'sirida o'zgartirilayotgan ob'ektning gap qurilmasida qatnashishi oldindan belgilangan bo'lgani uchun nozaruriy ahamiyat kasb etadi. Natijali ijroni ifodalovchi fe'llarning ob'ekt valentligini ularning farqlovchi semalari belgilaydi. Ya'ni ular aynan farqlovchi semalariga ko'ra o'ziga xos valentlikka ega bo'ladi.

3.2. Sezgi fe'llarining stilistik va pragmatik ma'no doirasi

Fe'llarning semantik jihatdan guruhlash va bu muammo ustida ilmiy ish olib borish (rus tilshunosligida ham, turkiy tillarda ham) ko'p tilshunos olimlar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Lekin tekshiruvchilarning bu murakkab mavzuga yondoshishlari hamda yaratilgan tasniflarida yagonalik hali-hanuz yo'q. Masalan, L. M. Vasil'ev o'zining «Semanticheskie klassi russkogo glagola» nomli doktorlik dissertatsiyasida fe'llarni

semantik jihatdan 4 katta guruhga ajratib tekshiradi, chunonchi, I-glagoli chuvstva (sezish fe'llari, sezgi ifodalovchi fe'llar), II-glagoli intellektual'noy deyatelnosti (intellektual - fikriy faoliyatini ifodalovchi fe'llar), III-glagoli rechi (nutq fe'llari); IV-glagoli povedeniya(xulq-atvor fe'llari). Bu guruhlar o'z ichida yana kichik guruhlarga ajratiladi. L. M. Vasil'ev o'z avtoreferatida bu bo'limlarga 10 mingga yaqin fe'l shaklini guruhlashtirilganini qayd etadi. Bu jiddiy tasnif mustahkam logik-grammatik fundamentga ega bo'lib, hamma tillarning fe'llariga mos keladi. Ayrim ishlarda bu tasnif ba'zi o'zgarishlar bilan qo'llanadi.

Turkiy tillardagi fe'llarning semantik guruhlarini dastlab N. K. Dmitriev belgilab chiqqan edi. U fe'llarni 4 semantik guruhga ajratadi: I-glagoli rechi (nutq fe'llari), II-glagoli chuvstvennogo vospriyatiya(sezgi fe'llari, sezgi ifodalovchi fe'llar), III-glagoli deyatelnosti (faoliyat ifodalovchi fe'llar) va IV-glagoli dvijeniya (harakat fe'llari).

Prof. 3.Budagova Ozarbayjon tilidagi fe'llarni 5 semantik guruhga ajratib tekshiradi: I-nutq fe'llari, II-sezgi ifodalovchi fe'llar, III-faoliyat ifodalovchi fe'llar, IV-harakat ifodalovchi fe'llar, V-holat ifodalovchi fe'llar.

G.Kuliyev o'zining «Fe'l boshqaruvi» mavzusida yozgan nomzodlik dissertatsiyasida fe'llarni 10 xil semantik guruhini ajratadi: I-glagoli deystviya (ish-faoliyat fe'llari), II-glagoli chuvstvennogo vospriyatiya(sezgi ifodalovchi fe'llar), III-glagoli rechi(nutq fe'llari), IV- glagoli zreniya (ko'rish fe'llari), V-glagoli mishleniya(tafakkur fe'llari), VI-glagoli dvijeniya (harakat fe'llari), VII-glagoli, virajayumiye psixicheskoe sostoyanie(ruhiy holatni ifodalovchi fe'llar), VIII-zvukopodrajatel'nie glagoli(tovushga taqlid so'zlardan yasalgan fe'llar), IX-obraznie glagoli(taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llar), X-glagoli oboznachayumiye yavleniya prirodi(tabiat hodisalarini aks ettiruvchi fe'llar) va hokazo. Bu guruhlarning deyarli barchasida sezgi ifodalovchi, oxirgi tasnifda ko'rish fe'llari ham ajratilganki, bular bevosita inson tana sezgisi bilan bog'liq fe'llarni anglatadi hamdla ularning qo'llanishi, stilistik va pragmatik jihatlarini ham tahlil etish zarurligini ko'rsatadi.

Bu kichik umumlashma tavsifdan shunday xulosa chiqarish mumkinki, borliqdagi yuz beradigan turli harakatlar, holatlar, sezish va ta'sirlanish hodisalari benihoya turli tuman, murakkab va «mayda»dir. Bunday hodisalarning deyarli ko'pchiligi tilda fe'l shakllari orqali ifoda etiladi. Bas, shunday ekan, ularning leksik-semantik guruhlarini aniqlash, xillarga ajratish ham o'z-o'zidan katta qiyinchiliklarga olib keladi va xilma-xilliklarni keltirib chiqaradi.

Bizning fikrimizcha, tekshirishni qulay yo'l bilan olib borish uchun guruhlar sonini ko'paytirmay, dastlab yirik guruhlarini belgilash, ya'ni, avval fe'llarni ikki katta guruhga — harakat va holat fe'llari guruhiga ajratib, so'ng ularni o'z ichida yana mayda guruhlariga ajratgan holda tekshirish maqsadga muvofiq. Ayrim hodisalar, masalan, nisbatlanish hodisasining holat ma'nosini harakatga aylantirishi yoki munosabat ma'nosini hosil qilishi (ko'rdi — ko'rishdi kabi) yoki «ikki marta holat bildirishi» (sezdi — sezdirdi kabi) «biridan-biriga o'tib turishlar» guruhlashtirish masalasida har xilliklar tug'diradi, masalani murakkablashtiradi.

Fe'llarning semantik guruhlarini belgilab chiqish va har bir guruhni chuqur o'rganish, yuqorida aytib o'tganimizdek, alohida ilmiy ishlarning ob'ekti bo'lib, maxsus tadqiqotni talab etadi.

Bu ishda (murakkabliklarni hisobga olib) fe'llarni uchta katta guruhga ajratishni ma'qul deb o'yladik: I - harakat fe'llari, II - holat fe'llari va III - munosabat fe'llari. Bu guruhlariga kiritilgan fe'llarning ayrimlari sof semasiologik planda emas, semantik-stilistik va pragmatik planda analiz qilingani ma'qul deb hisoblaymiz. Ayniqsa fe'llarning stilistik-kontekstual(so'zlashuv va badiiy) ma'nolari ko'pchilikka qiziqarli, albatta.

Lingvistik adabiyotlarda bu guruhlariga oid har xil fikrlarga duch kelamiz. Masalaning juda murakkab, keng, har tomonlama tekshirish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatish uchun yana bir misol keltiramiz. G. V. Stepanova «Leksiko-semanticheskaya gruppa glagolov-ponimaniya» nomli maqolasida fikrlashni bildiruvchi birgina *ponimatb* so'zining ma'no xususiyatini to'la yoritib, fe'llarning ichki tomondan ham juda murakkab va chuqur

ekanligini yaqqol ko'rsatib berdi. Fe'ning ko'pma'noli xususiyatini aniqlashda u bir necha xil usullarni ko'llaydi: *ponimatъ* fe'lini so'z birikmasi tarkibida kelgan holatida olib tekshiradi (buni u so'z ma'nosini aniqlashdagi eng xarakterli usullardan biri deb ta'kidlaydi), nisbat shakllarini olgan holatida analiz qiladi va bu fe'l ma'nosi bilan uning sinonimlaridagi semantik ottenkalarini qiyoslab chiqadi, sinonimik variantlarning ma'no jihatidan ayrim o'rinlarda yaqinlashishlarini, birlashishlarini va ayrim o'rinlarda uzoqlashishlarini faktlar bilan ko'rsatadi, asoslaydi. Bundan tashqari, sinonim variantlardagi nisbat o'zgarishi holatlarini ham hisobga oladi. So'ng *ponimatъ* fe'lini uning stilistik variantlari (ularnng stilistik xususiyatlari) bilan taqqoslab chiqadi(*uyasnitъ, urazumetъ, raskumekatъ, raschuxatъ, usechъ*). Bunday tekshirish usuli o'zining murakkabligiga qaramay so'z ma'nolarini konkretlashtirishda yaxshi natijalar beradi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Harakat fe'llari. Harakat konkret(harakatlantiruvchi ob'ektlar ko'rinib turgan) bo'lishi mumkin va nokonkret (harakatlantiruvchi ob'ektlar yashirin tusda) bo'lishi mumkin. Asosan insonga xos harakatlar ko'zda tutiladi.

A. Konkret(aktiv) harakat(nisbatan olinmoqda) ko'z, og'iz harakatlarida harakatlantiruvchi ob'ektlar yaqqol ko'rinib turadi. 1. *Ko'z harakati*. Bu harakat asosan, 1) «ko'rmoq» fe'li bilan beriladi. Ko'rish harakatidagi turli xarakter va maneralarni ifodalashda esa har xil grammatik va stilistik usullardan foy-dalaniladi. Ko'rish, asosan, jonli predmetlarga oid. Ko'rish bosh va ko'zni harakatlantirish orqali bajariladi. Ko'rish harakatidagi turli holatlar (temp, intensivlik va ekspressivlik bilan aloqador holatlar)ni berishda ham asosan fe'llar ishlatiladi: «ko'rmoq» - bu fe'l yolgiz holda qo'llanganda ko'rish harakatidagi barcha usullarni, undagi (yuqorida ta'kidlanganidek) maneralarni ocha olmaydi. Buning uchun tilda leksik vositalar “qaramoq”, morfologik vositalar (ko'rib, qarab ravishdoshlar, ko'makchi fe'llarni qo'llash), sintaktik-stilistik usullar (ibora yoki tasviriy yo'llar bilan berish) ishga solinadi. «Ko'r» fe'lining o'zi ko'makchilik vazifasida kelganda ko'rish harakatidan ham ko'ra ko'proq boshqa ma'nolar kelib chiqadi.

2) Ko'rish usullaridagi turliklarni, ma'no nozikliklarini ifodalashga xizmat etuvchi ko'makchi fe'llarning o'zi ham ayni vaqtda mustaqil fe'l vazifasida kelib «ko'rmoq» yoki “qaramoq” fe'lga sinonimik variant bo'la oladi. Mas, **qarab qo'ymoq** — **qaramoq**: La'li Bo'ronbek bilan yonma-yon **borayotgan ayolga qaradi**. Ayol manzilga yetay deganda, begona otliqlarga **ko'zi tushdi**. «Ko'zi tushdi» iborasi “ko'r” fe'li harakatini badiiy ifodalash uchun ishlatiladi. Bu kabi ko'rish bilan bog'liq fe'llarning frazeologik lug'atda bir necha turlarini misol sifatida keltirish mumkin.

«Qaramoq» fe'l shakli asosan shaxsning ko'rish harakatini ifodalashda “qarab qo'ymoq”, “ko'z tashlamoq”, “ko'z yugurtirmoq”, “boqmoq” fe'llari mustaqil hamda nomustaqil ma'noli fe'llar bo'lishi bilan birga, ko'rish harakatidagi tezlikni, intesivlikni ifodalovchi fe'llar deyish ham mumkin. Bularga ravishdosh shakllari –ib, - gani, sifatdoshning -gan kabi mustaqil fe'llar bilan qo'llanuvchi ko'rsatkichlari ham birikib kela oladi.

3) Ko'rish paytidagi — ko'rish harakati bilan bog'liq bo'lgan tana, gavda harakatlari ham ravishdoshlar orqali ko'rsatiladi, mas, CHoyni keyin o'zingiz bafurja ichaverasiz, — dedi u burilib qarab Oyshabonuga (H. G'ulom). ...Ular dalaning o'rtasidan, qandaydir yashil sim tortilganini ko'rib sekinlashdi. U gandraklab kelib G'ulomjonning chiroyli ko'zlariga tikildi (M. Ismoilij).

Ko'rishdagi ayrim holatlarni ifodalashda yana shunday ravish va ravishdosh shakllari qo'llanadiki, ular ko'rish uslubidan ko'ra ko'proq sub'ektning (yozuvchining) harakatni bajaruvchi shaxsga bo'lgan modal-ekspressiv munosabatlarini anglatishga xizmat etadi: Soli sovuq **bo'zrayganicha** chiqib ketdi (M. Ismoilij). ...Kulaladan bir-ikki og'iz gap so'radi-yu, qo'lidan ushlab, yo'lakka baqraytirib tikkalab qo'ydi.

5) Ko'rish harakatidagi passivlik, sustlik tempini ifodalash uchun qo'llanuvchi maxsus fe'l shakllari yo'q. Ular, ko'pincha, analitik, tasviriy shakllar orqali ko'rsatiladi: Orif aka majolsizlanganidan yo'lni **bazo'r ko'rardi**(A. Muxtor). SHu kuyi ancha turgach, **xira ko'rib** bo'lsa ham uyi tomon intildi(Said Ahmad). Ko'rish bilan bog'liq bo'lgan «baqraymoq», «bo'zraymoq» fe'llari ko'rish usulini belgilamaydi balki, bular ko'rish harakatini bajaruvchining salbiy maqsadini yoxud biror bemaqsad harakatni ifodalashda

qo'llanadi: ...Uning uzoqdan **baqrayib** qarashi, hatto, yo'l bo'yida birovning diqqatini jalb qilmaganiday, ... (A. Qahhor). Tonga qadar shipga termulganicha bo'zrayib yotdi.

Hayvonlarning ko'rish harakatlarini ifodalashda ham deyarli yuqoridagi fe'llar ishlatilishi kuzatiladi. Faqat qush-parrandalarning ko'rishiga xoslashgan fe'llardan biri «boqmoq», mas, Burgut uzoqdan, baland qoya ustidan, emaklab borayotgan quyonga boqib turardi. Lekin keyingi «boqmoq» fe'lining funktsiyasi kengaygan. Ular badiiy tasvir vositasi sifatida shaxslarga, hayvonlarga xos qarashlarni ham ifodalab keladi.

«Ko'rmoq» fe'li ma'nosining ko'chishida, o'zga ma'no kasb etishida kontekstning, undagi kelishik, ko'makchi shakllarining(boshqaruv shaklining) roli katta. Mas, tishlab **ko'rdi** — tush **ko'rdi** — uyini **ko'rdi**.

CHog'ishtiring: tishlab **ko'rdi(ko'makchi ma'no)** — tush **ko'rdi(mavhumlik)** — uyini **ko'rdi(aniqlik)**. Bu kabi fe'llarning hammasi «daraja ma'nosining kontekstual ifodalanishi»(A. M. Peshkovskiy) mumkinligini ham ko'rsatadi. Buning konkret ko'rinishlari, valentlik aspektidagi ifoda shakllari o'zbek tilshunosligida hali ishlangan emas. Yuqoridagi misollarda «ko'rmoq» fe'li o'z asl ma'nosida ham qo'llangan, ko'makchi ma'nosida ham.

B. Konkret(aktiv) harakatning ko'z orqali bajarilishi qisqacha ko'rib o'tildi, ammo nokonkret(passiv) harakat qaysi sezgi orqali anglashilishi mumkin deyilsa, albatta ko'zga nisbatan quloq orqali ekanligi yaqqol bilinib turadi. CHunki u asosan, «eshitmoq» fe'li bilan beriladi. Biroq eshitish organi bo'lgan quloq yaqqol ko'rinib turuvchi sezgi a'zosi bo'lsa-da, u insonlarda eshitish uchun harakat bajarish imkoniyatiga ega emas. Bunday harakatlar bilvosita amalga oshirilishi mumkin, xolos. Quloq ham inson bosh qismida joylashgani munosabati bilan unda bosh harakati orqali tinglashga tomon harakat seziladi. Masalan, 1) Bosh harakati: *Saida buni eshitib boshini quyi solib jim qoldi* (A. Qahhor). Bunday xatti-harakat oddiy (ekspressivsiz) ifodada «engashdi», «boshini engashtirdi» tarzida berilaveradi. Lekin badiiylik (badiiy uslub), o'zgacha ifoda (perifraza) nuqtai nazaridan bu xatti-harakat «boshini quyi soldi» shaklini oladi. Bu iborada «solmoq» fe'lining qo'llanishi mantiqan («quloq solmoq»ning asl lug'aviy ma'nosiga nisbatan) nomuvofiq hisoblanadi, ya'ni, solmoq aslida — yuqoridan pastga

tushirilgan bir predmetni boshqa predmet ichiga kiritmoq, qo'ymoqdir. Ammo U eshik tirqishidagi teshikdan ichkariga quloq solardi jumlasida u quloq bilan birikib "eshitmoq"ning sinonimik xarakterini shakllantiradi.

Bu fe'llarning xarakterli xususiyatlari shundan iboratki, ular majhullik nisbati shaklini, o'zlik nisbati, orttirma nisbat shaklini qabul qila oladilar. Ayrimlarida esa o'zlik nisbati ma'nosi tasviriyl usul bilan (o'z so'zini qo'llash yo'li bilan) ifodalanadi.

Qayd etilgan fe'llar kontekstda, badiiy tilga ko'chgan ma'nolarda keladi. Mas, *Otam yetimlarning so'zini jon qulog'ida eshitdi. Mungli kuyni tinglagan sari yuragim tirnalar edi* kabi.

Bu kabi harakatning bajarilish sifatini ochishda, uning xarakteristikasini belgilashda, sub'ektning harakat jarayonidagi vaziyatini aniqlashda turli (leksik, morfologik) vositalardan va stilistik usullardan foydalaniladi: Masalan, maxsus aniqlovchiga yaqin yordamchi so'zlar qo'llanadi: ko'makchi fe'llar (tinglab ko'rdi, eshitib oldi, eshitib qoldi, eshitib chiqdi) va boshqalar.

«Eshitmoq» fe'li maqollar tarkibida kelib turlicha sintaktik ma'nolar kasb etishi mumkin: Kar eshitganini, ko'r ushlaganini qo'ymas.

Ta'kid ma'nosi uchun «ko'rmoq» fe'li o'z so'zi bilan birga qo'llanadi: O'z ko'zim bilan ko'rdim. Bunda ma'lum darajada pleonazm hodisasi ko'rinadi. CHunki ko'rish harakatini faqat ko'z bajaradi. Qiyos qiling: O'z qulog'im bilan eshitdim.

Ko'z bilan bajariladigan boshqa harakatlar: **qaramoq, qarab turmoq, ko'zi tushmoq, suzilmoq, ko'z qirini tashlamoq, baqraymoq** va boshqalar.

Insonning ko'z harakati ba'zan ekspressiv-emotsional holat, ob'ektga bo'lgan modal munosabat tufayli bajariladi. Mas, **ko'zini suzmoq, ko'z qirini tashlamoq** va b. Lekin ob'ektga bo'lgan munosabatga qarab (harakatning yo'naltirish maqsadiga ko'ra) bu fe'llar ekspressiv-emotsional ma'nosini yo'qotishi ham mumkin. Bunday ma'nolar kontekstda konkretlashadi: *Bola televizorga termulganicha uxlab qoldi. Kitobga termula-termula topganlarim shu bo'ldi* kabi.

Ko'z harakatini ifodalashda qo'llanuvchi analitik (tasviriyl) shakllar ham uchrashini yuqoridagi ayrim masollar orqali ham ko'rish mumkin: **qarab turmoq, ko'zi tushmoq, ko'ziga qaramoq.**

Demak, ko'z bilan bog'liq ba'zi xatti-harakatlar ham ma'lum ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

Yozuvchi asar personajlarining «xatti-harakat»larini umumiy bayonda yoki muallif izohida tasvirlaydi. Masalan, "ko'rmoq" muayyan o'rinda ko'rsatmoq funksiyasida qo'llansa, ma'lum o'rinda ko'rgazmoq vazifasida shakllantiriladi. Qiyoslang: *Hamma ekranda faqat Saidiyning o'zini ko'rardi, ammo sahna undan boshqalar ham borligini ko'rsatdi.* Keltirilgan misoldagi birinchi ko'rar insonning ko'z vositasini ifoda etsa, ikkinchi ko'rsatish predmet tomonidan bajarilishini ifodalaydi. Ijodkorlar bunday harakat yoki holatlarni ifodalashda turli ma'nodagi fe'llardan foydalanganliklari, shubhasizdir.

Turli (e'tiroz, g'azablanish, do'q, po'pisa kabi) psixologik ma'nolarni sub'ekt ko'z, bosh, qo'l harakatlari bilan ham ifodalaydi:— *Qo'ying, pashshadan fil yasamang!— Inobat qo'lini bir siltab Eshonovga qaradi. — Qara! Ho', qara!— deb Qambar boshini quyi solganicha yugurdi.*

Ko'rish, eshitish insonga xos harakatlardan sanaladi. Ko'rishni harakat deb aytilishiga sabab — bu jarayonni ko'z soqasi, ko'z qobig'i, qorachiq, tananing bosh ob'ektlari vujudga keltiradi. Ko'rish ham, eshitish ham — fikr ifodalash (kommunikativ aloqa) uchun bajariladigan maqsadli ifodali harakatdir. Bulardan tashqari, insonning og'iz va nafasi vositasida: puflash, tuflash, esnash, aksirish, yo'talish; og'iz vositasida chaynash, kavshash, so'rish, yutish kabi harakatlar bajariladi. Bular faqat tabiiy, jismoniy holatlar bilan bog'liq, ifoda ma'nosi yo'q.

Bu jihatdan fe'llardagi mayl kategoriyasini alohida ta'kidlash mumkin. Chunki mayl bevosita inson tafakkuriga bog'liq jarayon bo'lganligi uchun rang-barang bo'yoqlarda tovlanish xususiyatiga ega.

Ma'lumki, mayl ish-harakatning voqelikka munosabatini ifodalovchi kategoriya hisoblanib, fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish xususiyatini, imkoniyatini, ya'ni real voqelikka, sharoitga bog'liqligini ifodalaydi. Bunda ham bizning tahlil ob'ektimizga kirgan fe'llarning mayl-munosabat shakllari e'tiborga olindi. Fe'l mayllaridagi ana shu xususiyatlarni nazarda tutgan holda buyruq-istak maylining nutq vaziyati talabi bilan ifodalagan pragmatik ma'nolarini quyidagicha tasnif qilsa bo'ladi:

1. Ijobiy emotsionallik ifodalovchi pragmatik ma'nolar.

a).Ta'kidlash, o'qitish semasi:

Qulog'inglarda bo'lsin: buyuk kashfiyotlar - vaholanki, buyuk izchillik mevasidir.
(O'.Usmonov. «Girdob», 95-b.)

2. Qiziqish, so'rash mazmuni semasi:

Biz ham ko'raylik, balki olib qolarmiz.

3. Maslahat, iltimos semasi:

Bir maza qilib osh yeylik, vaqtimiz bekor ketmaydi.

4. Erkalash semasi:

Onang aylansin og'zingni och o'zim yedirib qo'yaman, qizginam! (O'.Hoshimov. «Ikki eshik orasi».)

5. Undash semasi:

So'zim qat'iy, ishim to'g'ri, u ham to'g'ri bajarganligimni eshitib olsin .

6. Duo-alqash semasi:

Umring uzun bo'lsin,ko'rganlaring ortingda qolsin, oshnam... (T.M. «CHorrahada qolgan odamlar».)

b). Salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan pragmatik ma'nolar.

1. Xijolat bo'lish, istihola semasi:

Ammo shirin tuyulib, pisanda qilmaganday bo'lmayin, hammasini yeb qo'yib tag'in, degan istihola bilan o'zini tiydi. («Girdob», 204-b.)

2. Zarda, do'q semasi:

Eshitib qo'ying, hatto qonunlar ham mutlaq emas, o'zgarib turadi.

3. Uzil-kesil, shart emas semasi:

Uni xatto hidlamasin, iskasa ham - o'nnglanishi qiyin.

4. Xavfsirash, gumon semasi:

Sulton, tag'in chayon chiqib chaqib olmasin, u oldiniga qichishtiradi.

5. Kesatq, kinoya semasi:

Tek qo'ying, u mehnat qilgan to'yib yeb olsin!

6. Norozilik, achchiqlanish semasi:

Mehnatni ular qilsin-u, foydasini siz ko'zlaysizmi?

Biz fe'lning birgina buyruq-istak mayli 1-,2-,3-shaxs birlik va ko'plikda ifodalanuvchi pragmatik xususiyatlariga e'tibor qaratdik, xolos. Bu kabi xususiyatlar nafaqat buyruq-istak maylida, balki predikativ birliklarning barchasida faol kuzatiladi. Bu kabi pragmatik ma'no uslub talabi bilan ham ifodalanishi yoki ba'zan tushunarliklik darajasiga qarab birgina so'z orqali to'liq mazmun kasb etishi mumkin. Ayniqsa, so'zlashuv usuli ikki va undan ortiq odamlar orasida bo'ladigan muloqotda keng qo'llaniladi. Bunda dialog katta rol o'ynaydi. SHuning uchun, bunday gaplar to'liqsiz shaklda bo'ladi. Ishlatilmayotgan gap bo'laklarining o'rnini nutq vaziyati yoki nozaruriy valentlik imkoniyatlari orqali to'ldirilib turiladi. Masalan, ***ko'rdingiz?***, ***eshitdingmi?***, ***yeymizmi?***, ***issiqmi?*** kabilarga ega, to'ldiruvchi singarilarni kiritish orqali ular to'liq bo'ladi. Nutq vaziyati, propozitsiya esa, bu jummalarni to'liq aytmaslikmumkinligini ham ko'rsatadi..

SHuningdek, *ko'rib bo'ldi, ovqatdan tatigan bo'ldi, gapga quloq solganday bo'ldi* kabi ifodalar ham so'zlashuvda ko'p ishlatiladi hamda fe'lga xos ma'noviy argumentlarni shakllatirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

3.3. 3-bob bo'yicha xulosa

Ishda semantik mezon asosida ajratiladigan alohida leksik tizim (semantik maydonlar) tadqiqot uchun tanlab olinganligini ta'kidlash zarur. Mazkur semantik maydonlarni komponent tahlil usuli orqali tekshirish natijalari asosida turli tillarning leksik-semantik sistmasini yaratish, shu orqali tillarning semantik xususiyatlarini aniqlash va ularni qiyosiy-tipologik tahlil qilish imkoniyati vujudga keladi. Ma'lumki fe'llar asosan o'timli hisoblanadi. Ammo bu hamma vaqt ham shunday degani emas. Kauzativ bo'lmagan o'timli fe'llarda o'timlilik ob'ekt bilan bog'lanib, holatning ob'ektga o'tishi bilan tugallansa, kauzativli fe'l xolatli ob'ektning sub'ekt ta'sirida boshqa bir xolat kasb etishi orqali reallashadi. Masalan: *isidi – isitdi* kabi.

Ma'lumki, paradigmatic munosabatdagi so'zlar orasida o'zaro oppozitsiya mavjuddir. Harakat fe'llari leksik-semantik guruhlarining ichki semantikasidagi fe'l sememalar paradigmatic munosabatida ham oppozitsiya (ziddiyat) kuzatiladi. Harakat fe'llari doirasida ziddiyatlarning asosan ikki turi mavjud:

a)teng qiymatli (ekvipolent): *yemoq - ichmoq, chimdimok - bo'shatmoq, yalamok - yutmoq.*

b)darajali (gradual): *shimimoq-so'rmoq -yutmoq; ho'plamoq - ichmoq -simirmoq - sipqarmoq va h. k.*

Bu esa o'zbek tilidagi sezgi harakati bilan bog'langan fe'llar orasidagi semantik graduonimiya va ular ma'nosining kuchayib borishiga ko'ra joylashtirish orqali talqin etilishini ham ko'rsatadi. Graduonimik munosabat ular orasidagi ma'noviy jarayon bilan uzviy bog'liq. Fe'llarning bu kabi ma'noviy xususiyatlari qatorida uning nutqiy ifodasi, mazmuniy qo'llanishi, boshqacha aytganda, pragmatik, stilistik xarakteri ham muhim rol o'ynaydi. Bu fe'llar, shu jumladan, biz tahlil qilishga uringan tana sezgisi bilan bog'liq fe'llarda ma'lum darajada uchrashi, shubhasiz. Umuman olganda, harakat fe'llariga

eshitish, ko'rishdan tashqari yana kulish, mimika, yig'lash, qarash fe'llarini, sezish kabi sezgi fe'llarini kiritish mumkin. Qarash fe'li hamda barcha sezgi fe'llari nokonkret(passiv) harakat ifodalovchilar doirasiga kiritiladi. Lekin fe'llarning fikr ifodalash, tinglovchi bilan muloqoti jarayonidagi ahamiyati nihoyatda yuqori hisoblanadi. Chunki rus tilshunoslaridan birining ta'biri bilan aytganda, fe'lda gapning "maketi" mujassamlashgan bo'ladi. Ana shu xususiyati uning predikativligi uchun asos bo'la oladi. Har bir gapning real borliq haqida biror xabar bayon qilishi, munosabat ifodalashi gap mundarijasining voqelik bilan bog'liqligini, aloqadorligini ko'rsatar ekan, unda fe'lning muayyan kategoriyalari reallashadi. Chunki gap mundarijasining voqelikka bo'lgan munosabati modallik, zamon va shaxs kategoriyalari orqali ifodalanadi. Bu grammatik vositalar predikativlikni yuzaga chiqarishda bevosita ishtirok etganligi sababli predikativ birliklar hisoblanadi. Ushbu birliklar morfologiyada so'zning biror qismi, ya'ni ko'pincha fe'l shakli sifatida o'z ifodasini topadi. Lekin tilda, hozirgi sistem yondashuv bo'yicha, ma'nodan shaklga tomon tahlil asosida yuzaga keladigan fikrdan ko'rinadiki, turli grammatik shakllar ma'lum xususiyatga ega bo'lishdan tashqari, gapning mazmunini batamom o'zgartirib yuborishi yoki birgina shakl orqali bir qancha nozik ma'nolarni ifodalay olishi holatlarini yuzaga keltiradi. Ushbu holat predikativ birliklarning nutq vaziyatiga bog'liq holda ifodalagan ma'no qirralarini jiddiy ko'rib chiqilishini talab qiladi.

UMUMIY XULOSA

Gap qurilishi tizimida ishtirok etuvchi va uning tarkibiy qismlari(strukturasi, bo'laklari) ni shakllanishi uchu nasos vazifasini o'tovchi inson tanga-sezgi fe'llari haqidagi nazariyalar tilshunoslikning morfologiya va sintaksisning valentlik nazariyasi asosidagi tadrijiy taraqqiyoti bosqichlarida turlicha ilmiy mezonlarga va nuqtai nazarlarga asoslanadi.

Fe'l turkumida uchraydigan o'zaro bog'lashuvlar, so'z valentligi va gap valentligi funktsiyasi tilning boshqa sathlarida bo'lgani singari voqelikdan, boshlanib, mohiyat chuqurligi tomon siljiy boradi. Biz buni fe'l markazli nutqiy gaplardan (jumla, so'zlamlardan - voqeliklardan) ularning mazmuniy-shakliy qoliplari (umumiylik) tomon

yo'nalishdagi ilmiy talqinlari rivojida ko'ramiz. So'nggi paytlarda vujudga kelgan gapning markazi va periferiyasi, ustki hamda ichki strukturalar, transformatsiya, lisoniy birliklarga xos bo'lgan bog'lashuv yoki valentlik haqidagi tushunchalar an'anaviy gap bo'laklari tushunchalarini yanada aniqlashtirish, ularga yangicha nuqtai nazarlardan qarash imkoniyatlarini beradi va xatto ularni so'z valentligi va gap valentligi yoki valentlikning o'ziga xos zaruriy va nozaruriy valentliklari sifatida talqin qilinishiga asos bo'la oladi. Ayniqsa, eng kichik sodda gap qolipining aniqlanishi gap bo'laklariga yangicha yondashish zaruriyatini keltirib chiqardi.

(WRm) asosida bo'laklarni talqin etish an'anaviy ikki a'zoli, ya'ni keng ma'nodagi izohlovchi izohlanmish/izohlanmish - izohlovchi tarzida (ega - kesim, to'ldiruvchi-to'ldirilmish, aniqlovchi-aniqlamish kabi) nisbiy mustaqil holatlarda olib qaraladigan formal-grammatik oppozitsiyalar tadqiqidan farq qiladi. (WRm)ga bog'liq bo'laklar tahlilida birinchi o'ringa gap tarkibidagi bo'laklarning sodda gap qurilishi asosi (WRm) va so'z-markazlar (W) ta'siridagi semantik-sintaktik kengayish munosabatlari qo'yiladi. Demak, bunda gap bo'laklari kengayish tizimining tashkil etuvchilari sifatida talqin etilib, bu taqlin usuli an'anaviy usuldagi ikki bo'lakning o'zaro bog'lanishi bo'yicha hosil bo'ladagan vazifalar talqinidan o'zining nuqtai nazari va munosabat turiga ko'ra tamoman farqlanadi. Demak, "kengayish" tahlili gap bo'laklarining an'anaviy binar, formal-funksional tahlillari natijalarini yo'qqa chiqarmaydi, balki ularni fe'l asosli shakllangan sintaktik imkoniyat, munosabat turlari va tizimlari nuqtai nazaridan boyitadi.

Tilshunosliqdagi ko'plab tadqiqotlarda «sezgi fe'llari» tushunchasi ostida keng ma'nodagi predmetlarning bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga bo'lgan harakati tushunilgan. Aniqki, harakat fe'llarini bunday tavsiflash nisbatan cheklangan xarakterga ega. Negaki, bunda borliqdagi boshqa harakatlar o'z aksini topmaydi, harakatning xususiy ko'rinishlari umumiylikka birlashmaydi. SHunga ko'ra, sezish bilan bog'liq «harakat fe'llari» maydoniga dastavval borliqdagi faol (dinamik) harakatlarni ifodalovchi fe'llarni kiritish zarur. «Harakat» ma'nosiga umumiylik (invariant) sifatida yondoshib, uning namoyon bo'luvchi turli xususiyliklarini (variantlarini) hisobga olgan holda mazkur semantik maydondagi fe'llarni tasnif qilish to'la maqsadga muvofiq. Demak, harakat

fe'llari borliqdagi jamiki jonli (ayrim vaziyatlarda jonsiz) mavjudotlarning turli yo'nalishlarda va usullarda amalga oshirgan harakatlarini ifodalaydi. Ular nafaqat bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga bo'lgan siljish, ko'chishni, balki hayotiy zaruriyat bo'lgan barcha harakatlarni- ob'ektlarni qurish, kesish, qirqish, ulash, shaklini o'zgartirish, yaratish, buzish, jismoniy ta'sir etish kabi «cheksiz» ko'rinishlar va mohiyatlarga ega bo'lgan harakatlarni ham anglatadi.

Harakat fe'llarining semantikasini o'rganishda, asosan, differentsial-semantik tahlil qilish usuli - komponentli tahlil usulidan foydalanildi. Bu yuqorida keltirilgan «emoq» fe'lining ma'noviy xususiyatlarini ochishda inson va hayvon-parrandalarga xos belgilar bilan qiyoslanishda ko'rildi. Ta'kidlash zarurki, so'z ma'nosini tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganish usuli ma'noning tarkibini, tuzilishini, aniqlashda eng asosiy va qulay usullardan biridir. Chunki bunda leksikaning sistem tuzilishiga asoslaniladi. Unda semantik mezon asosida ajratiladigan alohida leksik tizim (semantik maydonlar) tadqiqot uchun tanlab olinadi. Mazkur semantik maydonlarni komponent tahlil usuli orqali tekshirish natijalari asosida turli tillarning leksik-semantik sistemasini yaratish, shu orqali tillarning semantik xususiyatlarini aniqlash va ularni qiyosiy-tipologik tahlil qilish imkoniyati vujudga keladi.

O'zbek tilidagi harakat fe'llarini komponentli tahlil qilish natijasida ularning umumiy va xususiy jihatlari aniklandi.

Fe'llarda faol harakat ma'nosining vujudga kelishida orttirma nisbat ko'shimchasining ta'siri katta. Bu ko'shimcha ko'p hollarda holat semali fe'llarda harakat semasini vujudga keltiradi: *eshitmoq* (holat fe'li) - *eshittirmoq* (harakat fe'li); Bu tilshunoslikda sezgi fe'llariga xos kauzativlikni yuzaga keltiradi.

Harakat fe'llarining ob'ekt valentligi holat fe'llarining ob'ekt valentligidan tubdan fark qiladi. Chunki holat fe'llarining ob'ekt aktanti asosida ob'ekt valentligi va kauzativlik yuzaga keladi, harakat fe'llarida esa bunday emas.

Ob'ektli harakat fe'llari ob'ekt valentli mustaqil gapda deyarli vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi. Ob'ekt aktanti ob'ektli munosabatni yuzaga keltiradi, aniqrogi, ob'ektli

fe'l grammatik ma'no qurilmasida qatnashadi, ya'ni ob'ektli fe'l harakatning vositasiz to'ldiruvchi ifodalaydigan ob'ektga yo'nalishini bildiradi. Ob'ektli harakat fe'llari uchun ob'ekt valentligi nozaruriy valentlik bo'lib, uning ifodalovchilari ma'nosidagi semalar muhim ahamiyatga egadir.

Harakat fe'llarining «ijro ifodalovchi» birlashtiruvchi semali fe'llarda ob'ekt valentligi nozaruriy valentliqdir. Zero, fe'l sememada ifodalangan harakat natijasida predmet-ob'ektlar yaratiladi, barpo etiladi, ob'ektlar bir-biriga biriktiriladi, bog'lanadi yoki aksincha, bir-biridan ajratiladi, ularning holati, shakli, sathi, joylashuviga o'zgartirish kiritiladi. SHunga ko'ra harakat bevosita o'tayotgan, ya'ni agentsning ta'sirida o'zgartirilayotgan ob'ektning gap qurilmasida qatnashishi oldindan belgilangan bo'lgani uchun nozaruriy ahamiyat kasb etadi. Natijali ijroni ifodalovchi fe'llarning ob'ekt valentligini ularning farqlovchi semalari belgilaydi. Ya'ni ular aynan farqlovchi semalariga ko'ra valentlikka ega bo'ladi.

Ma'lumki fe'llar asosan o'timli hisoblanadi. Ammo bu hamma vaqt ham shunday degani emas. Kauzativ bo'lmagan o'timli fe'llarda o'timlilik ob'ekt bilan bog'lanib, holatning ob'ektga o'tishi bilan tugallansa, kauzativli fe'l xolatli ob'ektning sub'ekt ta'sirida boshqa bir xolat kasb etishi orqali reallashadi. Masalan: *isidi* – *isitdi* kabi.

Ma'lumki, paradigmatic munosabatdagi so'zlar orasida o'zaro oppozitsiya mavjuddir. Harakat fe'llari leksik-semantik guruhlarining ichki semantikasidagi fe'l sememalar paradigmatic munosabatida ham oppozitsiya (ziddiyat) kuzatiladi. Harakat a)teng qiymatli (ekvipolent): *yemoq* - *ichmoq*, *chimdimoq* - *bo'shatmoq*, *yalamoq* - *yutmoq*.

b)darajali (gradual): *shimimoq-so'rmoq -yutmoq*; *ho'plamoq* - *ichmoq -simirmoq -sipqarmoq* va h. k.

Bu esa o'zbek tilidagi sezgi harakati bilan bog'langan fe'llar orasidagi semantik graduonimiya va ular ma'nosining kuchayib borishiga ko'ra joylashtirish orqali talqin etilishini ham ko'rsatadi. Graduonimik munosabat ular orasidagi ma'noviy jarayon bilan uzviy bog'liq. Fe'llarning bu kabi ma'noviy xususiyatlari qatorida uning nutqiy ifodasi,

mazmuniy qo'llanishi, boshqacha aytganda, pragmatik, stilistik xarakteri ham muhim rol o'ynaydi. Bu fe'llar, shu jumladan, biz tahlil qilishga uringan tana sezgisi bilan bog'liq fe'llarda ma'lum darajada uchrashi, shubhasiz. Bu kichik umumlashma tavsifdan shunday xulosa chiqarish mumkinki, borliqdagi yuz beradigan turli harakatlar, holatlar, sezish va ta'sirlanish hodisalari benihoya turli tuman, murakkab va «mayda»dir. Bunday hodisalarning deyarli ko'pchiligi tilda fe'l shakllari orqali ifoda etiladi. Bas, shunday ekan, ularning leksik-semantik guruhlarini aniqlash, xillarga ajratish ham o'z-o'zidan katta qiyinchiliklarga olib keladi va xilma-xilliklarni keltirib chiqaradi. Bu esa o'zbek tilidagi sezgi harakati bilan bog'langan fe'llar orasidagi semantik graduonimiya va ular ma'nosining kuchayib borishiga ko'ra joylashtirish orqali talqin etilishini ham ko'rsatadi. Graduonimik munosabat ular orasidagi ma'noviy jarayon bilan uzviy bog'liq. Kengayish hodisasining gap qolipi modda ma'nosiga(predikativ markazga) va leksemaga(valentlik imkoniyatlariga) oidligi, bir tomondan, kengayish asoslarining nisbiy mustaqil lisoniy birliklar ekanligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, har ikkalasining nutqda turli mavqelardagi(so'z va gap kengaytiruvchiligi) markazlar vazifasida chiqib, uyg'unlashib, asosiy va qo'shimcha xabarlarini (tushunchalarni) o'zaro hamkorlikda ifodalanayotganliklarini anglatadi. Ushbu uyg'unlashish jarayonida so'z va gap kengaytiruvchilari o'zaro yaqinlashishlari, birlashishlari va natijada so'z va gap kengaytiruvchilarining xususiyatlarini o'zida namoyon etuvchi oraliq uchinchi holatlarni vujudga keltirishlari mumkin.

Gap kengayish tizimidagi darajalanish hodisasi talqini fe'l, xususan sezgi fe'llari valent imkoniyatlariga muhim tuzatishlar kiritadi. Tadqiqot natijalari fe'llar semantikasining valent imkoniyatlari keng ekanligidan, bu esa o'z navbatida, ularning so'z valentligi va gap valentligi mavqelarida bo'lib, ularda o'zaro bog'lanish, o'tish, aylanishlar dialektikasi borligidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov X., SHodmonov E. O'zbek tili. - T.: O'qituvchi 1982. - 158 b.
2. Abdurahmonov G'. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: O'qituvchi, 1979. - 204 b.
3. Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi. Filol. fanlari nomzodi ilm. dar. olish uchun taqdim etilgan dis. avtoreferati- T.;1994.- B. 21.
4. Akbarov S. O'zbek tilida sintaktik sinonimlar masalasi// O'zbek tili va adabiyoti, - 1961, - № 6. - B. 52-56.
5. Akramov SH.O'zbek tili gap qurilishida to'ldiruvchi va hol((WpM) valentlik aspektida).NDA.Toshkent. 1997 yil.
6. Ahmedova S. Ba'zi sintaktik sinonimlarning strukturasi haqida//Sovet maktabi, - 1968. - № 10, - B. 30-32.
7. Dadaboev H. va boshq. O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. T.Fan. 2007.
8. Zamonaviy o'zbek tili. 1-jild.Morfologiya. Jamoaviy. Toshkent . 2008.
9. Karimjonova V. Leksemalarning boshqaruv bog'lanishida yuza ifoda etuvchi klassemalari//O'zbek tili va adabiyoti, - 1983. - № 3.-B. 19-23.
10. Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik assimetriya. - T.: O'qituvchi, - 1984. - 148 b.
11. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). - T, O'qituvchi, - 1995, - 232 b,
12. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. - T.: O'qituvchi, - 1978. - 256 b.
13. Mirtojiev M. Fe'l valentligi. Toshkent. 20....

14. Nazarova S. So'zlarning birikish omillari haqida (Semantik omil)// Jumhuriyat yosh tilshunoslarining an'anaviy ilmiy konferensiyasi materiallari. O'zb.Resp. FA Tilshunoslik in-ti, IV chiqish. - T.; - 1992. - B. 40-41.
15. Ne'matov H. Maktabda til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish. - T.; Kitob, - 1992. - 28 b.
16. Ne'matov H. Bozorov O. Til va nutq. - T.: O'qituvchi, - 1993. - 30 b.
17. Ne'matov H. Fe'l, uning forma va kategoriyalari//O'zbek tili va adabiyoti, - 1972. - № 1. - B. 39-46.; - № 2. - B. 42-49.
18. Ne'matov H. G', Qayta qurish strategiyasi va o'zbek sinxronik tilshunosligining vazifalari//O'zbek tili va adabiyoti, 1987. - № 3, - B. 27-31.
19. Nurmonov A. Gap haqida sintaktik nazariyalar (Maxs.kurs).- T.: TDPI., - 1988, - 100 b.
20. Nurmonov A. va boshqalar. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - T.: Fan, - 1992. - 294 b.
21. Nurmonov A, Tilni sistemali o'rganish va sintaksisning ayrim munozarali masalalari//O'zbek tili va adabiyoti, -1988, - № 6, - B. 22-26.
22. Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. - T: Fan, - 1989, - 131b,
23. Rasulov R. So'z valentligi va sintaktik aloqa//O'zbek tili va adabiyoti, - 1992, - № 5/6. - B. 36-40.
24. Rahmatullaev SH. O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi. T. Universitet. - 1992. - 126 b.
25. Sayfullaeva R. Abuzalova M. Gapning eng kichik qurilish qoliplari haqida//O'zbek tili va adabiyoti - 1991. - № 4, -B, 42-46,
26. Tursunov U. Muxtorov J. Rahmatullaev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurti filologiya fakul'tetlari talabalari uchun darslik, -T,: O'zbekiston. - 1992. 399 b.

- 27.Sodiqova M. Fe'l stilistikasi. Fan. 1975.
- 28.To'ychiboev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sintaktik sinonimika, - T.; Fan, - 1988, - 85 b.
- 29.Fitrat. O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba, SARF. 1-kitob, to'rtinchi bosma. - Samarqand-Toshkent, O'zdavnashr,-1930. -39 b.
30. SHahobiddinova SH. Grammatik ma'no talqini xususida: Filol. fanlari nomzodi, avtoref. - Samarqand, - 1993. - 24 b.
- 31.SHoabduraxmonov SH. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'qituvchi .1980.
- 32\33. O'zbek tili grammatikasi. - T. Fan. 1975. 1976, T. 1.- 2 tom. 610 b. 560 b.
- 34.O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. - M. Rus tili nashriyoti – 1981.
- 35.Qo'chqortoev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. - T. Fan. -- 1977. - 167 b.
- 36.G'oziev H. O'zbek tili grammatikasi. - II qism.- Sintaksis. - T.: O'zdavnashr. - 1938. - 41 b,
- 37.G'oyibov S. Fe'l leksik ma'nosining sintaktik birikuvchanlikka ta'siri//O'zbek tili va adabiyoti, - 1983. - № 3.- B. 28-31,
- 38.G'ulomov A., Asqarova M. Hozirga o'zbek adabiy tili, Sintaksis. – T. O'qituvchi. - 1987. - 256 b.
- 39.G'ulomov A. O'zbek tili sintaksisining ba'zi masalalari/ O'zbek tili va adabiyoti, - 1968. - № 2,- B. 9-13.
- 40.G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tilidan ta'lim mazmunini yangilashning asosiy yo'nalishlari, - T.; O'qituvchi. - 1993. - 122 b,
- 41.Xojiev A. Fe'l. Ko'makchi fe'llar. Toshkent.1966.
42. Xojiev A. Fe'llarning o'timli o'timsizligi haqida// O'zbek tili va adabiyoti- 1970. - № 1,- B. 39-40.